

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS

TA’LIM VAZIRLIGI

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

TARIX FAKULTETI

TARIX KAFEDRASI

Tarix yo‘nalishi 08.437-guruh bitiruvchisi Kamolova Dilshoda
Odiljonovnaning
**“Farg‘ona vodiysida sanoat korxonalarining shakllanishi va
ularning turlari (XIX asr oxiri XX asr boshlari)”**
mavzusidagi

Bitiruv malakaviy ishi

Ilmiy raxbar: tarix fanlari nomzodi, dotsent A. Sharafiddinov

Farg‘ona-2012

MUNDARIJA

Kirish.....	3-6
--------------------	------------

I bob Farg‘ona vodiysini podsho Rossiyasining xom-ashyo bazasiga aylantirilishi va sanoat korxonalarining tashkil etilishi.....	7- 65
--	--------------

1.1.Farg‘ona viloyatining tashkil etilishi va podsho Rossiyasining xom-ashyo bazasiga aylantirilishi.....	7-12
---	------

1.2. Paxtachilikning rivojlantirilishi va paxta tozalash sanoatining paydobo‘lishi.....	12-39
---	-------

1.3. Yog‘ zavodlarining qurilishi va ularning faoliyati.....	39-47
--	-------

1.4. Ipakchilik korxonalarining shakllanishi va faoliyati.....	48-59
--	-------

1.5.Tog‘-kon sanoati.....	59-65
---------------------------	-------

II bob Farg‘ona vodiysida ishchilar sinfining shakllanishi, ularning ahvoli va ishchilar harakatlari.....	66-83
--	--------------

2.1 Farg‘ona vodiysida ishchilar sinfining shakllanishi va uning manbalari.....	66-70
---	-------

2.2 Sanoat korxonalarida ishchilarning ahvoli va norozilik harakatlari.	70-83
--	-------

Xulosa.....	83-84
--------------------	--------------

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati.....	85-87
---	--------------

Kirish

Mavzuning dolzarbligi.

O‘zbekiston o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritib, uni mustahkamlash va shuning asosida yangi huquqiy-demokratik jamiyat qurish yo‘liga o‘tdi. Mustaqillik tufayli respublikamizda ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy va siyosiy hayotda juda katta tub o‘zgarishlar ro‘y byerdi. O‘zbekistonda tarixiy jihatdan qisqa bir davr ichida milliy davlatchilikni barpo qilish, bozor iqtisodiga o‘tish, xalqaro munosabatlarni yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish bobida ulkan ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, istiqlol xalqimizning ma’naviy uyg‘onishi uchun to‘la imkoniyat yaratdi. O‘zbekiston prezidenti I.A.Karimov o‘zining bir qator chiqishlarida kishilar dunyoqarashi va jamiyat mafkurasining shakllanishida ijtimoiy fanlarning xususan, tarix fanining o‘rni beqiyosligini ta’kidlab o‘tdi. Jumladan, Prezidentimiz milliy mafkuraning shakllanish jarayonida tarix fanining o‘rniga g‘oyat yuksak baho byerib: “Milliy mafkurani shakllantirishdagi eng katta manba - bu haqqoniy yoritilgan tarixdir”¹, - deb ko‘rsatadi.

Darhaqiqat, o‘zbek xalqi mustaqillikka tinch yo‘l bilan yerishgan bo‘lsa-da, istiqlol uchun olib borilgan kurashlarning ildizlari uzoq tarixga borib taqaladi. Mustaqillik sharofati bilangina, bu kurashlar tarixni xolisona o‘rganishga imkoniyat yaratildi va milliy tariximiz, ma’naviy boyliklarimizni sinfiy, partiyaviy, to‘siqlar bilan xalqdan ajratib qo‘yishdek illatga barham byerildi. Mustaqillik yillarida respublikamiz ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy va siyosiy hayotida juda katta tub o‘zgarishlar ro‘y byerdi. Jahonning boshqa xalqlari qatori O‘zbekiston xalqi ham yangi XXI asrga ishonch va umidlar bilan qadam qo‘ydi.

Barcha sohalarda bo‘lgani kabi tarix fani sohasida ham inkor etib bo‘lmas yutuqlar qo‘lga kiritildi. Bu borada Prezidentimiz I.A. Karimovning 1998 yil 26 iyunda bir guruh tarixchi olimlar, jurnalistlar va ijodiy guruh xodimlari bilan bo‘lgan uchrashuvlaridagi muloqoti tarix fani taraqqiyotidagi muhim omil bo‘ldi.

Yurtimiz tarixi bizning eng katta boyligimizdir. Hukmron kommunistik mafkura ta’sirida o‘tmishimizdagi talaygina tarixiy jarayonlar, ijtimoiy-siyosiy

¹ Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi-xalq e’tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir.-T. O‘zbekiston.2000.-B.206.

harakatlar ongli ravishda soxtalashtirilib, noto'g'ri talqin etilganligi bugungi kunda barchamizga ayondir. E'tirof yetish joizki, o'z "tarixini bilgan, undan ruhiy quvvat oladigan xalqni yengib bo'lmas ekan, biz haqqoniy tariximizni tiklashimiz, xalqimizni, millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur...."¹

Sovet hukumati tomonidan Farg'ona vodiysida sanoat korxonalarining tashkil etilishi va ularning faoliyatini bugungi kunda xalqimizga xolisona yetkazish har bir tarixchining burchi hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishning davriy chegarasi. Ilmiy tadqiqot uchun davriy chegara qilib XIX asr oxiri XX asr boshlarini o'z ichiga olindi. Chunki Turkistondagi og'ir iqtisodiy vaziyat ana shu yillarda o'zining "meva"sini byera boshladi.

Mavzuning o'rganilish darajasi. Bitiruv malakaviy ishda o'rganilayotgan masalalar o'sha davr mualliflari tomonidan ma'lum darajada yoritib byerilgan. Lekin maxsus tadqiqot sifatida o'rganilgan emas. Qator asarlarda paxtachilikning rivojlanishi, paxta tozalash zavodlari va yog' zavodlari haqida ma'lumotlar uchraydi. Bazi kitoblar va maqolalar sanoat korxonalari tarixi va o'lkada ishlab chiqarish kuchlari tarixini o'rganishga bag'ishlangan.² Lekin, bularda ko'pgina faktik matyeriallar uchraydi. Biroq, bu mualliflar o'z tadqiqotlarida podsho Rossiyasini paxtachilik, sanoat masalalaridagi siyosatning mohiyati va harakterini ochib byera olmaganlar.

Aytish kerakki, XX asrning 20-30-yillariga kelib qator asarlar e'lon qilindiki, ularda paxtachilikni rivojlantirish, o'rganish orqasida Turkiston o'lkasida sanoatni turli tarmoqlarining holati ham o'rganilgan. Masalan, Yufyerov V.P.³, Demidov A. P.¹, Galuzo P. G.², Turudov M. A. va Detichyar V. I.³ lar shular jumlasidandir.

¹ Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.-T.: SHarq, 1998,-B,24-25.

² Шахназаров А.И. Шелководство в Туркестанском крас. СПб. : 1890; Вебер В. Полезные ископасмые Туркестанстана. СПб. : 1913;Слуцкий И. Хлопкоочистительные заводы. Туркестанский сборник. Том 527; Ховренко И.А.Очерки винограводства и виноделия в Туркестанс. СПб.:1913.

³ Юферов В. П, Хлопководство в Туркистане. -Л. : 1925.

¹ Демидов А.П, Экономический очерк Хлопководство, хлопкоторговли и хлопковой кромышленности в Туркистане. - М. : 1920.

² Голузо П. Г. Туркистан- Колония. -М. : 1929.

Ushbu muammoga u yoki bu darajada O'zbekistonning yangi tarixida qisman yoritib byerilgan.⁴ SHuningdek, o'rganilayotgan masalaga profssor H. Z. Ziyoyev⁵ alohida e'tibor bilan yondashgan.

Demak aytish mumkunki, ushbu muammoga ayrim mualliflar umumiy tarzda o'z e'tiborini qaratganlar, lekin kompelks ravishda alohida tadqiqot sifatida maxsus o'rganilgan emas. Bu esa mavzuning dolzarb ekanidan dalolat byeradi.

Bitiruv malakaviy ishning maqsad va vazifalari. Tadqiqotning asosiy maqsadi, XIX asr oxiri XX asr boshlarida Farg'ona vodiysida sanoat korxonalarining shakllantirish borasida yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni holis yoritish va uni iste'molga kiritishdan iboratdir. Tadqiqot natijalari asosida umumiy xulosa qilib, ushbu mavzu bo'yicha o'rganilishi lozim bo'lgan masalalar yuzasidan amaliy takliflar bildirish.

Bitiruv malakaviy ishning uslubiy asosi. Bitiruv malakaviy ishini yozish jarayonida tadqiqotchi tomonidan mavzuga milliy va umuminsoniy qadryatlar, milliy istiqlol g'oyasi nuqtai nazaridan yondashildi. SHu bilan birgalikda yurboshimiz I.A. Karimovning asarlari, nutq va maqolalarida ilgari surilgan g'oya-fikirlar uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Bitiruv malakaviy ishning manbalari. Tadqiqotning asosiy manbalari mustabid va mustaqillik yillarida yozilgan maqolalar, monografiyalardan mavzuni yoritishda birlamchi manba sifatida foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy yangiligi. Bitiruv malakaviy ishning ilmiy yangiligi shundan iboratki, tadqiqotchi mavzuni yoritishda Farg'ona vodiysida dastlabki sanoat korxonalarining vujudga kelishi va faoliyati ilk bor umumlashtirilgan holda xolisona mavjud manbalarga tayanib tahlil qilindi.

Bitiruv malakaviy ishning amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishi yangi ilmiy tadqiqot ishlari va mavzuga oid asarlarda keltirilgan ma'lumotlar bilan boyitilgan bo'lib, unda Oliy o'quv yurtlari va o'rta mahsus bilim maskanlarida

³ Турудов М. А. и Детичяр В. И. Производства копоров в Средней Азии. – Т. : 1972.

⁴ Туркистон чор Россияси мустамлакачилик даврида. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб. – Т.: Шарқ, 2000.

⁵ Ziyoev X. Z. O'zbekiston mustamlaka va zulm iskanjasida.- T.: SHarq, 2006.

talabalar uchun dars jarayonida, mahsus kurslar va seminarlar tashkil yetishda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishning tarkibi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, xulosa va foydalanilgan manba adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I bob Farg‘ona vodiysini podsho Rossiyasining xom-ashyo bazasiga aylantirilishi va sanoat korxonalarining tashkil etilishi

1.1.Farg‘ona viloyatining tashkil etilishi va podsho Rossiyasining xom-ashyo bazasiga aylantirilishi

Podsho Rossiyasi O‘rta Osiyoga nisbatan bosqinchilik maqsadlarini amalga oshirib, XIX asrning 50-70 yillarida Qo‘qon xonligini bosib oldi. Xiva xonligi va Buxoro amirligi Rossiya imperiyasi vassaliga aylantirildi. Bosib olingan hududlar hisobiga 1867 yildayoq Turkiston genyeral-gubernatorligi tashkil etilgan edi. O‘lkaning eng obod va syerunum hududlari, xususan Qo‘qon xonligi yyerlari, Buxoro amirligi va Xiva xonligining ma’lum qismlari genyeral-gubernatorlik tarkibiga kiritildi. Rossiya imperiyasi tarkibiga kiritilgan ushbu hududlarda milliy davlatchilik tugatildi, uning o‘rnida mustamlakachilikka asoslangan Rossiya harbiy-ma’muriy boshqaruv tizimi tashkil etildi.

Natijada, hududiy bo‘linish qaytadan ko‘rib chiqildi. Ushbu davr tarixini o‘rganuvchilar uchun podsho Rossiyasi tomonidan bosib olingan joylar qaytadan qanday hududlarga bo‘lingani va ular qanday nomlar bilan atalganligini bilish ma’lum qiyinchiliklarni vujudga keltiradi. SHuningdek, tarixiy-geografik nomlar, toponimlar, hududlarning chegaralari, maydonlarining hajmi, ma’muriy bo‘linishining miqdori haqida ma’lumotga ega bo‘lish ham qiziqarlidir, albatta.

Turkiston general-gubernatorligi tarkibida beshta viloyat: Sirdaryo, Ettisuv, Samarqand, Kaspiyorti va Farg‘ona viloyatlari tashkil etildi.¹

Farg‘ona viloyati 1876 yil 19 fevralda imperator Aleksandr II ning farmoni bilan barpo etildi. Farmonga asosan viloyatning tarkibi Qo‘qon, Marg‘ilon, Chimyon, Andijon, Namangan, Chust va O‘sh uездlaridan iborat qilib belgilandi.

Keyinchalik, (1886 yil) “Turkiston o‘lkasini boshqarish to‘g‘risidagi Nizom” qabul qilingandan so‘ng Chimyon uezdi Marg‘ilon uездiga, Chust uezdi

¹.. А Шарафиддинов Н.Алимова Фарғона водийси чор Россияси мустамлакачилиги даврида Фарғона-2011 Б.24

Namangan uezdiga qo‘shib yuborildi va Farg‘ona viloyati 1917 yilgacha 5 ta uezdgan iborat bo‘ldi.

Turkiston o‘lkasini, uning viloyatlari va uездlarini harbiylar boshqarganlar. Farg‘ona viloyatining birinchi harbiy gubernatori etib genyeral-mayor D.M. Skobelev tayinlandi. Harbiy gubernatorlarni shaxsan impyeratorning o‘zi tayinlagan harbiy gubernatorlar o‘zlarida harbiy va fuqaro hokimiyatini mujassamlashtirgan. Ular harbiy sohada viloyatlardagi qo‘shinlar (diviziya yoki korpus) qo‘mondoni fuqaro ishlarida keng huquq va majburiyatlarga ega bo‘lishgan. Barcha ma‘muriy, politsiya va sud hokimiyati ham ular qo‘lida jamlangan.

Harbiy gubernatorlar qoshida viloyat boshqarmalari bo‘lib, ular gubyrna boshqarmasi huquqlariga ega bo‘lishgan. Viloyat hayotining barcha masalalari shu boshqarmalarda ko‘rib chiqilgan. Viloyatlar o‘z navbatida uездlarga bo‘linib, ularni uезд boshliqlari idora yetishgan. Uездlar Turkiston genyeral-gubernatorligi ma‘muriy tuzilmasining o‘zagini tashkil etgan. Ular rus amaldorlari tomonidan aholi turmushi, hudud xususiyatlari, milliy, tarixiy an‘analarga zid tarzda o‘zboshimchalik bilan tuzilavergan. CHor hukumati bu masalaga mustamlakachilik nuqtai nazaridan yondoshgan.¹

O‘z navbatida uездlar uchastka va volostlarga, volostlar qishloq jamoalariga bo‘lingan. O‘lkaga ko‘plab ruslarning ko‘chirib keltirilishi oqibatida rus posyolkalarida ham qishloq jamoalari tashkil etilgan.

1900 yilda Farg‘ona viloyatining 5 ta uездida 99 ta volost va 602 ta qishloq jamoalari, 5 ta rus posyolkalari va qishloq jamoalari mavjud edi.

Quyidagi jadval volost va qishloq jamoalarining uездlar qismida qanday tashkil etilganligini ko‘rsatadi.²

1-jadval

№	Uездlar	Uездlarda
---	---------	-----------

¹ А..Шарафиддинов Н.Алимова Фаргона водийси чор Россияси мустамлакачилиги даврида Фаргона-2011 Б.25

² Жадвал қуйидаги материал асосида тузилди: Обзор Ферганской области за 1900г.-г. Новый Маргелан, 1901г.-стр.9

		Volostlar	Qishloq jamoalari	Rus posyolkalari
1	Marg‘ilon	19	129	1
2	Ko‘kon	23	137	-
3	Namangan	26	138	1
4	Andijon	19	115	2
5	O‘sh (Pomir bilan birgalikda)	12	83	1
	Jami	99	602	5

Shuni ham ta’kidlash lozimki, uездlar bir necha uchastkalarga bo‘lingan. Uездlarni uезд boshliqlari, uchastkalarni uchastka pristavlari, volostlarni volost boshliqlari, qishloq jamoalarini oqsoqollar boshqarganlar.

Turkiston o‘lkasidagi uезд boshliqlarining Rossiyadagi hamkasblaridan farqli tomonlari shunda ediki, ular ma’muriy, politsiya va harbiy hokimiyatni o‘zlarida birlashtirganlar. Ularning juda keng vakolatlari va zo‘ravonlarcha ish yuritganliklarini yuksak lavozimdagi rus amaldorlarining e’tirof yetishgani diqqatga loyiq. Senator graf K. Palen Turkistondagi uезд boshliqlarini o‘zbek xonliklaridagi “beklarning huddi o‘zginasidir” deb atagani bejiz emas. Ular qo‘l ostidagi aholidan istagan kishiga jarima solishlari va 7 kungacha qamab qo‘yishlari mumkin edi. Ular rus armiyasi katta zobitlaridan, asosan mayor, rotmistrdan polkovnik unvonigacha ega bo‘lganlardan tayinlangan. Xalq ularni “hokim to‘ra” deb ataganlar.¹

Uездlar bir necha uchastkalarga bo‘linib, idora qilingan. Uchastkalarni kichik unvondagi (poruchik - shtab-kapitan) harbiy zobitlar boshqargan. Ular uchastka pristavlari sifatida “Turkiston o‘lkasini boshqarish haqidagi Nizom”da tilga olinadi. Impyerator tomonidan 1886 yilda tasdiqlangan mazkur Nizomda uchastka pristavlariga mahalliy aholidan istalgan odamga jarima solish (5 so‘mdan 10 so‘mgacha) va 3 kungacha hibsdan saqlab turish huquqi byerilgan edi.²

Har bir uезд o‘z tarkibida shahar qishloqlari bilan uезд hokimiga bo‘ysungan. Uезд boshlig‘i viloyat harbiy gubernatori tavsiyasi bilan (bevosita genyeral-gubernator tomonidan) lavozimga tayinlangan. Uезд boshliqlari

¹ А.Шарафиддинов Н.Алимова Фарғона водийси чор Россияси мустанлакачилиги даврида Фарғона-2011 Б.2

² O‘sha joyda

ma'muriy, politsiya va harbiy hokimiyatni o'zlarida birlashtirganlar. Uezd boshliqlari o'z hududidagi aholidan xohlagan kishiga jarima solishlari va 7 kungacha qamab qo'yishlari mumkin edi. Uezdlar bir necha uchastkalarga bo'lingan. Farg'ona viloyati uezdlari 20 ta uchastkaga bo'lingan edi. Uchastkalar uchastka boshliqlari tomonidan boshqarilgan. Ularga ham o'z hududlarida mahalliy aholidan istagan odamga jarima solish (5 so'mdan 10 so'mgacha) va 3 kungacha hibsda saqlab turish huquqi byerilgan edi. Uchastka boshliqlari harbiy boshqaruvning oxirgi bo'g'ini edi.

Quyidagi ma'lumotlar Farg'ona viloyati uezdlari qanday uchastkalarga va volostlarga bo'linganligini ko'rsatadi:¹

Marg'ilon uezdi:

1. SHahar atrofi uchastkasi - uning tarkibida Fayziobod, Yozyovon, Oltiariq, Yakkatut va Marg'ilon volostlari bo'lgan.

2. Vodil uchastkasi - uning tarkibida CHimyon, Avval, Nayman va Yoykesak - Bo'ston volostlari bo'lgan.

3. Quva uchastkasi - uning tarkibida Quva, Qo'kon qishloq, Qoratepachovkent, SHahrixon, Segzin va Asaka volostlari bo'lgan.

4. Aravon uchastkasi - uning tarkibida Qulin, Aravan, Marhamat va Ichkilik volostlari bo'lgan.

Qo'qon uezdi:

1. SHahar atrofi uchastkasi - uning tarkibida Aravon, Ganjirovon va Kaynar volostlari bo'lgan.

2. Kenagas uchastkasi - uning tarkibida Kenagas, Qudash, CHirik Jiyda, Janjal, Qipchoq va Qoraqolpoq volostlari bo'lgan.

3. Bachqir uchastkasi - uning tarkibida So'x, Rishton, Zodiyon, Ultarma, Buvayda va Nayman volostlari bo'lgan.

4. Konibodom uchastkasi - uning tarkibida Naygut, Qipchoq, Laylak, Isfara, Konibodom, Yaypan, Besharik va Mahram volostlari bo'lgan.

Namangan uezdi:

¹ Обзор Ферганской области за 1900г.-г. Новъй Маргелан, 1901г.-стр.9

1. SHahar atrofi uchastkasi - uning tarkibida To'raqo'rg'on, Qirg'izqo'rg'on, Xonobod, Kapa va Uychi volostlari bo'lgan.

2. CHodak uchastkasi - uning tarkibida Bobodarxon, Asht, CHodak, Pop va Olmos volostlari bo'lgan.

3. CHust uchastkasi - uning tarkibida CHust shahri Varzak, Ahsi-SHahand, Qutlug'-Said va CHotqol volostlari bo'lgan.

4. Nanay uchastkasi - uning tarkibida Arim, Susamir, Boyiston, Nanay, Bog'ish, Sori va Qiriq o'g'il volostlari bo'lgan.

5. Yangiqo'rg'on uchastkasi - uning tarkibida Yangiqo'rg'on, Pishqo'rg'on, CHortoq, Kosonsoy va Tyergachi volostlari bo'lgan.

Andijon uezdi:

1. SHahar atrofi uchastkasi - uning tarkibida Hakan, Yorboshi, Oltinko'l va Baliqchi volostlari bo'lgan.

2. Sultanobod uchastkasi - uning tarkibida Jalaquduq, Qo'rg'ontepa, Oyim va Qorasuv volostlari bo'lgan.

3. Izboskan uchastkasi - uning tarkibida Mayli Izboskan, Haqqulobod, Norin va Kenko'l Qoragir volostlari bo'lgan.

4. Jalolobod uchastkasi - uning tarkibida Jalolobod, O'zgan va Kugart volostlari bo'lgan.

5. Bozorqo'rg'on uchastkasi - uning tarkibida Bozorqo'rg'on, Ko'qon qishloq, Novkat va Maygir volostlari bo'lgan.

O'sh uezdi:

1. Aholi o'troq yashaydigan hudud pristavi - O'sh, Buloqboshi, Oq bo'yra, Novkat va Qashg'ar qishloq volostlari bo'lgan.

2. Aholi ko'chmanchilik bilan yashaydigan hudud pristavi -G'ulcha, Oloy, Qurshob va Qapchig'oy volostlari bo'lgan.

Ta'kidlash lozimki, aholi sonining ko'payishi, qishloq jamoalarida xo'jaliklar sonining ortib borishi natijasida viloyat gubernatorining buyrug'i bilan volostlar va qishloq jamoalarining soni ortib borgan. CHunki, volost asosini ming xonadondan ikki ming xonadongacha, ovul jamoalarini esa yuz o'tovdan ikki yuz

o'tovga qadar aholi tashkil etgan. Masalan, viloyatda 1904 yilda 100 ta volost, 629 ta qishloq jamoalari, 1908 yilga kelib 103 ta volost, 642 ta qishloq, jamoalari bo'lgan edi.¹

SHunday qilib, Ko'qon xonligi tugatilib, uning o'rniga tashkil etilgan Farg'ona viloyatida yangi ma'muriy-hududiy boshqaruv tizimi vujudga keltirildi. Bu tizim mustamlakachi ma'muriyat manfaatlariga mos kelardi. Bu hol o'lkada podsho Rossiyasi hukmronligini mustahkamlashga, o'lkani tizimli ravishda mustamlakalashtirishga xizmat qildi.

1.2. Paxtachilikning rivojlantirilishi va paxta tozalash sanoatining paydo bo'lishi

Farg'ona vodiysi ajoyib tabiiy sharoiti va iqlimi bilan shuhrat qozonganligi ma'lum. U Turkiston zaminining javoxiri deb bejiz aytilmagan. Bu dargohda inson hayoti uchun nimaiki zarur bo'lsa, barchasi mavjud. Xalqining o'ta mehnatsevarligi va ishbilarmonligi orqasida dehqonchilik va hunarmandchilik yuqori bosqichga ko'tarilib, ulkan yutuqlarga yerishildi.

CHor hukumati vodiyni bosib olgandan keyin Qo'qon, Andijon, Namangan, Marg'ilon, O'sh va atrof joylarni o'z ichiga olgan Farg'ona viloyatini tashkil etdi. Bu yyerda 1903 yilda 1.770.621 kishi yashab, ularning uездlar bo'yicha soni quyidagicha (2-jadval) bo'lgan edi.²

2-jadval

Uездlar	Tub aholi	Ruslar va boshqalar
Marg'ilon	388.454	5034
Qo'qon	419.286	3472
Andijon	384.241	2245
Namangan	406.395	1044
O'sh	172.245	1649
Jami	1.770.621	13.444

Viloyatda aholining soni jihatdan Qo'qon va Namangan oldingi safda bo'lgan.

Birinchi jahon urushi arafasida esa aholining soni 2 milliondan oshib

¹ А.Шарафиддинов Н.Алимова Фарғона водийси чор Россияси мустамлакачилиги даврида Фарғона-2011 Б.28

² Ежегодник Феграниской области, Т. 3 Новый Маргелан, 1904. С. 4.

ketgandi. Viloyatda 2546 nafar rus yashagan.³ Farg‘ona viloyatidagi dehqonlarning aksariyat qismi paxtachilik bilan shug‘ullanib, u quyidagi volostlarni qamrab olgan edi:

Qo‘qon uezdi bo‘yicha		Andijon uezdi bo‘yicha			
1.	Qaynar	23.	Jalolobod	41.	Oltiariq
2.	Ganjar	24.	Qo‘rg‘ontepa	42.	Aravan
3.	Aravan	25.	O‘zgan	43.	Asaka
4.	Saxan	26.	Oltinko‘l	44.	Avval
5.	Ziyovuddin	27.	Baliqchi	45.	Ichkli
6.	Rishton	28.	Xoqon	46.	Qoratepa
7.	Buvayda	29.	Yortosh	47.	Qo‘qon qishloq
8.	Ultrama	30.	Norin	48.	Quva
9.	Nayman	31.	Qo‘qon qishloq	49.	Kulin
10.	Yangiqo‘rg‘on	32.	Jalaquduq	50.	Mingtepa
11.	Layloq	33.	Kugarin	51.	Nayman
12.	Beshariq	34.	Xaqbulobod	52.	Segazin
13.	Mahram	35.	Novkant	53.	Fayziobod
14.	Konibodom	36.	Mayir	54.	CHimyon
15.	Yaypan	37.	Oyim	55.	SHahrixon
16.	Isfara	38.	Karg‘asu	56.	Yakkatut
17.	Naygut-qipchoq	39.	Bozorqo‘rg‘on	57.	Yozlon
18.	Qorako‘l	40.	Moyli-Izboskan	58.	Yakusibo‘ston
19.	Qudash				
20.	Janjal				
21.	Kenichez				
22.	CHirikjon				

Namangan uezdiga qarashli volostlarning ham barchasida paxta yetishtirildi. O‘sh uezdida asosan Buloqboshi volostida Amerika paxta navi ekildi. Vaqt o‘tgan sari mahalliy nav paxtani yyetishtirish (3-jadval) qisqarib bordi.²

3-jadval

Yillar	Amerika paxtasi (desyat.)	Mahalliy paxta (desyat.)	Jami (desyat.)
1888	15008	19661	34669
1889	27550	23166	50716
1890	32492	18649	51141
1891	52979	13315	66294
1892	72588	17196	89784
1893	71208	14092	85300
1894	67696	14644	82338
1895	94395	16084	109701
1896	115727	12999	128726
1897	102642	14153	116802
1898	35544	10686	106230
1899	144.444	10839	155283
1900	174026	12300	186326

Demak, Amerika paxtasi 1888 yilda 15008 desyatina maydonni o‘z ichiga olgan bo‘lsa, 1900 yilda 174026 desyatina ko‘tarildi. Mahalliy paxta ekin maydoni goh kengayib, goh kamayib turgan.

³ Ziyoev X. Z. O‘zbekiston mustamlaka va zulm iskanjasida. - T.: SHarq, 2006. B. 82.

¹ Ўзбекистоннинг янги тарихи. Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида. Т. Шарқ. 2000. Б.43.

² O‘sha joyda.

Qo‘qon uezdida 1891 yilda Amerika paxta navidan 166.000 pud, mahalliydan 70.000 pud hosil olingan.¹ Paxta uezdning 23 volostida, Beshariq, Konibodom, Rishton, Budash, Janjal, Yangiqo‘rg‘on va Ultarmada ayniqsa ko‘proq ekilgan.¹

Ko‘rsatilgan volostlarda bir desyatinadan 65 pud Amerika paxtasi olingan. Mahalliy navdan esa 1 desyatinada 40 pud paxta, 12 pud tola yetishtirilgan. Viloyatda qora chigit, ko‘k chigit, oq chigit singari navlar ekilgan. Ular “Upland” Amerika paxta navlarini iqlimlashtirish natijasida yuzaga kelgan bo‘lib, chigitlarning rangi bo‘yicha nomlangan.³ Aytib o‘tish lozimki, dastlabki vaqtlarda ko‘rsatilgan paxta navlarining urug‘lari alohida ekilgan bo‘lsa, keyinchalik zavodlarda tozalash jarayonida ular aralashtirib yuborilgan. Bularni saralashga ko‘p hollarda dehqonlarning vaqti bo‘lmagan.

Bu holat paxta navlarini va sifatini aniqlashda jiddiy qiyinchiliklar tug‘dirgan. SHu bois yaxshi bir urug‘lik navi keng tarqalmadi. Ular ko‘proq Namangan va Andijondagina ko‘zga tashlangan.⁴

1892 yilda viloyat bo‘yicha paxtaning holati qanday bo‘lganligini 4-jadvalda ko‘rish mumkin.⁵

4-jadval

Uezdlar nomi	Ekilgan maydon		Olingan hosil (pud)	
	Amerika paxtasi	Mahalliy paxta	Amerika paxtasi	Mahalliy paxta
	desyat.	desyat.	pud.	pud.
Marg‘ilon	11780	4830	705000	193200
Qo‘qon	8724	7619	981000	350000
Andijon	32842	3505	1313680	105150
Namangan	18682	1069	1361675	51398
O‘sh	560	173	12650	2680
Jami	72588	17196	4374005	702428

Namangan va Andijon uezdlarida paxta hosili bir million puddan oshgan. Qo‘qon uezdida salkam 1 million pud paxta tyerilgan. Qo‘qon uezdidan tashqari Marg‘ilon uezdida ham mahalliy paxta ko‘p yetishtirilgan. Viloyat bo‘yicha

¹ Ўзбекистоннинг янги тарихи. Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида. Т. Шарк. 2000. Б.43.

³ Ziyoev X. Z. O‘zbekiston mustamlaka va zulm iskanjasida. - T.: SHarq, 2006. Б. 84.

⁴ O‘sha joyda.

⁵ Обзор Феграниской области за 1892 г. Новый Маргелан, 1904. С. 11.

5076,433 pud hosil olingan. Bunday salmoqli miqdordagi hosilni yetishtirishga ob-havoning qulayligi va suvning etarli darajadaliği sabab bo'lgan edi.

1896 yilda Farg'ona viloyatida paxta ekin maydonlari va hosilning hajmi (5-jadval) quyidagicha bo'lgan.¹

Amerika paxtasi qayd qilingan yilga kelib, Farg'ona viloyatining dehqonchiligida salmoqli o'rinni egallab, ekilgan maydoni 155.682 desyatini, mahalliylik esa 14846 desyatini tashkil etgan.

Paxta hosili Amerika naviniki 7.996.015 pud va mahalliy naviniki 425.517 pud bo'lgan.

Farg'ona viloyati 1898 yilda paxta maydoniga va olingan hosilga tegishli raqamlarga (6-jadval) ko'ra bir desyatina yerdan 38—60 pud Amerika paxtasi olingan bo'lsa, mahalliy navdan 40-45 pud hosil yetishtirilgan. Hatto, Namanganda bir desyatina yerdan 62 pud paxta hosili olingan.²

5-jadval

Uezdlar	Ekilgan maydon		Paxta hosili		Hosil bir des.da		Paxta tolasi	
	Amerika paxtasi	Mahalliy paxta	Amerika paxtasi	Mahalliy paxta	Amerika paxtasi	Mahalliy paxta	Amerika paxtasi	Mahalliy paxta
	desyatina	desyatina	pud	pud	pud	pud	pud	pud
Marg'ilon	70184	5753	3509200	8447	50	14	1189733	Ma'lumot yo'q
Qo'qon	13090	6520	848950	252160	64	98	282326	
Andijon	47150	870	121720	33060	455	88	707240	
O'sh	2418	355	108974	6922	48	19	34658	
Namangan	22790	4348	414173	48900	62	36	471390	
Jami	155682	14846	7996015	425517	51	28	2665387	

6-jadval

Uezdlar	Amerika paxtasi	Hosil hajmi	Hosildorlik	Mahalliy paxta	Hosil hajmi	Hosildorlik
	desyat.	pud	Pud	desyat.	pud	pud
Maig'ilon	30000	1150	38	2000	80000	40
Qo'qon	13145	520	40	7436	334575	45
Andijon	28570	1550	55	55	2475	45
Namangan	22599	1351	60	836	37620	45
O'sh	1230	36	30	360	12600	35

Viloyatda paxtachilik, ayniqsa, Marg'ilon uездida o'sib, Amerika navi 30.000, mahalliylik 2000 desyatina yerni egallagan. Mahalliy paxta ko'proq Qo'qon

¹ Ziyoev X. Z. O'zbekiston mustamlaka va zulm iskanjasida. - T.: SHarq, 2006. B. 85.

² O'sha asar. B.86.

uezdida. yetishtirilib, ekin maydoni 7436 desyatini tashkil qilgan. Biroq, bu paxta miqdori ko'p bo'lgani bilan uning sifati va narxi pastroq edi.

1899 yilda paxta maydoni 40 foizga ko'paygan.¹ Buni nazarda tutgan Farg'ona viloyatining harbiy gubernatori Chaykovskiy Imperator nomiga yuborgan hisobotida: "Endilikda qattiq ishonch bilan aytish mumkinki, Rossiya sanoati uchun nihoyatda zarur bo'lgan paxtani ekish va uni rivojlantirish o'sib boraveradi", — deb yozgan edi. Shuningdek, u 1899 yilda paxta savdo firmalariga va aholiga 20 million so'm daromad keltirganini bayon etgan.²

CHaykovskiy paxtadan olinayotgan daromadni ro'kach qilib, har desyatidan 3 so'm 83 tiyindan olinayotgan soliqni 9—12 so'm orasida ko'paytirishni va bu bilan davlat xazinasiga foyda keltirishni tavsiya etadi. Uning ko'rsatishicha, paxtaga qo'yilayotgan imtiyozli soliqni saqlagan holda, savdoga yoki zavoddan chiqarilayotganda undan qo'shimcha soliq olish lozim edi. SHunday qilinganda davlat xazinasiga 100 minglab so'mlar tushishi ko'rsatiladi.

Rus ma'muriyati paxta hisobiga davlat xazinasini yanada ko'proq boyitishga harakat qilgan. SHunga qaramay hukumat endigina kuchga kirib borayotgan paxtachilikka zarba byermaslikni o'ylab, taklifni inobatga olmadi.

XIX asrning oxiriga kelib paxtaning xalq xo'jaligida tutgan o'rni yuqori pog'onaga ko'tarildi. Viloyat statistikasi boshqarmasiniig ko'rsatishicha, bir million olti yuz yigirma ming aholisi bor Farg'ona vodiysi katta mavqega ega bo'ldi. CHunki bu o'lkaning iqlim sharoitiga muvofiq paxta, nodir mevalar va uzumlar yetishtiriladi. Ayniqsa, paxta katta ahamiyatga ega bo'lib, har yili 25 milliondan 40 million so'mgacha daromad berdi. 1900 yili besh million pud paxta tolasi olinib, Rossiya sanoati ehtiyojining uchdan bir qismi ta'minlandi.

Viloyatdagi har bir volostda paxtaning boshqa ekinlar bilan o'zaro nisbatini ko'rsatuvchi ma'lumotlarga (7-jadval),³ ko'ra u ko'proq Baliqchi volostida (10390 desyatina), Norin (8790 desyatina), Qo'qon qishlog'ida (6970 desyatina) ekilgan . SHunga o'xshash Ziyovuddin volostida 4000 desyatina, Rishtonda 3975,

¹ Ziyoev X. Z. O'zbekiston mustamlaka va zulm iskanjasida.- T.: SHarq, 2006.B. 86.

² O'sha joyda.B.86

³ Ziyoev X. Z. O'zbekiston mustamlaka va zulm iskanjasida.- T.: SHarq, 2006. B. 87.

SHahrixon volostida 6980, Yozyovonda 4564 desyatina yerda yyetishtirilgan. Viloyat bo'yicha Andijon va Qo'qon uezdlari oldingi qatorda turgan.

Paxtani bug'doy, sholi va jo'xoriga solishtirganda ham salmoqli o'rinni egallagan. 1901 yilda paxta boshqa ekinlarning orasida oldingi safda turgan:

Amerika paxta navi.....191573
 Mahalliy paxta..... 15562
 Kuzgi bug'doy..... 88048
 Bahorgi bug'doy..... 80371
 SHoli.....60290
 Jo'xori..... 59797
 Beda..... 39565
 Makkajo'xori..... 38977
 Tariq.....12120 desyatin.

7-jadval

Qo'qon uezdi volostlar	paxta	g'alla	Jo'xori	sholi	Andijon uezdi volostlar	paxta	g'alla	jo'xori	sholi
	desyat.	desyat.	desyat.	desyat.		desyat.	desyat.	desyat.	desyat.
Qaynar	1740	1800	1700	-	Jalolobod	3273	583	-	3353
Ganjar	689	840	1838	-	Qo'rg'on tepa	5742	559	552	2465
Aravon	738	1110	1570	588	O'zgan	-	8068	-	341
Saxan	10	1500	7	491	Oltinko'l	4917	300	504	2271
Ziyovuddin	4000	332	2747	93	Baliqchi	10390	718	902	1722
Rishton	3975	2060	978	183	Xoqon	3890	175	95	166
Buvayda	1384	802	1233	396	Yerbash	5380	91	109	3323
Ularma	1950	700	1246	70	Norin	8790	831	11658	4189
Nayman	1134	1115	650	46	Qo'qon qish.	6970	600	145	4340
Yangiqo'rg'on	1959	1550	426	109	Jalalquduq	1539	149	189	2025
Laylikon	-	215	-	3	Ko'gar	230	421	-	-
Beshariq	2500	916	366	16	Haqqulobod	7094	1300	297	-
Mahram	699	1166	1183	311	Navkat	2826	685	145	60
Konibodom	500	666	666	33	Magir	4500	340	80	3300
Yaypan	1066	733	1416	27	Oyim	3740	158	505	2558
Isfara	128	2660	-	157	Qarg'asuv	1627	440	52	737
Naygut-Qip	-	3333		2163	Bozorqo'rg'on	3140	615	95	154
Karvon	1800	667	1000	1	Mayli		-	-	-
Qudash	1250	750	783	322	Izboksan	7420	3600	148	568

Janjal	1785	1416	2833	1270	Andijon shahri	309	-	17	5
Keni	683	566	1200	2					
CHiriqjon	1040	670	1083	249					
Qipchoq	690	498	448	886					
Jami	29620	28065	94373	7886	Jami	77887	20633	5481	31582
Marg'ilon uezdi volostlari	-	-	-	-	CHimyon	530	3789	1400	-
Oltiariq	2438	1915	2143	2	SHahrixon	6980	1532	1442	182
Aravon	1339	2561	394	564	YAkkatut	3160	1859	1884	-
Asaka	2984	1359	763	4	YOayovon	4564	2071	2253	-
Aival	881	442	319		YAkusek Boston	153	2035	88	41
Ichqili	-	3503	-	-	Nayman	-	1369	43	-
Qoratepa	3908	2222	2691	-	Segaz	2983	1170	716	360
Qo'qonqishloq	3985	2159	14.56	-	Fayzi Obod	3668	2087	1904	-
Quva	2525	2644	1104	-	Sagizi	2983	1170	716	360
Kulin	1095	2486	907	775					
Mingtepa	1757	3144	487	608					
Jami	42968	41388	20085	2580	Jami	42968	41968	20085	2583

Bu yerda paxta maydoni (191,573 desyat.) oldingi yillarga nisbatan kengayganligi ko'rsatilgan. O'sha yili viloyatda 9,808.444 pud paxta hosili olindi. Ammo ob-havoning noqulay kelganligi sababli hosil oldingi yilga nisbatan oz bo'lgan.

Keyingi 1903 yilda ham viloyat hayotida paxtaning salmog'i (8-jadval) saqlanib qoldi.¹

8-jadval

O'simliklar	Ekin maydoni (desyat.)	Hosil (pud)	Bahosi (so'm)
Amerika paxta navi	135.342	11073879	44539097
Mahalliy paxta	13714	518682	1920938
Zig'irpoya	6543	195242	693108
Kanop	2102	25592	102368
Kunjut	1269	39132	117396
Ko'knori	192	7660	30640
Kungaboqar	59	2856	11424
Beda	50342	17019272	13615417
Tariq	3492	250123	150123
Xashak	74	2960	592
Poliz ekinlari	12391	-	-
Kartoshka	717	289865	382401
Qovun, tarvuz	-	-	979749
Tamaki	69	3610	4830

¹ Ziyoev X. Z. O'zbekiston mustamlaka va zulm iskanjasida.- T.: SHarq, 2006. B. 90.

Boshqa ekinlar	4255	-	851000
----------------	------	---	--------

Har ikki navdagi paxta maydoni 149056 desyatinadan iborat bo‘lib, 612122 desyatinasi sug‘oriladigan yerning 24 foizini tashkil etgan. Butun viloyat bo‘yicha 11.912.830 pud paxta olinib, har bir desyatinadan 80 pud yyetishtirildi.

Ayniqsa, Marg‘ilon va Andijonda paxta hosili yuqori bo‘lgan. Bunga sabab ob-havoning yaxshi kelishi bo‘lib, ikkinchi terim ham birinchi navga qabul qilingan. Buning ustiga narx ham ancha ko‘tarilgan. “Bir pud paxta deyiladi manbada, - 4 so‘m 25 tiyin baholandi. Farg‘ona viloyatida hech qachon bunday bo‘lmagan edi. SHu darajada narxning oshishiga Amerikadan paxtaning kam keltirilishi, to‘qimachilik korxonalarining unga bo‘lgan talabi juda kuchayishi sabab bo‘ldi. Dehqonchilikning, xususan paxtachilikning nihoyatda samaradorligi tub aholining iqtisodiy hayotini birmuncha yaxshilashda katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Bu, ayniqsa zilziladan katta ziyon ko‘rilgan paytda juda qo‘l keldi”.¹ Ammo bunday holat onda-sonda sodir bo‘lardi, xolos.

Paxtaning bir yerga surunkasiga ekilaverishi sababli paxtachilikka ziyon yyetish xavfi tug‘ildi. SHuning uchun ma‘muriyat vakillari chorvachilikni rivojlantirishga va go‘ngni ko‘paytirishga da‘vat etdi. Ayni bir paytda almashib ekishga e‘tibor qaratildi.

Viloyatda lalmi yerlarda kuzgi va bahorgi g‘alla ekinlari (bug‘doy, arpa, sholi, tariq, no‘xot, suli jo‘xori) ham ancha keng maydonni egallagan. Ularning hajmi 1903 yilda 391.561 desyatinadan iborat bo‘lib, birinchi o‘rinda turgan. Paxta maydonlari esa keyingi o‘rinda edi. Ammo sug‘oriladigan yerlar bo‘yicha paxtachilik oldingi o‘ringa chiqdi. Rasmiy ma‘lumotlarga ko‘ra u 1901 yilda umumiy ekin maydonining 24 foizini tashkil etgan bo‘lsa, 1903 yilga kelib 27 foizga ko‘tarildi. Agar o‘sha yili terilgan paxtaning qiymati 46.459.000 so‘m hisoblangan bo‘lsa, g‘alla turlariniki 41.390.036 so‘mga borgan. Bundan tashqari paxtadan olingan daromad ham yuqori turgan. CHunonchi, bir desyatina yerdagi paxtadan 326 so‘m, bug‘doydan 111 so‘m, sholidan 122 so‘m, jo‘xoridan 120 so‘m daromad olingan.

¹ Ziyoev X. Z. O‘zbekiston mustamlaka va zulm iskanjasida.- T.: SHarq, 2006. B. 91.

Paxtadan olinadigan daromad har jihatdan baland turgan. SHu bois paxta qimmatli va tez xarid qilinadigan o‘simlik sifatida viloyatda imkoni boricha ko‘p yyetishtirilgan. Paxtachilikning viloyat yoki uezdlardagi holati va o‘sh darajasiga kelganda qayd qilib o‘tish lozimki, ular bir tekisda (9-jadval) bo‘lmagan.¹

9-jadval

Ekin tulari	Marg‘ilon uezdi		Qo‘qon uezdi		Andijon uezdi		Namangan uezdi		O‘z uezdi	
	Ekin maydoni (desyat .)	Hosil (pud)	Ekin maydoni (desyat .)	Hosil (pud)	Ekin maydoni (desyat .)	Hosil (pud)	Ekin maydoni (desyat .)	Hosil (pud)	Ekin maydoni (desyat .)	Hosil (pud)
Amerika paxtasi	53673	5367300	23448	953508	29313	2931300	26759	1982610	2149	159430
Mahalliy paxta	2447	110115	8500	233587	1404	112320	1129	50960	234	11700
Zig‘irpoya	144	3024	402	6710	1638	90540	2602	52305	1765	42663
Kunjut	480	24000	-	-	640	12800	130	2156	19	176
Ko‘knori	160	6400	-	-	20	1200	-	-	12	60
Kungaboqar	17	510	-	-	20	1600	6	290	16	356
Beda	17992	5397600	14291	2079923	8581	1802010	8608	5705239	867	2034500
Tariq	718	43800	877	55930	1209	72540	1502	77853	-	-
Xashak	74	2960	-	-	-	-	-	-	-	-
Qovun	-	-	593	-	1290	-	1442	-	741	-
Tarvuz	3825	-	-	-	-	-	-	5876	-	-
kartoshka	152	106400	428	1033000	22	11000	61	-	54	10789
Tamaki	12	305	21	525	-	-	-	-	36	780
CHanoq	-	-	-	-	4	240	-	-	207	24877
Boshqa ekinlar	1693	-	2562	-	-	-	22	475	-	-
Jami:	81387	1106241	54811	3433183	44141	5035550	42264	7610355	7964	2285331

1903 yilda paxta yyetishtirishda Marg‘ilon uezdi (53673.1 desyatina va 5.367300 pud) birinchi o‘rinni , Andijon (29313 desyatina va 2.931300 pud) va Qo‘qon (23448desyatina va 953508 pud) ikkinchi hamda uchinchi o‘rinlarni egallagan. Keyingi o‘rinlarda esa Namangan va O‘sh uezdlari turgan.

1904 yilda Marg‘ilon uezdida 3.308.085 pud , Andijonda 283.707, Qo‘qonda 2.216.696, Namanganda 1.396.787 va O‘shda 164.980 pud, jami 9.923.622 pud paxta terib olingan.

1905 yilda Marg‘ilon peshqadamlikni qo‘ldan bermay 3.800.205 ming pud, Andijonda 3.394.945 pud paxta yyetishtirildi. Amerika paxtasining umumiy bahosi 31.178.058 so‘mni, mahalliy navniki 1.394.904 so‘mni tashkil etdi.²

Har ikki turdagi paxtaning birgalikdagi bahosi 32.572.962 so‘m hisoblangan. Ta’kidlab o‘tish joizki, 1904-1905 yillarga tegishli ma’lumotlarga ko‘ra ruslarning qo‘l ostidagi yerlarda ham paxtachilik bilan shug‘ullanilgan. Biroq , ruslar asosan

¹ Ежегодник Феграниской области. Т. 3, Новый Маргелан, 1904. С. 11-13.

² Ежегодник Феграниской области. Т. 3, Новый Маргелан, 1904. С. 11-13.

g'allachilik (59,39%) va boshqa poliz ekinlari yetishtirib, paxtachilikka 320desyatina yer ajratgan. Bu umumiy ekin maydonining 7,4 foizini qoplagan.

Paxta ko'proq Marg'ilondagi rus yerlarida yetishtirilgan. Manbalarda bu to'g'rida shunday deyiladi "Marg'ilon uezdida rus posyolkalaridagi kishilar paxtadan olinadigan daromadga havas qilinib, o'z yerlarining ma'lum qismida paxta yetishtiradilar. Ammo ularning ko'pchiligi o'z yerlarida choriklarni ishlatadilar. Choriklar yerning chorak qismini va hosilning uchdan bir qismini yer egalari berish sharti bilan paxtani parvarish qildilar va uni terib oladilar"¹

1906 yilda paxtaning g'alla va boshqa dehqonchilik ekinlariga nisbatini ko'rsatuvchi dalillarga ko'ra (10-jadval), u sug'oriladigan yerlarda 166.423 desyatina yerga ekilgan. Bug'doy va arpa ekilgan maydon esa o'troq rayonlarda 151978 desyatini egallagan. Demak, paxta birinchi o'rinda turgan. Bundan tashqari paxta oz miqdorda (46 desyatina) ko'chmanchi rayonlarda ham yetishtirilgan.

10-jadval

Ekin turlari	Ekin maydoni (desyat.)	Ko'chmanchi aholining sug'oriladigan yerlarida (desyat.)
Amerika paxtasi	152125	46
Mahalliy paxta	13998	-
Bug'doy	140304	20118
Arpa	11674	4959
SHoli	69498	204
Jo'xori	66523	49
Beda	60774	567
Makkajo'xori	56607	5023
Qovun, tarvuz	18123	8
Tariq	11369	6651
Zig'irpoya va kanop	9372	324
Tamaki	909	112
No'xat	556	-
Kartoshka	423	-
Suli	-	-
Boshqa ekinlar	12556	175
Jami:	625115	38237

1906 yilga kelib, paxtachilik viloyat aholisining asosiy mashg'ulotiga aylandi, paxtaga barcha talpindi va u bilan yashadi.¹ Yetishtirilgan paxtaning birinchi navi 3 so'm 35 tiyin, ikkinchi nav 2 so'm 70 tiyin va uchinchi navi 2 so'mga sotilgan. SHu tarzda Amerika paxtasining qiymati 38.304.491 so'm va mahalliy paxtaniki 119170 so'mni tashkil qilgan. O'sha yili olingan paxtaning tolasi 3.641,388 pudga bordi.

¹ Цатиический сборник Ферганиской области за 1906 г. Скобелев, 1908, с. 20.

1906 yilda paxta maydoni hajmi uездlar bo'yicha (11-jadval) 183,639 desyatini o'z ichiga olgan.² SHundan 171.201 desyatina yer Amerika paxtasiga, 12.438 desyatina mahalliy paxtaga tegishli edi.

11-jadval

Uездlar	Amerika paxtasi (desyat.)	Mahalliy paxta (desyat.)	Jami (desyat.)
Andijon	50865	2035	52900
Qo'qon	25409	6189	31598
Marg'ilon	54215	3111	57326
Namangan	37317	942	38259
O'sh	3395	161	3556
Jami:	171.1201	12438	183.639

1907 yilda paxta maydoni 199.587 desyatini va 11.383.869 pudni tashkil etgan.

1909 yilda viloyatda paxtachilik yanada yuqoriga ko'tarildi. Bunga ob-havoning qulay kelishi, oziq-ovqat mahsulotlarining seroblighi va ularni ko'paytirishga ehtiyoj yo'qlighi sabab bo'lgan. SHuningdek, dehqonlarning pulga muhtojlighi nihoyatda kuchayishi va uni ma'lum darajada paxtaning hisobiga to'ldirish mumkinlighi nazarda tutilgan.

“Dehqonlarning umidi ob-havoning yaxshilighi tufayli ro'yobga chiqib, avgustning birinchi yarmidayoq paxtaning dastlabki terimidan olingan hosil bozorda paydo bo'ldi Keyingi kunlarda ham ob-havoning me'yorda turishi natijasida paxtaning etilishiga sentabr oyi oxirida sodir bo'lgan sovuq ziyon keltira olmadi. Birinchi qattiq sovuq 31-oktabrda keldi, lekin paxtaga ziyon bo'lmadi, chunki u pishib etilgan edi. Ob-havoning qulaylighi viloyatda katta paxta hosil olish imkonini berib, Amerika paxtasining bir desyatinasidan 82 pud, ba'zi joylarda esa 90 puddan ortiq hosil qo'lga kiritildi. Mahalliy paxta 54 pud hosil berdi”.¹ Vaholanki, 1907 yilda hosil 58 pud, 1908 yilda 65 pud bo'lgan. 1909 yilgi paxtaning sifati yaxshi bo'lganlighi uchun narxi ham qimmat bo'ldi. 1907 yilda

¹ Цатицкий сборник Ферганской области за 1909 г. Фаргона, 1911, с 18.

² O'sha joyda

paxtaning birinchi navi 12 so'm 20 tiyin, 1908 yilda 10 so'm, 1909 yildagisi 14 so'm baholagan.

12-jadvaldagi ma'lumotlarning ko'rsatishicha, 1908-1909 yillarga kelib, Andijon uezdi ekin maydoni va hosilning hajmi bo'yicha oldingi o'rinda joylashgan. Viloyatda 1909 yilda paxta ekin maydoni 208053 desyatinaga etib 16.676.079 pud hosil olindi.

Viloyatdagi uezdlarda paxtaning o'rtacha hosildorligi bir desyatina yerdan Amerika naviniki 65 pud va mahalliy navniki 48 pudga borgan. Amerika paxtasining tolasi 1908 yilda 3,488.902 va 1909 yilda 5.127.894 pudni tashkil etgan.

Xullas, "kuzning va qishning quruq kelishi va buning oqibatida yo'llarning botqoq bo'lmasligi hamda dehqonlarning pulga muhtojligi terimni va tashishni uyushqoqlik bilan tashkil etishni ta'minladi. Natijada noyabrning ikkinchi yarmidayoq paxtaning asosiy qismi sotildi. Bu oldingi yil mobaynidagi hosilsizlikdan ko'rilgan zarardan deyarli holi bo'lish imkonini berdi".

1911 yilda viloyat aholisi paxtani eng muhim va zarur mahsulot sifatida ko'proq ekishga va uning salmog'ini saqlashga barcha kuch-quvatini sarfladi. Ular g'alla va boshqa ekinlarni paxtadan suv ortgandan keyingina sug'ordilar.

Qish qattiq kelgan bo'lsa-da, lekin qor juda kam yog'di. Natijada ko'p buloqlarda va hatto daryolarda suv kam bo'ldi. SHularga qaramay, dehqonlarning mashaqqatli mehnati va mohirligi sababli paxta hosili yomon bo'lmadi. Zero, paxta maydoni 267.347 desyatinaga etib 31.420 desyatinaga, ya'ni 13,3 foizga ko'paydi.

1912 yilda Farg'ona viloyatida bo'lgan garmisel, issiq shamollar paxtachilikka katta ziyon keltirishi oqibatida hosil 1911 yilga qaraganda 6,7 foiz kam olindi.

Ayrim yillarda paxta maydonini bir oz bo'lsa-da, qisqartirishga ko'proq suvning yetishmasligi yoki paxtaga talabning susayishi sabab bo'lardi. G'alla va umuman oziq-ovqat mahsulotlarining qimmatlashishi ham bunga majbur qilgan. Bunday omillar bartaraf qilinganda, paxtani ekish kuchayib boravergan. Masalan, 1913 yilda paxta 270.566 desyatina yerga eqilib, sug'oriladigan yerlarning 42

foizini tashkil etdi. 1914 yilda paxta 291.752 desyatina yerga eqilib, oldingi yilga nisbatan salkam 2000 desyatinadan oshgan. Bu yili tabiiy sharoit qulay kelib, suv etarli darajada edi. Ekin maydonlari Andijon uezdida 94.332 desyatina, Marg‘ilonda 93.550, Qo‘qonda 50757, Namanganda 42.730 va O‘shda 10.373 desyatina yerni tashkil etib, 7.590.000 pud paxta tolasi olindi.¹

12-jadval

Uezdlar	Yillar	Ekin maydoni			Hosil (har bir desyatinadan)		Paxta			Paxta tolasi
		Amerika paxtasi	Mahalliy paxta	Jami	Amerika paxtasi	Mahalliy paxta	Amerika paxtasi	Mahalliy paxta	Jami	Jami
		desyat.	desyat.	desyat.	desyat.	desyat.	pud	pud	pud	pud
Andijon	1908	50615	2032	52637	61,6	42	3114866	84703	3199569	937705
	1909	65509	1492	67001	-	-	6007641	85949	6093590	1873779
Qo‘qon	1908	30448	6673	37121	68	57	2069864	381670	2451534	718478
	1909	31517	5805	37322	-	-	2155087	338428	2493515	766755
Marg‘ilon	1908	60116	2770	62931	59	44	3536958	122703	3659661	1072545
	1909	59092	2452	61544	-	-	4276374	97820	4374194	1345064
Namangan	1908	33276	1454	31730	71	50	2375457	72766	2448223	717506
	1909	36945	1032	37977	-	29	3366825	61452	3428277	1054196
O‘sh	1908	3451	14	3465	42	-	144942	405	145347	4266
	1909	4199	10	4209	-	-	285999	504	286503	88100
Jami:	1908	177954	12933	190884	65	48	11242087	662247	119041	3488902
	1909	197262	10791	208053	-	-	16091926	584153	16676079	5127894

Paxtachilikning eng rivojlangan davri 1915 yilda ko‘zga tashlanadi. Bu vaqtda paxta yaroqli barcha yerlarda ekilib, bug‘doy tobora qisqarib bordi. Ko‘rsatilgan yilda 336.525 desyatina yerga paxta ekilganligi ma’lum. Bu vaqtda g‘alla maydoni 354.362 desyatinani qamrab olinganligi nazarda tutilsa, paxta maydonining hajmi 48 foizni tashkil etadi.

1915 yilda paxta maydonlari viloyat uezdlarida quyidagi tarzda belgilangan: Andijonda 101.919, Marg‘ilonda 89534, Qo‘qonda 51166, Namanganda 43426 va O‘shda 14101 desyatina hisoblangan. Binobarin, Andijon uezdi hamon peshqadamlik qilgan. Viloyatda paxta hosili 9.518.000 pudga borgan. Sug‘oriladigan yerlarning ancha qismidan foydalanilmagan. Chunki, bu xildagi yerlarga suvning yetishmasligi yoki boshqa sabablar bilan paxta ekishning iloji bo‘lmagan. Bundan tashqari ular paxta yetishtirish uchun nobop bo‘lgan. Shu nuqtai nazardan qaraganda, 1914 yilda paxta Farg‘ona viloyatidagi 84 volostning 8 tasida 100%, 20 tasida 50%, 10 tasida 43% va 16 tasida 54% ni egallagan.

¹ Ziyoev X. Z. O‘zbekiston mustamlaka va zulm iskanjasida.- T.: SHarq, 2006. B. 96.

Umuman paxtachilik viloyatdagi volostlarning ko'pida salmoqli o'rin egallagan. Masalan, bunday ahvolni Isfara misolida ko'rish mumkin. Bu yerda 1914 yilda paxta maydoni 92,34 desyatinani (47,7%), beda 34,62 desyatinani (17,9%) sabzavot ekinlari 2,19 desyatinani (1,1%), kuzgi bug'doy 44,03 desyatinani (22,8%), jo'xori 16,25 desyatinani (8,4%), mosh 0,97 desyatinani (0,5%) va piyoz 0,74 desyatinani (0,4%) o'z ichiga olgan.¹ SHunday qilib paxta birinchi o'rinda, beda va kuzgi bug'doy ikkinchi va uchinchi o'rinlarda turgan. Agar bug'doy yetishtiriladigan lalmikor, ya'ni sug'orilmaydigan yerlar qatoriga kiritilsa, u vaqtda paxtaning salmog'i yanada oshadi. Umuman olganda viloyatdagi volostlarning aksariyatida paxtachilik muhim o'rinni egallaydi.²

Xullas, XIX asrning 80-yillari XX asrning boshlarida Farg'ona viloyatida paxtachilik tobora rivojlanib borgan. Paxta maydoni 1888 yilda 34.669 desyatina va 1900 yilda 186.326 desyatina hisoblangan bo'lsa, 1915 yilda 336.525 desyatinani tashkil etdi. Natijada viloyat Turkiston o'lkasi bo'yicha yetishtiriladigan paxtaning 68 foizini, boshqa ma'lumotda 70 foizini berdi. SHu tariqa Farg'ona viloyatida paxta yakka hokimligining poydevori qurildi.

O'lkada Amerika paxta navi paxtachilikning rivojlantirilishida qanchalik muhim o'rin egallagan bo'lsa, paxta tozalash zavodlari ham shunchalik katta ahamiyat kasb etgan.

Ma'lumki, qadimgi davrlarda paxta chigitdan chig'iriqlar yordamida ajratilgan. Bu ishni bajarish uchun juda ko'p vaqt va mashaqqatli mehnat sarflanib, 1 pud paxtani chuvash va so'ng chig'iriqdan o'tkazish uchun 2 kun ishlashga to'g'ri kelgan. CHig'iriqda ishlashning salbiy tomonlaridan yana biri shundaki, ish jarayonida chigit ezilib, sifati pasaygan. SHuningdek paxtani navlarga ajratish imkoni yo'q edi.

SHu tariqa bir necha yuz ming pud paxta chig'iriqdan o'tkazilishi hisobga olinsa, uning g'oyatda og'ir va samarasizligi ko'zga yaqqol tashlanadi. CHig'iriqda minglab kishilar, ko'proq xotin-qizlar va bolalar ishlab, ko'p azob-uqubatlarni

¹ Материали по водоползованию в Туркистанском крае. Т. 1915, С.31.

² Ziyoev X. Z. O'zbekiston mustamlaka va zulm iskanjasida. - T.: SHarq, 2006. B. 98.

boshdan kechirgan. Vaqti kelib, paxtani chig'iriqdan o'tkazish usuli talabga javob berolmay qoldi. Paxtachilikning rivojlanishi uning sifati va unumdorligini oshiradigan ilg'or usulni qo'llashni taqozo etdi. Bu samarador ishni amalga oshirish vazifasi birinchi navbatda firmalarning zimmasiga tushdi. Ular, avvalambor, o'z manfaatlarini ko'zlab paxta tozalash zavodlarini qurishga kirishdilar. CHunonchi, 1830 yilda Qo'qonda aka-uka Kamenskiylar birinchi bo'lib shunday zavodni ishga tushirdilar.¹ 1885 yilda tadbirkor X.Xo'jaev zavod ochib, mahalliy ishbilarmonlarga o'rnak ko'rsatdi. 1887 yilga kelib, bunday zavodlar soni 9 taga etdi. Ularning ishlab chiqarish quvvati va ishchilari haqida tasavvur hosil qilish uchun ayrim misollarni keltirish o'rinlidir. 1889 yilda Qo'qonda Yaroslavl katta manufaktura zavodida 36 kishi 1 kunda 12 soatdan ishlab, oyiga 9 so'm ish haqi olgan. O'sha joydagi "X.Kudrin O'rta Osiyo" savdo-sanoat shirkatiga qarashli zavodda esa 6 kishi bir kecha kunduzda 10 soat ishlab, kuniga 30 tiyin olgan. Bu yerda mavsumda 90000 pud (370000 so'mlik) paxta tozalangan.² Savdogar Alimjon Xo'ja Muhammadjonov zavodida 16 kishi oyiga 9 so'mdan ish haqi olgan. Unda 50000 pud (120000) paxta hom ashyosi tayyorlangan. Ayrim ma'lumotlarning ko'rsatishicha, harbiy kishilar tomonidan ham zavodlar ishga tushirilgan. Masalan, podpolkovnik V.I.Tomich zavodida 12 nafar ishchi kuniga 30 tiyin va oyiga 80 so'm olib, 40000 pud (84000 so'mlik) paxta tozalagan. Ko'rinib turibdiki, paxta tozalash zavodlari unchalik katta va quvvatli bo'lmay, ularda 610 nafar va undan ortiqroq ishchi ishlagan. Faqat bitta zavoddagina 30 nafar ishchi ishlagan edi. Biroq zavodlarning samaradorligi solishtirilsa, bir-biridan juda katta farqi borligi yaqqol ko'rinadi. Zero, zavodlarda ishlab chiqarilgan mahsulotlar va chigitlar sifati bilan ajralib turgan.

1892 yilga kelib paxta tozalash zavodlarini Farg'ona viloyatining shaharlari va uning atroflarida uchratish mumkin edi. Xususan, Qo'qon shahrida 11 ta, Andijonda 11 ta, Asakada 3 ta, SHahrixonda 2 ta, Oqshakda 1 ta, Marg'ilon shahrida 4 ta, Namanganda 1 ta, CHustda 5 ta, To'raqo'rg'onda 1 ta, Kanda 1 ta,

¹ Ziyoev X. Z. O'zbekiston mustamlaka va zulm iskanjasida.- T.: SHarq, 2006.B. 183.

² O'sha joyda.

CHinobodda 9 ta zavod bo'lgan. Ularda 220 jin (stanok) va 52 ta press bo'lib, faqat 4 tasi gidravlik usulda yuritilgan.¹ Bitta zavod ot kuchi bilan ishlaganligi ma'lum. Bu usul o'zini oqlamagan bo'lsa kerak, keyingi yillarda tamomila qo'llanilmagan.

1893 yilda mahalliy yahudiylar bo'lgan er-xotin Malika Isaeva va Yusuf Salom Isaevlar Marg'ilonda paxta zavodini ishga tushirishgan.²

Zavodlarda firmalarning sotib olgan paxtasi ham tozalangan va toylangan. Masalan, "Br.SHlosbyerg" firmasi Andijon uездidagi Nayman qishlog'ida joylashgan ikkita zavodda 300000 pud, Namangan uездidagi Musaxonov zavodida 200000 pud, Marg'ilon uездidagi Mirzakalon zavodida 250000 pud paxta tozalatgan.³

Bu vaqtlarda 46 ta ishlayotgan zavodga ega bo'lgan Farg'ona viloyati o'lkada birinchi o'rinda turgan. Sirdaryo viloyatida 16 ta, Samarqandda 10 ta paxta tozalash zavodi bor edi.

XIX asr oxirida paxta tozalash zavodlari soni ikki barobarga oshdi. Chunki ularning samaradorligi tadbirkorlarning diqqatini jalb qilib, o'zbeklar ham qator zavod qura boshladi. Rossiyadagi firma vakillari til va sharoitni yaxshi bilmaganliklari uchun mahalliy ishbilarmonlarga to'squinlik qilolmadi. Shubhasiz, ular zavod jihozlarini xorijdan yoki Rossiyadan keltirib, mahalliy tadbirkorlarga sotish va ularni zavod qurishga o'rgatishdan ham foyda ko'rgan. To'g'ri, firmalar ham zavodlarini ishga tushirdilar. Biroq bu ularning paxta xom ashyosiga bo'lgan talabini to'liq qondira olmadi. Firmalar o'z maqsadlariga tadbirkorlarning vositachiligida erishishi mumkin edi. SHu bois firmalar mahalliy tadbirkorlar bilan hamkorlikda ish yuritishga majbur bo'lganlar. O'z navbatida o'zbek tadbirkorlari ham ma'lum bir daromadni qo'lga kiritishga harakat qilishgan.

Zavodlarning ko'payib borishida arzon ishchi kuchining mavjudligi ham juda qo'l kelgan.

¹ Загорская В.В.и Александров К.А. Промышленные заведения Туркестанского края. СПб,1913,С.10

² Ziyoev X. Z. O'zbekiston mustamlaka va zulm iskanjasida. - T.: SHarq, 2006. B. 184.

³ O'sha joyda.

Fargʻona viloyatida yangi xildagi texnika bilan jihozlangan paxta tozalash zavodlarining soni borgan sari koʻpaygan edi. 1898 yilda Qoʻqon uezdida 19 ta paxta tozalash zavodi boʻlib, ular ishlab chiqarish quvvati va mahsulotning hajmi boʻyicha bir-biridan farq qilar edi. Masalan, Qoʻqon uezdida (13-jadval).¹

“Baron Knop savdo uyi”ga qarashli zavod 12 ta jin (stanok) va 715 ta arra yordamida bir kecha-kunduzda 25 pud paxtani tozalab, mavsum mobaynida 1431 pud paxtadan 435 pud tola ishlab chiqargan. Aka-uka Kamenskiylar zavodi esa 7 ta jin va 440 ta arra bilan bir kecha-kunduzda 21 pud paxtani chigitdan ajratish imkoniga ega edi. 1438 pud paxtadan 434 pud tola tayyorlangan. Zavodlar orasida kam quvvatli ham bor edi. Masalan, Mamasodiq Yunusboev zavodida 4 ta jin va 240 ta arra yordamida bir kecha-kunduzda 18 pud paxta tozalanib, 801 pud paxtadan 240 pud tola olingan. Abu Rahmonboy Muhamedovga qarashli zavodda 3 ta jin va 180 ta arra kuchi bilan 303 pud paxtadan 90 pud tola chiqarilgan. Umuman olganda mavjud boshqa zavodlarning imkoniyatlari bir xil boʻlmagan.

Qoʻqon uezdidagi 19 ta zavod 83 ta jin va 5085 ta arra vositasida mavsumda 10452 pud paxtadan 3124 pud tola ishlab chiqargan. Zavodlarning 10 tasi suv va 9 tasi bugʻ kuchi bilan ishlagan. Jami 11 ta zavod, 8 ta firma oʻzbeklarning qoʻl ostida edi.

Margʻilon uezdida ham kam quvvatli va birmuncha salohiyatli zavodlarni koʻrish (14-jadval) mumkin.¹

13-jadval

№	Zavodlar egalari (Qoʻqon uezdi)	Qurilgan yili	Jinlar (stanoklar) soni	Jinlardagi arralar soni	Dvigatellarning ishlatilish vositasi	Bir kunda ishlangan paxta miqdori	Paxta (pud)	Tola (pud)
1.	Aka-uka Kameniskiylar	1880	7	440	suv	21	1438	434
2.	Baron Knop savdo uyi	1890	12	715	suv, bugʻ	25	1431	435
3.	Yaroslavl firmasi	1890	5	300	suv	15	742	222
4.	Abdurahmonboy Muhammedov	1890	3	180	-	5	303	90
5.	Mirsalim Miralimov	1891	6	360	-	10	100	30
6.	Muhammadali Mahmudov	1892	4	290	-	4	450	134
7.	Mir Robi Mir Mahmudov	1893	3	180	bugʻ	9	700	200

¹ Ziyoev X. Z. Oʻzbekiston mustamlaka va zulm iskanjasida. - T.: SHarq, 2006. B. 185..

¹ Oʻsha joyda

8.	Yusuf Davidov	1893	3	210	-	12	112	32
9.	F. I. Polinskiy	1893	4	240	-	18	800	242
10.	Tumyans	1893	6	360	-	15	778	231
11.	Moskva savdo uyi	1892	4	250	suv	16	778	231
12.	Umarxo'ja Munavarov	1894	6	360	-	17	562	173
13.	Omechuk	1894	2	120	kerosin	6	140	40
14.	"Qora yantoq"	1897	2	120	-	6	145	44
15.	Alimxo'ja Muhammadjonov	1896	4	240	bug'	10	400	117
16.	Maksim Davidov	1897	4	240	-	12	700	210
17.	Andrey Rosikko	1897	4	200	suv	12	850	250
18.	Masodiq Yunusboyev	1898	4	240	bug'	18	801	240
	Jami	-	83	5085	-	231	10452	3124

14-jadval

No	Zavodlar egalari (Qo'qon uyezdi)	Qurilgan yili	Jinlar (stanoklvr) soni	Jinlardagi arralar soni	Dvigatellarning ishlash vositasi	Bir kunda ishlangan paxta (pud)	Paxta xom ashyosining hajmi (pud)	Tola hajmi (pud)
1.	A. F. Volfzo	1896	5	300	bug'	16	240	73
2.	Vladimir Artyomov	1893	3	180	suv	8	315	97
3.	Said Ahmad	1897	5	275	bug'	10	200	60
4.	Otaxon Baratboyev	1890	3	180	suv	5	ishlanmagan	-
5.	Iv. Alenov	1891	4	200	-	10	200	60
6.	Otaxon Miryusupov	1896	4	240	bug'	10	159	50
7.	Otaxon Mirayusupov	1891	3	180	suv	7	-	-
8.	Mirzakalon Qosimov	1891	7	420	-	18	376	116
9.	Sulton Xudoyor	1897	3	180	-	6	270	85
10.	Bobobek Mirzayodgorov	1896	5	300	-	8	700	210
11.	Jo'rabek Matumarov	1897	4	200	bug'	5	114	34
12.	Abdujalil Toshmuhammedov	1896	3	180	suv	7	245	76
13.	Y Arosavl firmasi	1897	3	220	-	12	435	131
14.	Danil Jukov	1893	4	240	bug'	13	555	171
15.	Matg'oziboy Azizboev	1896	6	360	-	13	390	116
16.	Matolim Karimov	1891	4	160	suv	6	180	60
17.	Ahmad Hasanov	1894	6	360	yug'	26	1500	460
18.	Otabek Mayusupov	1894	6	360	-	16	80	24
19.	Matkarim Nazarbekov	1891	4	240	suv	8	338	100
20.	Miralim Mirdavidboev	1890	4	240	bug'	12	140	48
21.	Abdurahmon Buzrukxo'jaev	1897	4	240	-	12	441	141
22.	Abdurahmon Buzrukxo'jaev	1891	4	240	suv	8	240	77
23.	Mahamadsho Sayd Xo'jaev	1892	3	150	-	5	752	225
24.	Mirahmad Mirsaidboev	1888	4	180	-	4	260	80
25.	Mahamadsho Sayd Xo'jaev	1896	6	360	-	20	130	40
26.	Toshpo'lat Xudoyberdiyev	1890	3	160	suv	7	290	90
27.	O'rta Osiyo va Eron shirkati	1898	6	450	bug'	30	570	180
28.	Savdo-sanoat shirkati	1898	1	60	kerosin	3	103	31
	Jami	115	6741		295	8983	2762	

Zavodlarning orasida yirikrog'i Ahmad Hasanovning zavodi hisoblangan. Bu yerda 6 ta jin va 360 ta arra yordamida bir kecha-kunduzda 26 pud paxta ishlanib, 1500 pud paxtadan 460 pud tola olingan. Muhammadsho Saidxo'jaev zavodida 3 ta jin na 150 ta arra bilan bir kecha-kunduzda 5 pud paxta chiqarilib, 752 pud paxtadan 225 pud tola tayyorlangan. Bu yerda shuni aytish lozimki, mahsulotning ko'p va sifatli chiqishi paxta xom ashyosiga ham bog'liq bo'lgan. Aks holda zavod yaxshi jihozlangan bo'lsa-da, lekin mahsulot barakali bo'lmagan.

Masalan, Otabek Mamayusupov zavodida 6 ta jin va 360 ta arra bo‘la turib, bir kecha-kunduzda 16 pud paxta tozalanib, 80 pud paxtadan 24 pud tola olingan, xolos. Manbada bunday holatning sababi qayd qilinmaganligi uchun aniq javobni izohlashning iloji yo‘q.

Uezdda ikkita zavodga ega kishilar ham bo‘lgan. Masalan, Ahmadjon Buzrukxo‘jaev 1891 va 1897 yillarda ikkita zavodni ishga tushirib, ularda 366 pud tola tayyorlagan. Tadbirkor Mahammadsho Saidxo‘jaev ham 1892 va 1896 yillarda ikkita zavod ochib, 315 pud tola ishlab chiqargan.

O‘rta Osiyo va Eron savdo-sanoat shirkatiga qarashli zavod eng yirik korxona hisoblangan. Unda 6 ta jin va 450 ta arra yordamida bir kecha-kunduzda 30 pud paxta ishlanib, 570 pud paxtadan 180 pud tola chiqarilgan. Zavod jihozlanish darajasi bo‘yicha ham oldingi o‘rinlarda turgan. Bu sohada Mirzakalon Qosimov zavodi ham ancha quvvatli bo‘lib, 7 ta jin va 420 ta arra bilan bir-kecha kunduzda 18 pud paxtani ishlab, 376 pud paxtadan 116 pud tola olingan.

Marg‘ilon uездida hammasi bo‘lib 115 ta jin va 6741 ta arra bilan ta‘minlangan 28 ta paxta tozalash zavodida 8983 pud paxtadan 2762 pud tola olingan. Ulardan 11 tasi bug‘ va 17 tasi suv bilan harakatga keltirilgan. Zavodlarning 20 tasi o‘zbeklarga va 8 tasi firmalarga qarashli edi. Namangan uездidagi 23 ta zavoddan yirikrog‘i O‘rta Osiyo va Eron savdo-sanoat shirkatining zavodi (15-jadval) edi.¹

Yaroslavl katta firmasiga qarashli zavod 8 ta jin va 48 ta arra yordamida 1455 pud paxtadan 485 pud tola ishlab chiqargan. U bir kecha-kunduzda 25 pud paxta tozalash imkoniga ega edi.²

15-jadval

№	Zavodlar egalari (Namangan uездi)	Qurilgan yili	Jinlar (stanoklar) soni	Jinlarda gi arralar soni	Dvigatellar ning ishlash vositasi	Bir kunda ishlangan paxta miqdori (pud)	Paxta (pud)	Tola (pud)
1.	Yaroslavl firmasi	1888	8	480	suv	25	1455	485
2.	O‘rta Osiyo va Eron shirkati	1888	8	540	bug‘	40	1200	380

¹ Шарафиддинов А. XIX аср охири XX бошларида Ўбекистон саноати тарихидан. Журнал: Ўзбекистонда ижтимоий фанлар, 1978, 8-сон, Б.40.

² Ziyoev X. Z. O‘zbekiston mustamlaka va zulm iskanjasi.- T.: SHarq, 2006.B-189.

3.	K. M. Solovyev	1894	8	640	-	35	2300	762
4.	N.N Kebyerle	1892	4	240	-	15	ishlamagan	
5.	Rositskiy	1891	3	180	suv	11	1120	356
6.	Yusupov Davidov	1891	8	280	bug'	25	1810	566
7.	Xo'ja Eshonov	1895	3	180	suv	9	120	40
8.	Yormuhammad Muhamedov	1891	3	180	suv	6	600	200
9.	X. Musaxonov	1880	8	480	bug'	27	670	215
10.	X. Musaxonov	1882	5	360	bug'	20	960	310
11.	Yusupboy Matmusaev	1889	2	120	suv	4	750	230
12.	Botirto'ra Malikov	1893	4	240	-	8	160	45
13.	I.K. Alekseyev	1897	4	240	-	8	635	202
14.	Zaversi jamiyati	1891	4	240	bug'	20	200	65
15.	Qirg'izboy Mashrabboy	1897	4	240	suv	8	600	200
16.	K.M. Solovyev	1895	4	320	bug'	18	582	182
17.	Mag'oziboy Valiboyev	1890	3	180	suv	5	388	122
18.	Eshonxon Yoqubxo'jayev	1891	3	180	-	5	360	-
19.	Madamin Yusupboev	1890	3	180	-	4	300	90
20.	Mulla Mirsharboev	1889	3	180	-	7	200	66
21.	Abdurahmon Saidov	1893	3	240	bug'	10	320	100
22.	F.R. Grigorev	1897	2	120	suv		383	122
23.	A.YA. Epifanov	1897	3	180	-	10	278	92
24.	Eshmuhammad Muhammedov	1892	1	60	kerosin	4	180	60
25.	Murod Xudoyorboev	1891	3	180	suv	5	370	115
	Jami:	-		140	6660	334	15941	515

O'rta Osiyo va Eron savdo shirkatiga tegishli 8 ta jin va 540 ta arrani o'z ichiga olgan zavodda bir kecha-kunduzda 40 pud paxta ishlanib, 1200 pud paxtadan 380 pud tola tayyorlangan. K.M.Solovev zavodida esa 8 ta jin va 640 ta arrada bir kecha-kunduzda 35 pud paxta, mavsum davomida 2300 pud paxtadan 762 pud tola tayyorlangan. Uchinchi o'rinda 8 ta jin va 480 ta arra bilan bir kecha-kunduzda 27 pud paxta, 670 pud paxtadan 211 pud tola ishlab chiqargan H.Musaxonov zavodi turgan. Ayrim zavodlarda jin va arralar soni bunchalik bo'lmisada, mahsulotni ko'proq chiqargan. Masalan, Yusup Davidovga qarashli zavodda 8 ta jin va 280 arra kuchi bilan 1810 pud paxtadan 566 pud tola tayyorlagan.

Zavodlar orasida mahsulot ishlab chiqarish darajasi bo'yicha zaiflari ham bor edi. Eshmuhammad Muhammadov 180 pud, Zaversi jamiyati 200 pud, Madamin Yusupov 300 pud va Abdurahmon Saidov 320 pud paxta tozalaganlar, xolos. Shunga mos ravishda tola ham oz tayyorlangan.

Namangan uездidagi 25 ta paxta tozalash zavodi jami 104 ta jin va 6660 ta arra bilan jihozlangan. 15941 pud paxtadan 5115 pud (ola ishlab chiqarilgan. Zavodlarning 15 tasi suv, 9 tasi bug' va bittasi kerosin bilan ishlab, 15 ta zavodga o'zbeklar, qolgan 10 tasiga firmalar egalik qilgan.

Andijon uezdi va shahrida joylashgan paxta tozalash zavodlari soni 18 ta (16-jadval) edi.¹

16-jadval

№	Zavodlar egalari (Namangan uezdi)	Qurilgan yili	Jinlar (stanoklar) soni	Jinlardagi arralar soni	Dvigatellarning ishlash vositasi	Bir kunda ishlangan paxta miqdori (pud)	Paxta (pud)	Tola (pud)
1.	AV.Rositsk	1897	5	300	bug'	16	950	241
2.	Mirzakalon Qosimov	1895	6	480	-	30	1030	243
3.	V.I.Tomich	1891	6	360	-	25	920	302
4.	Yunutan Kaidov	1885	5	280	suv	12	1030	312
5.	Xudoyberdi Kichikboyev	1891	4	240	-	16	915	274
6.	Yuxanan Mushiev	1888	6	360	-	20	380	120
7.	K. A.Shvein	1896	6	360	-	20	19	6
8.	Karimoxun Sobirov	1889	6	360	-	16	320	101
9.	Alimxo'ja Muhamadjonov	1880	5	300	-	18	204	67
10.	Xodi Sodiqxo'jaev	1891	9	540	-	8	1520	470
11.	Yaroslavl firmasi	1889	7	430	bug'	24	500	166
12.	Sulton Xudoyorbekov	1890	3	180	SUV	8	150	53
13.	VladimirAlekseev	1891	6	360	-	17	401	122
14.	Yunatan Mushiev	1891	2	120	-	4	ishlan-magan	-
15.	To'rabek Karimboyev	1896	3	180	-	8	300	90
16.	Mirzakalon Qosimov	1896	3	180	-	9	100	29
17.	V.M.Gavrilov	1897	2	160	neft	8	ishlan-magan	-
18.	Yaroslavl firmasi	1891	3	180	SUV	9	600	190
	Jami	-	87	5370	-	268	9339	2786

Zavodchilardan eng ko'p mahsulot tayyorlangani Xodi Sodiqxo'jaev edi. U 9 ta jin va 540 ta arraga ega zavodida 1520 pud paxtadan 470 pud tola chiqargan. Buning uchun zavodning ishlab chiqarish qobiliyati zo'r bo'lishi kerak edi, albatta. Biroq jadvalda nima uchundir zavod bir kecha-kunduzda 8 pud paxta tozalanganligi ko'rsatilgan. Bu hajmda yuqorida ko'rsatilgan salmoqli paxtani tozalashning iloji yo'q edi. Mazmunan jadvalni tuzuvchilar xatoga yo'l qo'yan bo'lsalar kerak.

Mirzakalon zavodida 6 ta jin va 480 ta arra yordami bilan bir kecha-kunduzda 30 pud paxta ishlanib, 1030 pud paxtadan 243 pud tola chiqarilgan. To'rabek Karimboyev, Mirzakalon Qosimboyev, Sulton Xudoyorbekov va K.A.SHein singari tadbirkorlarga qarashli zavodlarda ishlab chiqarish hajmi

¹ Шарафиддинов А. XIX аср охири XX бошларида Шўбекистон саноати тарихидан. Журнал: Ўзбекистонда ижтимоий фанлар, 1978, 8-сон, Б.40.

bo'yicha 100—600 pud orasida paxta tozalangan. Hatto mavsum mobaynida 19 pud paxta tozalaganlari ham bor edi.

Andijon uezdida 18 ga zavod 87 ta jin va 5370 ta arra vositasida 9339 pud paxtadan 2786 pud tola tayyorlagan. Zavodlarning 13 tasi suv, 4 tasi bug' va bittasi neft kuchi bilan ishlagan. Ularning 10 tasiga o'zbeklar va 8 tasiga firma vakillari egalik qilgan.

Viloyatdagi paxta tozalash zavodlarining suv yordamida ishlaganligi yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdi. Odatda bunday zavodlar suv tolib oqadigan ariqlar bo'yiga qurilgan. Suv yog'och parrakni, so'ng undagi charxpalakni harakatga keltirgan. Ammo bu usul bilan ishlash hamma vaqt birdek kutilgan natijani bermagan. Chunki biror sabab bilan suv kamayganda zavodlar ishni to'xtatgan. Bundan tashqari charxpalaklarning buzilib turishi ortiqcha xarajatlarga olib kelgan.

Bug' va dvigatellar bilan ishlaydigan zavodlar faoliyati ancha samaradorligi bilan ajralib turgan. Biroq zavodlarni asbob-uskunalar bilan jihozlash ko'proq mablag'ni talab qilgan. Zavodlarda paxta tozalangandan keyin uni toylash ishlari olib borilgan. Bu qo'lda va gidravlik usul bilan bajarilgan. Qo'l bilan uzun xoda yordamida vintli parrak harakatga keltirilgan. Natijada siqilgani sari ko'p kuch va vaqt sarflangan. Bu nihoyatda mashaqqatli ish bilan bir necha kishi shug'ullangani bois xarajat oshgan. Masalan, bir pud paxtani tayyorlashga 5 so'm atrofida sarflangan.¹

Gidravlik usulda bir pud paxtani tayyorlash uchun 2 so'mdan sal ko'proq sarflangan. Vintli parraklar vositasida bir soatda to'rt, gidravlik usulda esa 8 tadan ko'p toylangan paxta tayyorlangan. Ammo bu usul qimmatga tushishi sababli keng ko'lamda qo'llanilmasdi.

Zavodlarda chigit paxtadan jin (stanok)lar yordamida ajratilgan. Bu usul vositasida bir soat ichida 20 pud paxta tozalanib, toylashga tayyorlangan. Jinlar qanchalik ko'p bo'lib, samarali ishlasa, mahsulot shuncha ko'p ishlab chiqarilgan.

¹ Ziyoev X. Z. O'zbekiston mustamlaka va zulm iskanjasida.- T.: SHarq, 2006.B. 193

Viloyatdagi zavodlarda 4633 nafar kishi ishlab, uning asosiy qismini qora ishlar bilan shug'ullanuvchi o'zbeklar tashkil qilgan. Bular nihoyatda og'ir sharoitda ishlashga majbur bo'lib, bir kunda 40-50 tiyin, bir oyga esa 1517 so'm ish haqi olishgan. Ovqatlanish uchun ikki-uch kishiga bor-yo'g'i bitta qovun va 5 ta yopgan non byerilgan.¹

O'zbeklar uchun maxsus ish kiyimlari berilmasligi ham ularning hayotini yanada yomonlashtirgan.

Zavodlarda ilgari Kaspiyorti temir yo'lida mashinist, o'rinbosar yoki go'lax sifatida ishlagan ruslar mashinist yoki slesar lavozimiga qo'yilgan. Ularga bir oyga 35 so'mdan 120 so'mgacha ish haqi byerilgan. Zavodlarda faqat uch nafar o'rta texnik ma'lumotga ega ruslar ishlagan.

Farg'ona viloyatida 1898 yilda 90 ta zavoddan 84 faoliyat yuritgan. Ularda 4633 nafar kishi mehnat qilib 4496758 pud paxtadan 1387206 pud tola va 3089122 pud chigit chiqargan. CHigitning 260000 pudi bug' qozonlariga, 2829122 pudi yog' chiqarishga, urug' sifatida ekish va xonadonlarni isitishga sarflangan.²

Odatda zavodlarda mavsumiy ish 20 avgustda, ya'ni yangi paxta hosili bozorga chiqqanda boshlangan va keyingi yilning mart yoki aprel oyida xom ashyo tamom bo'lishi bilan to'xtatilgan. Zavodlar bug' va suv kuchi bilan harakatga keltirilib quvvati 1470 ot kuchiga teng kelgan.

1900 yilda viloyatda zavodlarning soni 93 taga etib, 4840 nafar ishchi 1420000 so'mlik mahsulot ishlab chiqargan. Ularning soni 1901 yilda 104 ta, 1902 yilda 115 ta, 1903 yilda 120 ta va 1904 yilda 131 ta zavod ishlagan. Har bir zavod 25 mln pud paxtani tozalash va toylash imkoniga ega edi. Ammo bunga paxta hosili etarli darajada bo'lgandagina erishilgan.

1903 yilda 100 ta zavod ishlab, ularning bittasi hozirgi Farg'ona shahrida, 29 tasi Marg'ilon uezdida, 22 tasi Qo'qon uezdida, 28 tasi Namangan uezdida va 19 tasi Andijon uezdida joylashgan. Ular 446 ta dvigatel va 25505 ta press bilan jihozlangan. 42 ta zavod bug', 56 tasi suv va 2 tasi kerosin vositasida harakatga

¹ Ziyoev X. Z. O'zbekiston mustamlaka va zulm iskanjasida. - T.: SHarq, 2006.B.195.

² O'sha joyda.

keltirilgan. Zavodlarda 3805 nafar kishi 45000000 soʻmlik mahsulot ishlab chiqargan. Ular 1900-1901 yillarda 14160000 pud paxtani tozalagan va toylagan.³

Zavodlarda mashinist va slesarlik kasbi bilan ruslar shugʻullanib, ular koʻproq maʼlumotsiz, lekin amaliy tajribaga ega boʻlgan. Ular orasida oʻrta texnika maʼlumotlisi faqat 3 nafar edi, xolos. Ruslar oyiga 35—120 soʻm orasida maosh olib, 5—6 oy ishlaganlar.²

1906 yilda 131 ta paxta tozalash zavodida 5870 nafar kishi ishlab, ulardan 54 tasi bugʻ, 54 tasi suv va 23 tasi neft yoki kerosin kuchi bilan harakatga keltirilgan. Ularda 648 ta jin va 157 ta press boʻlib, 27919000 soʻmlik mahsulot ishlab chiqarilgan.

Birinchi jahon urushi arafasida, yaʼni 1913 yilda Fargʻona viloyatida paxta tozalash zavodlarining soni (17-jadval) oshdi.³

Xususan Andijon shahri va uezdida birgalikda 44 ta, Skoblevda 35 ta, Namanganda 28 ta paxta zavodlari ish yuritgan. Umuman olganda viloyatda paxta tozalash zavodlarining soni 144 ta hisoblangan. Bu raqam faqat uzluksiz mahsulot chiqarayotgan zavodlarni aks ettiradi. Vaholanki, oʻsha jadvalda 161 ta zavodlar roʻyxatda borligi koʻrsatib oʻtilgan. Ammo ulardan 17 ta zavod tamomila yopilganligi uchun hisobga kiritilmagan. Bunday zavodlar koʻproq Namangan, Andijon va Qoʻqonda ishni toʻxtatgan. Afsuski, buning sabablari koʻrsatilmagan.

17-jadval

Uezdlar	ishlayotgan zavodlar	Maʼlumot bermagan zavodlar	ishlamayotgan zavodlar	fami	1913 yilda qurilgan va qurilayotgan zavodlar	Roʻyxatga olingan zavodlar	Yopilgan zavodlar
Qoʻqon uezdi	—	—	3	18	—	18	1
Qoʻqon shahri	10	-	1	11	-	11	1
Andijon uezdi	10	-	1	11	-	11	1
Andijon shahri	18	1	1	20	1	21	3
Namangan uezdi	26	-	1	27	—	27	3
Namangan shahri	11	2	3	16	-	16	4

³ Путеводитель по Туркистану и Среднеазиатской железной дороги. Под редакцией А. И. Дмитриев-Мамонова. СПб. 1903 г. С. 86-87.

² Путеводитель по Туркистану и Среднеазиатской железной дороги. Под редакцией А. И. Дмитриев-Мамонова. СПб. 1903 г. С. 86-87.

³ Загорская В.В. и Александров К.А. Промышленные заведения Туркестанского края. СПб, 1913, С.15.

Skobelev uezdi	17	-	-	17	-	17	-
Skobelev shahri	31	1	2	34	1	35	3
Marg'ilon shahri	4	-	-	4	-	4	I
O'sh uezdi	11	-	-	11	-	11	1
Jami	1			1	-	1	-
	144	4	11	159	2	161	17

18-jadval

Millatlar	Mahsulot ishlab chiqaruvchilar			Dvigatellarda ishlovchilar			Ta'mirlash va ulgurji ishlarni bajaruvchilar			Qora ishlar bilan shug'ullanuvchilar			Jami		
	yerkaklar	ayyolar	bolalar	yerkaklar	ayyolar	bolalar	yerkaklar	ayyolar	bolalar	yerkaklar	ayyolar	bolalar	yerkaklar	ayyolar	bolalar
Ruslar	19	-	-	314	-	-	12	-	-	12	-	-	357	-	-
O'zbeklar	2924	-	-	37	-	-	13	-	-	1281	-	2	4264	-	7
tojiklar	19	-	-	-	-	-	-	-	-	942	-	-	961	-	-
Dunganlar va Qashg'arlar	34	-	-	-	-	-	-	-	-	61	-	-	95	-	-
Boshqa millatlar	42	-	-	9	-	-	-	-	-	55	-	-	106	-	-
Jami	3038	-	5	359	-	-	25	-	-	2351	-	2	5776	-	7

Ehtimol ular suvning yetishmasligi yoki bankrotga uchraganligi orqasidan yopilgan bo'lishi mumkin. Paxta tozalash zavodlarida ruslar, o'zbeklar, tojiklar, qashg'arliklar va dunganlar (18-jadval) ishlagan.¹

Paxta tozalash zavodlarida ishlayotgan 5783 nafar kishidan 4264 nafarini o'zbeklar tashkil etgan. Ular asosan qora ishlar bilan shug'ullanib, mavsumiy ishlovchilar hisoblanganlar. Boshqacharoq aytganda, ular zavodlarning doimiy ishchilari bo'lmay, bu yil ishlasa, keyingi yilda boshqa tirikchilik bilan shug'ullanar edi. Zavodlarda o'zbeklardan keyin tojiklar ko'pchilikni tashkil qilib, bular ham mavsumiy ishlovchilar qatoriga kirgan. Ularning soni 900 nafardan oshib ketgan edi. Ruslar to'g'risida gap ketganda shuni aytish lozimki, zavodlarda ishlaydiganlarning soni 357 nafar kishidan iborat bo'lib, 334 nafar odam dvigatellarda, 12 nafari ta'mirlash va 12 nafari qora ishlarda mehnat qilgan. Nihoyat, 1913 yilga kelib, o'zbeklardan 37 nafar kishi dvigatellarda ishlay boshladi.

¹ Загорская В.В.и Александров К.А. Промышленные заведения Туркестанского края. СПб,1913,С.15.

1913 yilda paxta tozalash zavodlarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi quyidagicha bo'lgan.

Qo'qon uezdida	-2154661 pud
Qo'qon shahrida	-2351736 pud
Andijon uezdida	-2352782 pud
Namangan uezdida	-1266810 pud
Namangan shahrida	-4114949 pud
Skoblev uezdida	-4913114 pud
Skoblev shahrida	-675392 pkud
Marg'ilon shahridi	-1444468 pud
O'sh uezdida	-34130 pud

Andijon shahri, Skobelev va Namangan uездlari mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha oldingi qatorlarni egallagan. Zavodlarning uzluksiz ishlashi faqat ularning texnik holatiga emas, balki paxta xom ashyosi bilan ta'minlanishiga ham bog'liq bo'lgan. Ayrim zavod egalari ayni mavsum paytida mablag' yetishmasligi tufayli etarli darajada paxta sotib olmagan.

Pata zavodlarining tabora rivodlanishi tufayli viloyatning iqtisodiy hayotida qator o'zgarishlar yuz berdi. Zero, ular sanoat sohasida etakchi o'rinni egallab, katta miqdorda mablag' kirib kelishiga ta'sir ko'rsatdi. Ularning mavqei ko'tarilganligini quyidagi ma'lumotlardan ko'rish (19-jadval) mumkin.¹

19-jadval

Sanoat sohalari	Ishchilar									
	millati						soni			
	ruslar	o'zbeklar	qirg'izlar	tojiklar	qashqarliklar	boshqa millatlar	yerkaklar	ayollar	bolalar	Jami
Paxta tozalash zavodlari	357	4264	-	961	95	106	5776	-	7	5783
Piila quritish	1	2168	-	-	-	1	842	1243	85	2170
Yog' zavodlari	368	774	6	30	18	347	1529	1	12	1543
Pilla urug'i tayyorlash	81	1022	-	-	~	14	73	-	58	1117
G'isht zavodi	4	299	10	-	60	245	618	-	-	618
Pivo	101	40	-	-	-	20	138	-	-	161
Bosmaxona	132	7	-	-	-	11	119	-	31	150
Sovun ishlash	34	96	-	-	-	16	124	-	22	146
Tegirmonlar	62	33	-	-	-	45	140	-	-	140
Mexanika ustalari	114	10	-	-	-	-	123	-	1	124
Mineral suvni ishlash	91	10	-	-	15	-	78	-	28	116
Ichak tozalash	27	88	-	-	-	-	113	2	-	115
Elektr stansiyasi	80	-	-	-	-	-	80	-	-	80
Spirt tozalash	42	9	-	-	-	3	41	11	2	54
Ko'ncilik	-	43	-	-	-	-	40	-	3	43

¹ Загорская В.В.и Александров К.А. Промышленные заведения Туркестанского края. СПб,1913,С.15.

Muz ishlash	21	4	-	-	-	10	35	-	-	35
Paxta titish	16	10	-	-	-	-	26	-	-	26
Ekipajchilik	25						25	-	-	25
Infeksiya kamerasi	-	18	-	-	-	-	18	-	-	18
Taxta tayyorlash	11			-		-	11	-	-	11
Konserva tayyorlash	4	2			-	-	2	4	-	6
Vinochilik	1						1	-	-	1
Jami	1572	8897	16	991	173	833	9942	2309	231	12482

Sanoat sohalarida jami 12482 nafar kishi ishlab, ulardan 4264 nafari paxta tozalash zavodlarida ishlovchi o‘zbeklardan tashkil etgan. Ruslar esa 357 nafar bo‘lgan. Tojiklardan 961, qashqarlik va dunganliklardan 95 va boshqa kelgindilardan 106 nafar kishi mehnat qilgan. Viloyatdagi sanoatda ishlayotgan kishilarning 12482 nafaridan 8897 nafar o‘zbeklar bo‘lgan.¹

Oldingi sahifalarda paxta tozalash zavodida ishlovchilarning og‘ir ahvoli haqida qisman so‘z yuritilgan edi. Bunga qo‘shimcha qilib shuni aytish lozimki, ventilatorlarning yetishmasligi tufayli ko‘p zavodlarning xonasi chang-to‘zon bosib ketgan. Natijada ishlayotgan odamlarning yuz-ko‘zi va kiyimlari chang-to‘zon bo‘lib, nafas olish nihoyatda og‘irlashgan. Mana shundan chidab bo‘lmaydigan sharoit odamlarni turli kasalliklarga uchrashiga sabab bo‘lgan.

Tibbiy yordam deyarli ko‘rsatilmagan. Buning ustiga-ustak zavodlarda texnika xavfsizligiga ahamiyat berilmagan. Bu hol baxtsiz hodisalarni keltirib chiqarib, nogironlar soni ko‘payib borgan. Zavod bunday kishilarni mablag‘ bilan ta’minlamagan.²

Viloyatdagi paxta tozalash zavodlarida ish haqi juda past bo‘lib, ishlovchiga bir kunga 40—50 tiyin, oyiga 15—17 so‘m, bir yilga 177 so‘m 30 tiyin berilgan. Ishchi bu pul bilan oilani boqishi amri mahol edi. Chunki oziq-ovqatlar, kiyim-kechak va soliqlarni to‘lash uchun xarajat ancha ko‘p bo‘lgan. Zavodda ishlovchilarning orasida uzoq joylardan kelgan yoki uysiz kishilar bor edi. Ular xom g‘ishtdan qurilgan, pastak va qorong‘i xonalarda yashab, poxollar ustida yotganlar. Bunday xonalar ko‘p jihatdan yerto‘lani eslatgan. Og‘ir sharoitni 1913 yilda o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan V.V.Zaorskaya va K.A.Aleksandrovlar o‘z kitobida

¹ Ziyoev X. Z. O‘zbekiston mustamlaka va zulm iskanjasida. - T.: SHarq, 2006.B.199.

² O‘sha joyda.

yertoʻlalarda yashovchi kishilar soni haqida quyidagi maʼlumotni (20-jadval) keltirgan.³

Zavodlarda ishlayotgan 5783 kishidan 4089 nafari yotoqxonalarda yashaganlar. Oʻz uylarida yashovchilar esa 1744 nafarni tashkil etgan. Demak, 70 foiz ishchi zavod yotoqxonasida istiqomat qilgan. Bu holat shu haqida guvohlik beradiki, qashshoqlar yoki uzoq joylardan kelgan ishlovchilarning asosiy qismini qoplagan. Ularning koʻpchiligi Andijon shahri va Skobelev uездlaridagi zavodlarda ishlaganlar.

20-jadval

Uездlar boʻyicha	Ishlovchilar soni	Zavod xonalarida yashovchilar	Uyda istiqomat qiluvchilar
Qoʻqon uezdi	474	258	216
Qoʻqon shahri	406	243	163
Andijon uezdi	662	645	17
Andijon shahri	1499	1162	337
Namangan uezdi	344	260	84
Skobelev uezdi	1213	891	322
Skobelev shahri	144	90	51
Margʻilon shahri	345	31.1	30
Jami	5783	4089	1744

1.3. Yogʻ zavodlarining qurilishi va ularning faoliyati

Paxta tozalash zavodlarida koʻp miqdorda chigit chiqishi yogʻ zavodlarini yuzaga keltirdi. Firmalar paxta yogʻidan olinadigan daromadni ham qoʻlga kiritish maqsadida zavodlar qura boshladi. Bundan oldingi vaqtlarda mahalliy aholi chigitdan yogʻni moyjuvozda olgan. Bu juda oddiy va mashaqqatli mehnatni talab qiluvchi usul ot yoki tuya kuchi vositasida bajarilar edi. Moyjuvozda 14 soat mobaynida 3 pud chigitdan 20 qadoq yogʻ olinib, ketgan xarajat kuniga 1,20 tiyinni tashkil etgan. Boshqacharoq aytganda, bir pud yogʻ tayyorlash uchun 2,40 tiyin sarflangan. Mahalliy usulda yogʻ ishlab chiqarish keng tarqalib, bu ish bilan minglab kishilar band boʻlishgan. 1894 yilda Fargʻona viloyatida 2911 ta moyjuvozda 226725 soʻmlik mahsulot tayyorlangan. 1898 yilda Fargʻona shahridagi 2 ta moyjuvozda 2300 soʻmlik, Margʻilon uездida 562 ta moyjuvozda

³ Загорская В.В.и Александров К.А. Промышленные заведения Туркестанского края. СПб,1913,С.17.

4671 soʻmlik, Qoʻqon uezdida 848 ta moyjuvozda 24880 soʻmlik, Namangan uezdida 1244 ta moyjuvozda 144000, Andijon uezdida 204 moyjuvozda 17300 soʻmlik yogʻ ishlab chiqarilgan. Ularda 4162 nafar kishi mehnat qilgan.¹

Mahalliy moyjuvozlar hamma vaqt birday ishlamay, samaradorligi birmuncha susaygan vaqtlar ham boʻlgan. Masalan, 1900 yilda viloyatda moyjuvozlardagi 3478 nafar ishlovchi 305211 soʻmlik mahsulot ishlab chiqargan. Mahalliy usul bilan chigitdan yogʻ olish keyingi yillarda ham davom ettirildi. Hatto mahsulot miqdori (21-jadval) oshdi.²

21-jadval

Uezdlar	Moyjuvozlar soni	Ishlovchilar soni	Mahsulot qiymati (soʻm)
Andijon	1039	1107	138973
Qoʻqon	1068	1088	120.828
Margʻilon	947	1069	120.590
Namangan	1059	999	85090
Oʻsh	221	282	20050
Jami	4334	4515	485531

Koʻrsatilgan uezdlarda hammasi boʻlib 4334 ta moyjuvozda 4515 nafar kishi tomonidan 485531 soʻmlik mahsulot tayyorlangan. Demak, hunarmandchilik usulida yogʻni chigitdan ajratish uchun minglab ish oʻrinlari tashkil qilinib, oʻz davri uchun salmoqli miqdorda mahsulot ishlab chiqarilgan. Ammo zamonaviy texnika bilan jihozlangan zavodlar ularning ahamiyatini asta-sekin pasaytirib bordi.

Birinchi yogʻ zavodi 1884 yilda tadbirkor S.I.Laxtin tomonidan Qoʻqonda ishga tushirilgan edi. Zavodda 22 nafar ishlovchi boʻlib, 10 soat mobaynida 35 pud, yil mobaynida 10000 pud mahsulot olingan. Ammo 1900 yilda CHustda M.Solovev, 1901 yilda Beshariqda V.G.Omelchuk va Margʻilon uezdida Ibrohim Sarimsoqov yogʻ zavodi ochdi. 1900 yilda CHust zavodining yogʻini targʻibot qilish maqsadida Moskvaga yuborildi. Yaxshi baho olgan boʻlsa kerakki, 1902 yilda Namanganda K.M.Solovev, Zigel Reynsgaten savdo uyi tomonidan 2 ta zavod ishga tushirildi. Pirovardida bu 2 ta zavod 14 mln soʻm mablagʻi bilan aksiyadorlik jamiyatiga aylantirildi.

¹ Ziyoev X. Z. Oʻzbekiston mustamlaka va zulm iskanjasida.- T.: SHarq, 2006.B. 207.

² Oʻsha joyda.

Tajriba o'rganish uchun ayrim kishilar Amerika va G'arbiy Yevropaga yuborildi. Amerika dan mashina va jihozlar keltirildi.

1904 yilda Andreev savdo shirkati Namangan uezdida Fedchenko stansiyada zavod qurdi. SHundan keyin yog' zavodlarining soni birin-ketin ko'payib bordi. 1906 yilda Farg'ona yog' ishlab chiqarish shirkati bitta press va 14 ta plita bilan jihozlangan zavod ochgan. 1907 yilda Andijonda K. M. Solovevning 3 ta press va 16 ta plita bilan jihozlangan zavodi mahsulot chiqara boshladi. Qo'qonda R.SH.Potelyaxovga qarashli 2 ta press va 12 ta plitaga ega bo'lgan zavod ishlay boshladi. SHuningdek, M.Mirmuhammedov, A.A.Azizxo'jaevlarning zavodlari qurildi. 1910 yilga kelib, Farg'ona viloyatida 39 ta gidravlik press bilan jihozlangan yog' zavodlari soni 14 taga etib, o'sha yili 1350000 pud sheluxa ishlab chiqargan.¹

Zavodlarda faqat Amerika paxta navining chigitlari ishlatilgan. Ular yil bo'yi 150 kun ishlab, chigitning ko'p qismini sarflagan. Boshqa ma'lumotga ko'ra zavodlar 250 kun ishlagan. Bu holat paxta hosili mo'l bo'lib, chigit ko'p yetishtirilgandagina yuz bergan.

Vaqt o'tishi bilan zavod yog'ining dovrug'i oshib, uning mahsulotiga, ayniqsa Rossiyada talab kuchayib bordi. Natijada uning bozor narxi ko'tarildi. Agar 1901 yilda bir pud yerining narxi 8-12 tiyin bo'lsa, 1903 yilda 18-24, 1904 yilda 23-22, 1906 yilda 25-40, 1908 yilda 50-70 va 1910 yilda 60-72 tiyinga oshdi.

1910 yilda Farg'ona viloyatida 39 ta gidravlik press bilan ta'minlangan 13 ta zavodda bir kecha-kunduzda 35300 pud chigitdan yog' ajratilgan. O'sha yilda zavodlarda o'rta hisobda 1350000 pud yog', 3000000 pud lintyer ishlab chiqarilgan.

1911 yilda yahudiy tadbirkor Vadyayevlar 2 ta zavod qurilishini tamomlab, bir yilda 12000000 pud chigitdan 1800000 pud yog' olish imkoniyatini yaratdi. Viloyatdagi zavodlarda kunjara va sovun ham tayyorlangan.

1911 yilga kelib, ishlab turgan viloyatda 14 ta yog' zavodida 50 ta gidravlik press kuchi bilan 12000000 pud chigitdan 1800000 pud yog', 4000000 pud

¹ Ziyoev X. Z. O'zbekiston mustamlaka va zulm iskanjasida. - T.: SHarq, 2006.B.208.

kunjara, 6000000 pud sheluxa va 150000 pud lintyer (paxta chiqindisi) olingan.¹ CHigitdan oziq-ovqatga ishlatiladigan yogʻ bilan bir qatorda sovun, margarin va chiroqni yoqishga sarflanadigan “kerosin” olingan. Sheluxa esa qora-mollar uchun toʻyimli ozuqa hisoblangan, uning tolasidan qogʻoz ham ishlab chiqarilgan. Bundan tashqari u oʻtin oʻrnida ham ishlatilgan. Chigit yogʻini kunjut, danak, qovun urugʻi, yongʻoq, kungaboqar va boshqa shunga oʻxshash narsalar bilan qorishtirilgan holda shifobaxsh yogʻ tayyorlangan. Manbada taʼkidlanishicha, Fargʻona viloyatidagi yogʻ zavodlari paxtadan ajratilgan chigitning hammasini ishlash imkoniyatiga ega boʻlgan. Hatto chigitni Toshkent va Samarqanddan ham keltirish boshlangan edi.²

Oʻlkada, jumladan, Fargʻona viloyatida zavodlarning tuzilishi Amerika nikiga oʻxshash boʻlgan. Chunki zavodlar u yerdan keltirilgan jihozlar asosida qurilgan. Ammo viloyatdagi zavodlarda ishlab chiqarilgan yogʻning sifati Amerika yogʻiga qaraganda maʼlum darajada past edi.

1913 yilda zavodlarda 26811095 pud paxtadan 18118242 pud chigit olinib, uning 11956129 pudidan yogʻ ajratilgan.

1913 yilda yogʻ ishlab chiqarish zavodlarining soni (22-jadval) 18 taga etgan.

22-jadval

Soni	Skobelev uezdi	Oʻrnatilgan joyi
1.	Muhammad Ibrohimqori Sarimsoqov	Surxontepa
2.	Andreev savdo-sanoat shirkati	Fedchenko stansiyasi
3.	Qorabek Botirbekov	Toshloq
4.	Saidahmad Gʻiyosxoʻjyayev	Garchakov stansiyasi
5.	Abo Mallaevich Simxaev Qoʻqon	Asaka
6.	Br. Kraft savdo uyi	Beshariq
7.	Potel Yaxav savdo-sanoat shirkati	Qoʻqon
8.	Andreev savdo-sanoat shirkati	Qoʻqon
9.	Mirrobi Mirmahmudov	Qoʻqon
10.	Mulla usta Umarov	Qoʻqon
11.	K.M.Solovev savdo-sanoat shirkati	Namangan
12.	K.M.Solovev savdo-sanoat shirkati	CHust
13.	Andreev savdo-sanoat shirkati	Namangan
14.	Namangan savdo-sanoat shirkati	Namangan
	Andijon	
15.	K.M.Solovev savdo-sanoat shirkati	Andijon
16.	Fargʻona yogʻ ishlab chiqarish shirkati	Andijon
17.	Br. Balyuli savdo uyi	Qoʻrgʻontepa
18.	KM.Solovev savdo-sanoat shirkati	Xoniqulobod

¹ Ziyoev X. Z. Oʻzbekiston mustamlaka va zulm iskanjasida. - T.: SHarq, 2006.B. 209.

² Oʻsha joyda.

Zavodlarning 5 tasi o'zbeklarga, ikkitasi mahalliy yahudiylarga, 11 tasi esa rus firmalarga qarashli bo'lgan. Andreev va Solovevlarning har biri ikkitadan zavodga ega edi. Yahudiylar ham ikkitadan zavodni boshqarishgan.

XX asr boshlarida yog' ishlab chiqarish zavodlarida o'rta hisobda 155 nafar kishi ishlagan bo'lib, ulardan 104 tasi qora ishlar bilan band o'zbeklar, 37 nafar rus, 4 nafar eronlik va 14 nafari boshqa millat vakillari edi.

O'lkada 1910-1914 yillarda paxta tozalash zavodlarida olingan chigitlarning barchasidan yog' (23-jadval) olinmagan.¹

23-jadval

Viloyatlar	Yog'i olinmagan chigit (pud)	Yog'i olingan chigit (pud)
Farg'ona	18118242	11958129
Sirdaryo	2265042	206900
Samarqand	1908541	821980
Jami	22291823	12985009

Viloyatlardagi paxta tozalash zavodlarida 22291823 pud chigit ishlab chiqarilgan. Uning 12985009 pudidan (58,3%) yog' chiqarilgan. Farg'ona viloyatida bu raqam 66,0%ni tashkil etib u birinchi o'rinni egallagan. Sirdaryo va Samarqand viloyatlari ikkinchi va uchinchi o'rinda turgan.

Hamma viloyatlarda chigit miqdori va sifati bir xil bo'lmaganligi uchun narxi har xil edi. Chunonchi, Farg'ona vodiysida chigitning qiymati balandroq, Samarqand va Sirdaryoda pastroq edi.

Zavodlarda yog'dan tashqari kunjara, sheluxa va lintyer singari mahsulotlar (24-jadval) tayyorlangan.²

1913 yilda o'lkada 7757678 so'mlik yog', 2506965 so'mlik kunjara, 765402 so'mlik sheluxa va 1173504 so'mlik lintyer ishlab chiqarilgan. Bu mahsulotlarning talay qismi paxta yog'i va kunjaradan iborat bo'lgan, undan keyingi o'rinda lintyer (paxta chiqindisi) turgan. Turli mahsulotlar 4404 nafar ishlovchilar tomonidan tayyorlanib, ular zavodlarda kuniga 12 soat, boshqalarida 8 soat ishlagan. Ularning orasida ikki smena ishlovchilar ham bo'lgan. 1913 yilda yog' ishlab chiqaradigan

¹ Ziyoev X. Z. O'zbekiston mustamlaka va zulm iskanjasida. - T.: SHarq, 2006.B.210.

² O'sha joyda.

zavodlardagi ishlovchilarning milliy tarkibini ruslar, o'zbeklar va boshqa millat vakillari (25-jadval) tashkil etgan.¹

24-jadval

Shahar va uездlar bo'yicha	Zavodlar soni	Mahsulot qiymati (so'm)	Lintyer (pud)	Lintyer qiymati (so'm)	Bir pud narxi (so'm)	Yog' (pud)	Yog'ning qiymati (so'm)	Kunjara (pud)	Kunjara qiymati (so'm)	Sheluxa (pud)	Sheluxa qiymati (so'm)
Qo'qon uezdi	1	710195	8433	54576	6,47	11830	423639	289351	144675	245900	49180
Qo'qon shahri	2	4187390	89557	535,453	598	635269	2517053	1778318	821793	1693938	227090
Jami	3	4897585	97990	590029	602	747099	2940692	2067669	9664668	1939838	1276271
Andijon uezdi	2	434970	9920	34560	3,48	70220	267459	178740	102113	167120	28744
Andijon shahri	1	295260	3000	19875	662	45000	206615	100000	49430	70000	13480
Jami	3	731230	12920	54435	421	115220	474074	278740	151543	237120	42224
Namangan uezdi	1	323665	2340	16848	720	50862	6213622	116100	63855	117360	29340
Namangan shahri	3	2954575	39701	274812	692	423439	183471	1132586	626324	934980	200728
Jami	4	3278240	42041	291660	695	474301	2048686	1248686	690179	1042340	230068
Skobelev uezdi	3	2627960	51500	195069	379	474550	1699130	1143000	531500	119700C	152116
Farg'ona viloti	13	11535015	204451	1131193	553	1811170	7162229	4738095	233969C	4416298	700697
Sirdaryo viloyati	1	169399	553	3321	600	32070	118657	82760	33104	78955	11843
Samarqand shahri	3	307147	3223	17842	554	49198	203415	138097	63757	143092	16376
Xo'jand shahri	1	26870	300	1950	660	4200	17960	14200	5680	11400	1140
Kattaqo'rg'on shahri	1	343165	3066	19198	626	51907	215417	151017	64734	219700	26364
Samarqand viloyati	5	677182	6589	38990	592	105305	436792	303314	134171	374192	43880
O'lka bo'yicha jami	19	12381596	211593	1173504	555	1948545	7717678	5124169	2506965	4869445	765402

25-jadval

Viloyatlar	Ruslar			O'zbeklar	Qirg'izlar	Eronliklar	Dungalar	Tojiklar	Boshqalar	Jami			foizi
	yerkaklar	ayollar	bolalar	yerkaklar	yerkaklar	yerkaklar	yerkaklar	yerkaklar	yerkaklar	yerkaklar	ayollar	bolalar	
Ishlab chiqarishda													
Farg'onada	79	2	1	574		130	8		15	811	2	1	-
Sirdaryoda		-	-	22	-		-	-	-	22	-	-	
Samarqandda	22	2	2	68	-	-		-		90	2	2	-
Jami	101	4	3	664	5	130	8	-		923	4	3	54,1
Mashinistlar va mexaniklar													
Farg'onada	18			-	-	-			1	19	-		-
Sirdaryoda	1			-	-	-			-	1	-	-	
Samarqandda	6			-	-	-		-	-	6	-	-	-
Mashinist va mexanik yordamchisi													
Farg'onada	16				-	-		-	1	17	-	-	-
Go'laxlar													
Farg'onada	16			25	-	20		-	-	61	-	-	
Sirdaryoda	4					-		-	-	4	-		-
Samarqanda	10			2	-	-		-	-	12	-		

¹ Ziyoev X. Z. O'zbekiston mustamlaka va zulm iskanjasida. - T.: SHarq, 2006.B.199.

YOg'lovchilar													
Farg'onada	25			18	-	-		-	18	61	-	-	-
Sirdaryoda	2			-	-	-		-	-	2	-		-
Sarnaiqandda	5			3	-				-	8	-		
Dvigatellarda													
Faig'onada	9			8	-	-		-	-	17	-	-	-
Jami	112			56	-	20		-	20	208	-	-	121
Ta'rairlashda:													
Farg'onada	120	11	40		-	2			24	186	-	11	-
Samarqandda	6			3	--	-				9		-	-
Jami	126	-	11	43	-	2		-	24	195	-	11	120
Qoraishlarda													
Faig'onada	63		-	53	1	77	-	30	8	232	-	-	-
Sirdaryoda	-	-	-	-		1			-	1	-	-	-
Samarqandda	1	-	-	14	-	-	-	-	-	15	-	-	-
Jami	64	-	-	67	1	78	-	30	8	248	-	-	14,4
CHetdagi ishlovchikr													
Ryoda yuravchilar													
Otliqlar	8	-		54	-	46	10	-	5	123		-	-
Farg'onada				2						2			
Samarqandda	-	-	-	3	-	-	-	-	-	3	-	-	-
Jami	8	-	-	59	-	46	10	-	-	128	-	-	7,4
Jami ishlovchilar soni													
Farg'onada	354	2	12	774	6	275	18	30	72	1529	2	12	89,8
Sirdaryoda	7	-	-	22	-	1	-	-	-	30	-	-	1,8
Samarqandda	50	2	2	93	-	-	-	-	-	143	2	2	8,4
O'ikabo'yichajami	411	4	14	889	6	276	18	30	72	1702	4	14	100
Foizi		24,9	0,4	51,7	16,0	1,1	1,7	4,2	-	-	-	-	100

Turkiston o'lkasidagi barcha zavodlarda 889 rtavar o'zbek, 411 nafar rus, 276 nafar eronlik, 30 nafar tojik, 18 nafar dungan va boshqa millatlardan 72 nafar kishi ishlagan. O'zbeklar va boshqa millat vakillari qora ishlarni bajargan. Ruslar esa mashinist va mexanik lavozimlarini egallaganlar. O'zbeklar jami ishlovchilarning 51,7 foizini tashkil qilgan. Farg'ona viloyatidagi zavodlarda 368 nafar rus va 774 nafar o'zbek mehnat qilgan. Farg'ona viloyatidagi ishlovchilarning 18,3 foizi va Samarqand viloyatidagi ishchilarning 43,5 foizi zavod yotoqxonasida istiqomat qilishar edi. Ishlovchilarning ish haqi juda oz bo'lib, ularning sharoitini yaxshilashga bor-yo'g'i 12886 so'm sarflangan, xolos.

Paxta tozalash va yog' zavodlaridan keltirayotgan katta daromad firmalar o'rtasida o'zaro raqobatni yuzaga keltirdi. Natijada ayrim firmalarning Ittifoqi yuzaga keldi. Masalan, 1913 yilda "Vladimir Alekseyev", "Moskva savdo shirkati", "Aka-uka Shlosberg", "Yaroslavl katta manufaktura shirkati" va "O'rta

Osiyo va Afgʻoniston savdo shirkati”, ”Aka-uka Vadyayevlar” firmasining raqibi sifatida ishga kirishdi. Chunki bu firma paxta va yogʻ savdosi boʻyicha tobora kuchayib, oʻz mavqeini mustahkamlab bormoqda edi.

Fargʻona va oʻlkaning boshqa viloyatlaridan yogʻ Rossiyaga uzluksiz joʻnatib turilgan. Bizning ixtiyorimizda Rossiyaga olib ketilgan paxta yogʻining umumiy miqdoriga doir quyidagi maʼlumotlar mavjud.¹

1907 yil - 525685 pud	1912yil- 2382812 pud
1908 yil - 569733 pud	1913 yil- 211119 pud
1909 yil-1102876 pud	1914yil- 1789899 pud
1910 yil - 1575980 pud	1915yil- 1426238 pud
1911 yil - 1772186 pud	1916 vil- 566876 pud

Bu katta miqdordagi yogʻning asosiy qismi Fargʻona viloyatida tayyorlangan. Boshqa manbada koʻrsatilishicha, Fargʻona viloyatining oʻzidan Rossiyaga 1914 yilda 2090038 pud va 1915 yilda 2696735 pud paxta yogʻi yuborilgan.¹

Paxta yogʻi asosan turli firmalar tomonidan olib ketilgan boʻlsa-da, lekin mahalliy millat vakillari boʻlgan ayrim zavod egalari ham yogʻni bevosita Rossiyaga joʻnatgan vaqtlar boʻlgan. 1913 yilda Qorabek Botirbekov dastlab oʻzining zavodida ishlab chiqargan 836 pud, soʻngra 829 pud yogʻni Sankt-Peterburgga, 722 pud yogʻni Lodz shahriga joʻnatgan.²

Paxta yogʻi Fargʻona viloyati va umuman oʻlkada Moskva, Samara, Nijniy Novgorod, Qozon, Saratov, Yaroslavl, Astraxan, Kastroma, Odessa, Rostov, Kiev, Taganrog, Boku, Batumi, Novorossiyskiy shaharlariga, Sibir va boshqa joylarga tarqatilgan.³ Viloyatdan Rossiyaga chigit ham joʻnatilgan. Masalan, 1913 yilda 9942289 pud chigit olib ketilgan.

Yogʻ zavodlarida katta miqdorda kunjara ham chiqarilgan. U mahalliy ehtiyoj uchun sarflanishi bilan bir qatorda Rossiyaga ham joʻnatilgan. Masalan,

¹ Ziyoev X. Z. Oʻzbekiston mustamlaka va zulm iskanjasida.- T.: SHarq, 2006.B. 215.

¹ Oʻsha joyda.

² Ziyoev X. Z. Oʻzbekiston mustamlaka va zulm iskanjasida.- T.: SHarq, 2006.B.216.

³ Oʻsha joyda.

1912 yilda Turkiston o'lkasidan jo'natilgan 2593381 pud kunjaraning yarmidan ko'p qismi Farg'ona viloyatida ishlab chiqarilgan edi. Ammo kunjara savdosi hamma vaqt bir maromda bo'lmagan. Uning miqdori 2 million pudga etmagan paytlar ham bo'lgan. CHunonchi, o'lkadan olib ketilgan kunjaraning miqdori 1908 yilda 1032921 pudni, 1909 yilda 1758407 pudni, 1910 yilda 1971917 pudni 3911 yilda 1336528 pudni tashkil qilgan edi.

Paxtaning chiqindisi hisoblangan lintyer ham e'tibordan chetda qolmay, ko'proq Volga bo'ylari va Lodzga olib ketilgan. Shuningdek, yog' zavodlarining sheluxa va kir sovun kabi mahsulotlari ham Rossiya bozorlarida sotilgan.

SHunday qilib, aytish kerakki, paxtadan olingan yog', kunjara, sheluxa, lintyer singari qimmatli va daromadli mahsulotlar ham Rossiyaga jo'natilib turilgan.

1.4. Ipakchilik korxonalarining shakllanishi va faoliyati

O'lkada pillachilik va undan gazlamalar to'qish tarixi uzoq davrlarga borib taqaladi. Bu gazlamalar xorijiy mamlakatlarda ham yuqori qadrlangan.

Arxiv hujjatlarining ko'rsatishicha, o'zbek gazlamalari Rossiyaga ham jo'natilgan. Bu yerga ipak gazlama 1585 yilda keltirilgan, 1617 yilda esa Qozon shahriga olib kelingan. 1638— 1672 yillarda ipak gazlama uzoq Sibir bozorida sotilgan. 1712 yilda Yamishev qo'lidal 100 to'p ipak gazlama xarid qilingan.¹

Hozirgi Sverdlovsk viloyati tarkibidagi Irbitda uyushtirilgan yarmarkada o'zbek savdogarlari faol qatnashganlar. Ular turli mollar bilan bir qatorda ipak gazlamalar bilan ham savdo qilishgan. Chunonchi, ular yarmarkada 1887 yilda 115000 so'mlik, 1890 yilda 100000, 1891 yilda 78000, 1892 yilda 70000, 1894 yilda 100000, 1897 yilda 40000 so'mlik ipak gazlamalari sotgan. Bu gazlamalarni Orifjonov Tohirjon, Inog'omov Asaljon, Ibrohimjonov Yusufjon, Majidboyev T.Umarov Mo'minboy, Sultonov Hamza va O'zbekov A. singari savdogarlar olib kelganlar.²

¹ Ziyoev X. Z. O'zbekiston mustamlaka va zulm iskanjasida. - T.: SHarq, 2006.B.142.

² O'sha joyda.B.142.

Ipak gazlamalar o'sha davr uchun katta hajmda keltirilgan edi. Shubhasiz, bunday holat Turkiston o'lkasida pillachilikning barqarorligini ta'minlashga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Ammo keyinchalik ahvol o'zgarib bordi. Mahalliy pilla qurti urug'i ko'proq hunarmandchilikning talabiga moslashgan bo'lib, hosildorligi va sifati ancha past edi. Ayniqsa u kasalga chalinganda pillachilik chuqur inqirozga uchrab, dehqonlar katta zarar ko'rgan.

Pilla urug'ini jonlantirish ham juda mashaqqatli kechgan. Zero, bahorda tut daraxti barg chiqara boshlaganda ayollar urug' solingan xaltachalarni qo'ltiq yoki ko'krakda to jonlanguncha saqlab yurganiar. Shu tariqa tana harorati yordamida jonlantirilgan pilla urug'i xonalarda 45 kun mobaynida og'ir sharoitda boqilgan.

Chor hukumati xonliklarni bosib olgandan keyin firmalar bilan birgalikda to'qimachilik sanoatini ipak xom ashyosi bilan ta'minlash maqsadida pillachilikni rivojlantirishga qaratilgan choralar ko'rdi. Natijada Turkiston gubernatorligiga qarashli viloyatlarda pillachilik sohasida o'zgarishlar sodir bo'ldi.

Fag'ona viloyati paxta bilan bir qatorda ipakchilikning ham makoni hisoblangan. Pillachilik eng nozik va mas'uliyatli kasb hisoblanib, uning qurti kasalga chalinishi va hosilning pasayishi yoki barbod bo'lishi hech gap bo'lmagan. Shu bois u kishilardan katta tajriba va sabr-qanoatni talab qilgan.

XIX asrning 70-80 yillarida viloyatda pilla urug'lari kasalga chalinganligi sababli ipakchilik og'ir ahvolga tushib qolgan. Bundan qutulishning yagona yo'li sog'lom pilla urug'i yetishtirishdan iborat edi. Shu bois rus ma'muriyati va firmalar o'z manfaatlaridan kelib chiqqan holda pillachilikni rivojlantirishga qattiq kirishdilar. Chunonchi, 1886 yilda Farg'ona shahridagi kasalxona xonalaridan birida pilla urug'i yetishtiruvchi stansiya ishga tushirildi. Bu yerda sog'lom urug'lar olinib, dehqonlarga 1887 yilda 10 qadoq, 1888 yilda 9 qadoq 87 misqol, 1889 yilda 16 qadoq 6 misqol, 1890 yilda 18 qadoq 1892 yilda 4 qadoq 48 misqol, 1893 yilda 10 qadoq, 1894 yilda 4 qadoq 89 misqol, 1895 yilda 10 qadoq 56 misqol, 1896 yilda 13 qadoq 93 misqol, 1897 yilda 6 qadoq 19 misqol, 1898 yilda 4 qadoq 96 misqol urug' tekinga berilgan.

Garchand stansiyada pilla qurti oz miqdorda yetishtirilgan bo'lsa-da, lekin sifatining yaxshiligi aholi diqqatini darhol jalb etdi. Stansiyada Fransiya va Turkiyadan keltirilgan urug'lar iqlimlashtirilgan edi. Bu ishning tashabbuschisi Aloizi ismli tadbirkor 1891 yilda dastavval Andijon uezdining boshlig'iga ma'lum miqdordagi pilla urug'ini yuborib, dehqonlarga 10 foiz foydasi bilan sotishni so'radi. Bunday urug'lar viloyatning boshqa joylariga ham tarqatildi. Ularning mahalliy pilla qurtiga nisbatan afzalligi shundan iborat bo'lganki, olingan ipakning sifati yuqori bo'lib, to'qimachilik sanoatining talablariga mos tushgan. Daromadi ham yomon bo'lmagan. 1892 yilda Aloizi Qo'qonda urug' tayyorlaydigan stansiya ochib, o'zbeklardan 6 nafar kishiga mikroskopdan foydalanishni o'rgatdi.

Shu tariqa Aloizi tomonidan iqlimlashtirilgan Fransiya, xususan, Korsika urug'i vodiy bo'ylab tarqaldi. Aloizi 1891 yilda Fransiya 16000 misqol, 1891 yilda 60000 misqol pilla urug'ini keltirib, dehqonlarga sotgan. Biroq tadbirkor Bauyer "Bog'dod" pilla urug'ini iqlimlashtirishga kirishib, Aloizi bilan raqobat qila boshladi.

Agar Aloizi Turkistonda pillachilikni rivojlantirish uchun Fransiya 16000 misqol ko'plab urug' keltirish va iqlimlashtirish tarafdori bo'lsa, Bauyer esa "Bog'dod" - urug'ini keng ko'lamda iqlimlashtirish uchun kurashdi. Dastavval, Aloizi tavsiya qilgan pilla urug'i yaxshi hosil berib mahalliy aholi tomonidan yuqori baholandi. Hatto aholi Farg'ona harbiy gubernatoriga o'zbek tilida xat bilan murojaat qilib, Aloizi iqlimlashtirgan pilla urug'idan boshqa urug'larni yetishtirishga ruxsat bermaslikni so'radi. Ammo, keyinchalik ahvol o'zgarib, Bauyer boshlagan ish samarali bo'lib chiqdi. Natijada Turkiyadan keltirilayotgan "Bog'dod" urug'i keng ko'lamda tarqaldi.

Aytish lozimki, XIX asrning oxirlarida pilla urug'i kasalga chalinishi va ipak bahosining jahon miqyosida pasayishi tufayli pillachilik kasodga uchragan vaqt ham bo'lgan. Biroq har qanday qiyinchilikka qaramay, o'zbeklar pillachilikka bo'lgan mehr-muhabbati tufayli undan voz kechmay, sabr-qanoat bilan bu ishni davom ettirdilar. Nihoyat xususiy pillachilik korxonalari ochilib, sog'lom urug'lar

yetishtirilgandan keyin ishlar yana yurishib ketdi. Pillaning “Bog‘dod” urug‘ini yetishtirish avjiga mindi.

1894 yilda ob-havoning qulay kelishi munosabati bilan pilladan yaxshi hosil olingan. Xususan, Marg‘ilon uezdida 2720 pud, Qo‘qonda 465 pud, Andijonda 750 pud, Namanganda 183 pud va O‘shda 80 pud pilla qo‘lga kiritilgan. Bu xom ashyo Italiya, Bog‘dod, Korsika va Yaponiya pilla urug‘laridan yetishtirilgan edi. SHuni aytish lozimki, uezdlarda yetishtirilgan pillaning sifati va narxi bir xil bo‘lmagan. Buni quyidagi ma’lumotlardan (26-jadval) ko‘rish mumkin.¹

26-jadval

Uezdlar	Bir pud pilla xom ashyo sining qiymati (so‘m)	CHuvalatilgan pillaning narxi	
		Bir pud pillaning qiymati (so‘m)	Bir pud pilla chiqindisining qiymati (so‘m)
Marg‘ilon	16- 24	120 200	10-25
Qo‘qon	12-15	190- 210	12-18
Andijon	16-22	210-240	14-29
Namangan	15-21	160-180	24
O‘sh	13-20	120-60	25 -30

Demak, bir pud xom ashyo qiymati 12—16 so‘m, chuvatilgani xom ashyoniki esa 120— 190 so‘m orasida bo‘lgan edi.

1907 yilda bahorning seryog‘in va sovuq kelishi sababli pilla hosili kamayib, 35515 pud xom ashyo (27-jadval) olindi.¹ Uning qiymati 304460 so‘m hisoblangan.

27-jadval

Uezdlar	Pilla xom ashyosi (pud)	Bir pud pillaning qiymati (so‘m)	Mahsulot qiymati (so‘m)
Marg‘ilon	5.313	5-8	37.000
Qo‘qon	12.252	9-12	134.770
Andijon	10,646	4-9	53.230
Namangan	3,210	11-13	38.520
O‘sh	3.210	11-13	38,520
Jami	35.515	—	304.460

¹ Обзор Феграпической области за 1894 г. Новый Маргелан, 1894. С. 13.

¹ O‘sha joyda.

Sifatli pilla Andijon va Qo‘qon uездlarida yetishtirilgan. Shu bois uning bozordagi narxi baland bo‘lgan. Keyingi o‘rinda Namangan va Marg‘ilon uездlari bo‘lib ularning mahsuloti arzonga sotilgan. O‘sh uездida pillaning narxi past bo‘lsa-da, lekin chiqindisi boshqa uездdagilarnikiga nisbatan qimmat turgan. Pilla yaxshi tozalanmaganligi tufayli ipak ko‘proq chiqindiga chiqib ketgan. O‘sha yili hosil darajasi pasayib, bor-yo‘g‘i 35515 pud yoki 304460 so‘mlik pilla yetishtirilgan. Qiyinchilikka qaramay, pillaning ancha qismi Qo‘qon uездida tayyorlangan.

Farg‘ona vodiysida birinchi pillachilik korxonasi 1896 yilda Aloizi tomonidan qurildi. Bu Oqpilla qishlog‘ida joylashgan korxonada yetishtirilgan urug‘dan olingan ipak xom ashyosining sifati ancha yaxshi bo‘lib chiqdi. 1898 yilda Marg‘ilon shahrida 350 pud (4.200 so‘mlik) va Marg‘ilon uездida 5625 (46.000 so‘mlik), Qo‘qon uездida 9872 pud (100.000 so‘mlik), Andijon uездida 8363 pud (83.630 so‘mlik), Namangan uездida 7196 pud (70.405 so‘mlik) va O‘sh uездida 1278 pud (10.000 so‘mlik) pilla yetishtirilgan.¹ Jami viloyat bo‘yicha 32683 pud yoki 314235 so‘mlik pilla tayyorlangan. Bu pilla stansiyasida xorijiy nav urug‘lardan yetishtirildi. Urug‘larning talay qismi pillachilarga tekinga tarqatilgan. Ayniqsa Qo‘qon va Andijonda pilla ko‘p yetishtirilgan.

1899 yilda Etnixida degan tadbirkor Farg‘ona shahrida pillachilik korxonasi ochib, 8 ta mikroskopda rus qizlari ishlagan. Unda yuzlab o‘zbek xotin-qizlari mehnat qilishgan.² Etnixida korxonasi yaxshi natijalarga erishib, 1901 yilda mahalliy ehtiyojdan tashqari 3 ming quti urug‘ Eronga jo‘natilgan. U 10—12 ming qutichada tayyorlangan. 1899, 1901 yillarda Qo‘qon, Chust va Namanganda pilla korxonalari qurildi. Umuman vodiyyda 7 ta pilla korxonasi ishga tushirilgan. 1899 yilda 80402 pud, 1900 yilda 101395 pud hosil olingan. Bu hisob Farg‘ona viloyatiga qarashli uездlarda quyidagi tarzda (28-jadval) berilgan.

28-jadval

¹ Ziyoev X. Z. O‘zbekiston mustamlaka va zulm iskanjasida. - T.: SHarq, 2006.B.145.

² Обзор Ферганской области за 1900 г. Новый Маргелан, 1901. С. 38.

Joylar nomi	Pilla xom ashyosi (so'm)	Bir pud pillaning qiymati (so'm)	Taxminiy umumiy qiymati (so'm)
Farg'ona shahri	750	8-15	8000
Marg'ilon uyezdi	32971	7 12	320000
Qo'qon uyezdi	27449	7 12	233316
Andijon uyezdi	15868	9-12	171548
Namangan uyezdi	20690	6-10	163530
O'sh uyezdi	3667	8-12	37000
Jami	101395		939394

Pilla yetishtirishda Marg'ilon, Qo'qon va Andijon uezdlari salmoqli o'rinni egallagan. Pillaning sifati va narxi balandligi jihatidan Andijon birinchi, keyingi o'rinlarda esa Namangan, O'sh va Farg'ona shaharlari turdi.

Pilla xom ashyosining hajmi 101395 pudni, qiymati esa 939 so'mni tashkil etgan.

1901 yilda ko'p xonadonlar pillachilik bilan shug'ullanib (29-jadval), pilla qurtini boqish uchun har bir xonadon 200 — 250 tut daraxtidan foydalangan.¹

29-jadval

Uezdar	Pillachilikning xonadonlarga nisbati			Yetishtirilgan pilla hajmi	
	Xonadonlar soni	Pillachilik bilan shug'ullanuvchilar soni	Pillachilik bilan shug'ullanuvchilar (foiz hisobida)	Jonlantirilgan pilla (pud)	Pilla hosili (pud)
Marg'ilon shahri	9668	1638	16,9	15.055	3017
Marg'ilon uyezdi	54451	23262	42,7	167653	35592
Qo'qon shahri	11965	610	5,1	4870	898
Qo'qon uyezdi	50389	20323	40,6	122511	23055
Namangan uyezdi	49790	23606	48,1	115375	18884
Andijon shahri	7618	1231	16,2	7090	723
Andijon uyezdi	45963	12298	26,7	56867	7879
O'sh shahri	4367	786	19,5	4350	488
O'sh uyezdi	8511	2275	26,7	10527	1160
Jami	253650	91627	36,1	514380	94134

Viloyatdagi 253,650 xonadonning 91627 tasi, ya'ni 36,1 foizi pillachilik bilan shug'ullangan. Bu borada Namangan shahri, Marg'ilon va Qo'qon uezdlari salmoqli o'rinni egallagan. Bu joylarda pilla xom ashyosi katta hajmda

¹ Ziyoev X. Z. O'zbekiston mustamlaka va zulm iskanjasida.- T.: SHarq, 2006.B.146.

yetishtirilib, 514380 jonlantirilgan pilladan 94134 pud hosil olingan. Buning ko'proq qismini Marg'ilon (35.592 pud) va Qo'qon uezdlari (23.055 pud) bergan.

Viloyatda pillaning yagona ozuqasi hisoblangan tut daraxtini ko'paytirishga alohida ahamiyat berilgan. 1901 yilda viloyatning ayrim volostlarida, xususan, Fayzobodda tut daraxti soni 69988, Yakkatutda 73380, Yozyovonda 136906, Yovkasak Bo'stonda 13300, Naymanda 16000 va Oltiariqda 120500 ta bo'lgan. Umumiy tut daraxti bir necha o'n mingtaga etgan. O'sha yili viloyatda 300000 pud yoki 2500000 so'mlik pilla yetishtirilgan.

1903 yilda pilladan yaxshi hosil olinib, u Marg'ilon uezdida — 78127 pud (1.248.969 so'mlik), Qo'qonda 29475 pud (433.167 so'mlik), Andijonda 7000 pud (84.000 so'mlik), Namanganda 12922 pud (198.990 so'mlik) va O'shda 1346 pud (13.602 so'mlik) yetishtirilgan. Jami 128870 pud pilla olinib, 1.978.728 so'mga baholandi.

1905 yilga kelib, pilla yangi navlari iqlimlashtirilishining samarasi yanada oshib, 30-jadvaldagi raqamlarga ko'ra, 182 42582 pud pilla olindi. Narxi esa 1955791 so'mni tashkil etdi. Pilla savdosi susaygan bo'lsa kerakki, narxi 1903 yilga nisbatan oz bo'lsada pasaygan. Pilla yetishtirishda Marg'ilon uezdi hosilni 73076 pudga etkazib, etakchi o'rinni egallagan.

30-jadval

Uezdlar	Jonlantirilgan pilla qurti (misqol)	Pilla (pud)	Bir pud pillaning qiymati (so'm)	Pilla hosilining qiymati (so'm)	Sotilgan pilla (pud)	Sotilgan pillaning qiymati (so'm)	Sotilmay qolgan pilla	
							(pud)	(so'm)
Marg'ilon	238797	73076	14 50	1059609	70148	1017146	2928	42463
Qo'qon	126669	30644	13,60	416761	29719	404185	624	12576
Namangan	72177	20500	12,15	249081	15151	184130	5346	64953
Andijon	58333	15211	12,42	188920	14923	185313	288	3576
O'sh	13075	3149	13,15	41415	2908	38210	241	3175
Jami	509051	142582	-	1955791	132853	1829045	9728	126746

Pillachilik samaradorligini oshirishda urug'chilik korxonalarining ochilishi muhim o'rin egalladi. Endilikda urug'larning kasalga chalinishi va pilla sifatining pasayishi kamaydi.

1909 yilda Fargʻona viloyati harbiy gubernatorining soʻzicha, 2.50000 pud quritilmagan yoki 70000 pud quritilgan pilla hosili olingan. 1898-1914 yillarda Qoʻqonda 2 ta, Margʻilonda 3 ta va Namanganda 6 ta urugʻchilik korxonasi ishga tushirilgan edi. V.V.Zagorskaya va K.A.Aleksandr toʻplagan maʼlumotlarga koʻra (31-jadval) 1913 yilda yuqorida koʻrsatilgan korxonalarda 130160 quti urugʻ tayyorlangan.¹ Bu urushning 63500 qutisi Qoʻqonda, 51000 qutisi Margʻilon va 15660 qutisi Namangan uездlarida yetishtirilgan. Qoʻqon urugʻi hosilning 48,8 va Margʻilon 39,2 foizini tashkil etgan. Qolgan 12,2 foizi Namanganda yetishtirilgan.

31-jadval

Uezdlar	Kor-xo-nalar	Urugʻlar soni			Umgʻlikka ishlatilgan pilla		Bir pud pilladan olingan urugʻ		
	soni	(quti)	(misqol)	(foiz)	(pud)	(foiz)	(yuqo- risi)	(kami)	(oʻr- tasi)
Qoʻqon	2	63500	381000	48,8	1874	57,3	36	17	34
Margʻilon	3	51000	306000	39,2	952	29,1	72	25	54
Namangan	6	15660	93960	12,2	444	13,4	48	30	35
Jami	11	130160	780960	100	3270	100	72	17	40

Qoʻqondagi korxonalarda 99100 soʻmlik, Margʻilon va Namangan uездlarida 95900 va 31773 soʻmlik pilla urugʻi yetishtirilgan. Urugʻchilik korxonalarida oʻzbeklar, ruslar va armanlar (32-jadval) ishlashgan.²

32-jadval

Ishlovchilar	Ishlovchilarning barcha toifalari				Saralovchilar			Mikroskopchilar		
	Umu-miy soni	Yer-kak-lar	Ayol-lar	Bola-lar	Yer-kaklar	Ayol-lar	Bola-lar	Yer-kak-lar	Ayol-lar	Bola-lar
Qoʻqon uezdi:										
oʻzbeklar	28928	3614	25314		3586	2586	2586			28
ruslar	5562		5490	72	-	15	72		-	-
armanlar	663	663	-	-	-			-	188	-
Jami	35153	4277	30804	72	3586	25329	72	5475	188	-
Margʻuon uezdi:										
oʻzbeklar	8550	-	7815	735		7815	735			
ruslar	3585	240	3345		-	-	-	3365		-
armanlar	-	-	-			1	-			
Jami	12135	240	11160	735	-	7815	735	3365		
Namangan uezdi:										
oʻzbeklar	4626	188	4167	271	88	4167	271	-		100

¹ Ziyoev X. Z. Oʻzbekiston mustamlaka va zulm iskanjasida.- T.: SHarq, 2006.B.148.

² Oʻsh joyda.

ruslar	925	120	805	-			-	805		
armanlar	1800	1800		-		-				
Jami	7351	2108	4972	271	88	4167	271	805		100
Viloyatlar bo'yicha jami										
o'zbeklar	42104	3802	37296	1006	3674	36296	1006	-		128
ruslar	10072	360	9640	72	-	15	72	9625	-	
armanlar	2463	2463					-		188	

Qo'qon uездidagi korxonalarda 28928 nafar o'zbek ishlab ularning 3614 nafarini erkaklar va 25314 tasini ayollar tashkil etgan. Marg'ilon uездida ishlayotgan 8550 nafar o'zbekning 7815 nafari ayol va 735 nafari bolalar bo'lgan. Namangan uездidagi 4626 nafar o'zbekdan 188 tasi erkak, 4167 tasi ayol va 271 tasi bolalar edi.

Viloyat bo'yicha korxonalarda 42104 nafar o'zbek ishlab, yerkaklar 3802, ayollar 37296 va bolalar 1006 nafar bo'lgan. Shuningdek, korxonalarda 10072 rus va 2463 nafar arman ishlagan. Korxonalarda ishlovchilarning 91,5 foizini o'zbeklar, 7,3 foizini ruslar va 1,2 foizini armanlar tashkil etgan edi.

O'zbeklar urug'larni saralash, terish va boshqa qora ishlar bilan shug'ullangan. Rus va armanlar asosan master sifatida mikroskoplarda ish olib borganlar.

Pillani oftobda yoki mexanik kameralarda quritish bilan shug'ullanadigan korxonalar ham qurilgan. 1913 yilda ularda 133150 pud pilla mahsuloti (33-jadval) yetishtirilgan.¹

33-jadval

Shahar va uездlar	Korxonalar soni	Mahsulotning pudi			
		Barchasi	Bir korxonaning ulushi	Kamida	Ko'pi bilan
Skobelev shahri	1	7000	7000	7000	7000
Marg'ilon shahri	8	44200	5525	3000	10.000
Skobelev uездi	3	21000	7000	5000	10.000
Jami	12	72200	6017	3000	10.000
Qo'qon shahri	7	42200	6029	3000	10.000
Qo'qon uездi	3	18750	6250	3000	9750
Jami	10	60950	60950	3000	10.000
Namangan shahri	3	11000	3667	3.500	4000
Andijon shahri	2	10.000	5000	4000	6000

¹ Ziyoev X. Z. O'zbekiston mustamlaka va zulm iskanjasida.- T.: SHarq, 2006.B.150.

Jami	27	.154150	5709	3000	10.000
------	----	---------	------	------	--------

Pilla xom ashyosi ko‘proq Marg‘ilon va Qo‘qon shaharlarida yetishtirilib, har biri 44200 pud mahsulot bergan.

Namangan va Andijon shaharlarining mahsuloti 10—11 ming pud bo‘lgan. Korxonalarning 12 tasi Skobelevda, 10 tasi Qo‘qonda va 5 tasi Namangan hamda Andijon shaharlarida joylashgan. Ularning ishlab chiqarish darajasi viloyat bo‘yicha umumlashtirilsa, kamida 3000 pudni, ko‘pi bilan esa 10.000 pudni tashkil etgan.

Korxonalarning faoliyati to‘g‘risida atroflicha tasavvur hosil qilish uchun mahsulotlarning qiymatiga doir ma’lumotlarni keltirish (34-jadval) o‘rinlidir.¹

34-jadval

Shahar va uездlar	Korxonalar soni	Mahsulotning so‘mdagi qiymati			
		Barchasi	Bir korxonaning qismati	Kamida	Ko‘pi bilan
Skobelev shahri	1	135250	155250	155250	155250
Marg‘ilon shahri	8	849706	106213	51300	183150
Marg‘ilon uездi	3	406440	135480	99990	1864.10
Jami	12	1411396	117616	51300	186450
Qo‘qon shahri	7	842788	120398	59500	191400
Qo‘qon uездi	3	396150	132050	59500	190400
Jami	10	1238938	12894	59500	191400
Namangan shahri	3	199630	66543	57500	78000
Andijon shahri	2	207350	103675	77350	130000
Viloyat bo‘yicha jami	27	3057314	113234	51300	191400

Bu raqamlarni ko‘rsatishicha, 1913 yilda Farg‘ona viloyati bo‘yicha 3057314 so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilgan. Bundan 1411396 so‘mi Skobelev shahri, Marg‘ilon shahri va uездiga, 1238938 so‘mi Qo‘qon shahri va uездiga to‘g‘ri kelgan.

Namanganda 199630 va Andijon shahrida esa 207350 so‘m miqdorida mahsulot ishlab chiqarilgan. Barcha korxonalar imkoniyatiga ko‘ra biri ko‘proq, biri kamroq mahsulot ishlab chiqargan.

¹ Ziyoev X. Z. O‘zbekiston mustamlaka va zulm iskanjasida.- T.: SHarq, 2006.B.151.

Yuqorida ko'rsatilgan mahsulotni 2000 nafardan ortiq kishi ishlab chiqargan.²

35-jadval

Uezdlar	Pilla (pud)	Pilla xom ashyo-sining (so'm)	Ipakning hajmi (pud)	Ipakning qiymati (so'm)	Pilla chiqindi-sining hajmi (pud)	Pilla chiqindi-sining (so'm)	Jami (so'm)
Marg'ilon	-	-	680	68000	1340	16080	84080
Qo'qon	-	-	545	86880	850	11900	98780
Andijon	400	3000	600	72000	400	5600	80600
Namangan	5256	26280	-	-	-	-	26280
O'sh	2980	20806	10	1230	-	-	22036
Jami	8636	50086	1835	228110	2590	33580	311776

Korxonalarda 2170 nafar kishi ishlab, ulardan 842 nafari erkaklar (38,8%) va 1243 nafari ayollar (57,3%) bo'lgan. Bolalar esa 85 nafar bo'lib, 3,9 foizni tashkil etgan. Ayollarning ko'pchiligi o'zbek millatiga mansub bo'lib, erkaklardan ajralgan holda alohida xonalarda ishlashgan. Masterlar soni 10 nafardan iborat bo'lgan, bog'lash va qadoqlash ishlarida 585 nafar erkak va 50 nafar bola band edi. Erkaklardan 245 va ayollardan 1243 nafari saralash ishlari bilan shug'ullangan.

1914 yilda 190000, 1915 yilda 200000 va 1916 yilda 180000 quti jonlantirilgan urug' tayyorlandi. Pillaning quritilmagan xom ashyosi 1914 yilda 200000, 1915 yilda 150000, 1916 yilda 250000 pud hajmda yetishtirilgan. Uning quritilgani esa 1914 yilda 65000 1915 yilda 50000 va 1916 yilda 85000 pudni tashkil qilgan.¹

Farg'ona viloyatida yetishtirilgan pilla xom ashyosining asosiy qismi Rossiyaga va u yerdan boshqa xorijiy mamlakatlarga olib ketilgan. 1895 yilda chetga chiqarilgan mahsulotlar hajmi va bahosi -jadvalda ko'rsatilgan.²

Shunday qilib, 8636 pud (50086 so'mlik) pilla xom ashyosi va 1835 pud (228110 so'mlik) ipak, 2590 pud (33580 so'mlik) ipak chiqindisi, jami 311776

² O'sha joyda..

¹ Загорская В.В.и Александров К.А. Промышленные заведения Туркестанского края. Петроград,1915.С.210.

² Обзор Ферганской области за 1895 г. Новый Маргелан, 1895. С. 18.

soʻmlik pilla mahsuloti viloyatdan olib ketilgan. Bunda Margʻilon va Qoʻqon uездlaridan eng koʻp mahsulot chiqarilgan.

Shuni aytish lozimki, mahsulotni chetga chiqarish miqdori pilla hosilining darajasiga qarab oshgan yoki pasaygan. Umuman olganda, u maʼlum darajada koʻtarilib borgan. Masalan, 1899 yilda 9000 pud, 1900 yilda 17000 pud va 1908 yilda 69432 pud pilla olib ketilgan. 1913 yilda esa bu raqam sezilarli darajada kamaygan.¹

Fargʻona viloyatida pilla quritish korxonalarida yetishtirilgan 51262 pud xom ashyodan 47762 pudi (93,2%) xorijga (Italiya, Fransiya va Turkiya) yuborilgan. Bu pulga chaqqanda 2850314 soʻmni tashkil etgan. 3500 pud (7,3%), yaʼni 207000 soʻmlik xom ashyo tadbirkorlar tomonidan chetga chiqarilib, ular moʻmay daromadni qoʻlga kiritganlar. Qaysi mamlakatda pilla xom ashyosiga bozorda talab boʻlsa, tadbirkorlar oʻsha joy bilan savdo olib borgan. Hunarmandlar esa pillaning viloyatda qolgan maʼlum qismidan gazlamalar toʻqib tirikchilik oʻtkazgan. Bu kasb ayniqsa Margʻilon shahrida rivojlanganligi maʼlum.

Fargʻona vodiysi pillachilikning ham markazi hisoblanar edi.

1.5.Togʻ-kon sanoati

Turkiston oʻlkasida qadimdan foydali qazilmalardan keng foydalanilgan. Ulardan harbiy qurollar, uy-roʻzgʻor buyumlari va hunarmandchilik asboblari tayyorlangan. Shuni aytish lozimki, konlarni texnika jihatidan takomillashtirish va ishlab chiqarishning samaradorligini oshirishga yetarli darajada ahamiyat berilmagan. Natijada oddiy qurollar va qoʻl kuchidan foydalanish asrlar osha davom etgan. Hatto konlar oʻz holiga tashlab qoʻyilgan vaqtlar ham boʻlgan. Bunday holat XVI-XIX asrlarda, yaʼni xonliklar davrida koʻzga tashlangan edi. Foydali qazilmalardan foydalanmaslik xonliklar davrida qoloqlik va inqirozlarni yuzaga keltirgan asosiy sabablardan biridir.

XVIII asr oxirlarida mustaqil Toshkent hukmdori Yunusxoʻja oltinni qoʻlga kiritish maqsadida rus imperatoridan mutaxassislar yuborilishini soʻragan.

¹ Обзор Ферганской области за 1895 г. Новый Маргелан, 1895. С. 18.

Imperator buni inobatga olib, T.S.Burnashev va M.Pospelovlarni Toshkentga yuborish haqida ko'rsatma bergan. Ular 1800 yilda Toshkentga kelib Yunusxo'ja tomonidan qabul qilinganlar. So'ngra shahar atrofidagi tog'larda qidiruv ishlari bilan shug'ullanib, bu yerlarda oltin yo'qligi to'g'risida Yunusxo'jaga axborot berishgan. Kon jihozlari va mutaxassislar yo'qligini ma'lum qilib, konlarni ishga tushirishning iloji yo'qligi haqida xulosa bildirishgan.¹ Darhaqiqat, o'sha vaqtlarda konlarni ochishga mutlaqo imkon yo'q edi. Temir yo'llarning yo'qligi sababli Rossiyadan tegishli jihozlar va mutaxassislar keitirishning iloji bo'lmagan.

Shu tariqa Yunusxo'janing o'ta daromadli orzusi ro'yobga chiqmay, ruslar vataniga qaytib ketganlar.

Rossiya xonliklarni bosib olganidan keyin foydali qazilmalarni ochishga kirishildi. Bu ish Farg'ona viloyatida ancha qizg'in tus olgan. Ma'lumki, viloyatda neft ishlab chiqarishni o'zbeklar allaqachonlar yo'lga qo'ygan edi.

Bu ishni rus savdo-sanoat vakillari davom ettirib, rivojlantirib bordilar. Ular o'z faoliyatini 1868 yildayoq boshlab, Qo'qon xoni Xudoyorxon bilan kelishilgan holda neft ishlab chiqarish bilan shug'ullangan. Bu ishga Feodorov, Xludov, Zako, Gromov va boshqalar qo'l o'rgan bo'lib, shartnomaga ko'ra xonlikka mahsulotning o'ndan bir qismi byerilishi kerak edi. Biroq texnika jihozlari yetishmasligi va boshqa qiyinchiliklar sababli ish to'xtatilgan. Qo'qon xonligi tugatilgandan keyin foydali qazilma konlarini ochish harakati kuchayib ketdi.

1883 yilda tadbirkor German hozirgi Farg'ona shahrining atrofida neftdan kerosin olishni yo'lga qo'ydi. Ammo mablag' yetishmasligi sababli Uning faoliyati ham to'xtagan. Biroq neft ishlab chiqarishga qaratilgan harakat davom etib, 25 ta kon borligi aniqlangan bo'lsa-da, ulardan to'rttasigina mahsulot bergan. Chunonchi, 1888 yilda Andijon uezdida 2000 chelakdan ortiq, 1899 yilda 8809 pud neft tayyorlangan. Neftdan mum va xilka (qurilish jihozi) olinar edi.

¹ Ziyoev X. Z. O'zbekiston mustamlaka va zulm iskanjasida. - T.: SHarq, 2006.B.217.

1889 yilda vodiy hududiga temir yoʻlining kirib kelishi munosabati bilan neftga boʻlgan talab kuchaydi. Shu bois neft qazish ishlari borgan sari oʻsib borgan. Konlar kapitalistlarga ijaraga berildi.

1895 yilda ular Namangan uezdida 350 pud, Andijon uezdida 5430 pud (4140 soʻmlik), bundan tashqari shagʻal zarrachalari aralashgan 10,310 pud (2522 soʻmlik) neft olingan. Viloyatda toshkoʻmir konini ochish ham boshlanib, uning miqdori Namangan uezdida 34,000 pudni tashkil etgan edi.

Shuningdek, Qoʻqon uezdidagi Xontaxta degan joyda 498 pud alibastr, katta miqdorda osh tuzi ishlab chiqarilgan.¹

XIX asr oxirlarida togʻ-kon sanoati hali unchalik rivojlanmagan edi. Bu toʻgʻrida jonli guvohlardan biri shunday yozgan: Shubhasiz, Fargʻona viloyati foydali qazilmalarga boy mintaqadir. Biroq bu sohada dastlabki qadam qoʻyilgan, xolos. Togʻ-kon sanoatining rivojlanmasligiga texnika jihozlari va mablagʻ yetishmasligi sabab boʻlmoqda. Shu bois toshkoʻmir, neft, oltingugurt, ganch va osh tuzi mahalliy ehtiyojni qondirish uchungina ishlab chiqarilmoqda.¹

1900 yilda Turkiston genyeral-gubernatorligining maʼmuriyati togʻ konlarida qidiruv ishlari uchun 2500 soʻm ajratdi. Shundan keyin injener Kovalev boshchiligida bir guruh temir yoʻl injenerlari Chimyonda ishlab, neft boʻyicha yaxshi natijalarga yerishgan. Temir yoʻl injenerlarining kon ishlariga aralashishidan maqsad parovozlarni neft yoqilgʻisi bilan taʼminlashdan iborat edi. 1901-1904 yillarda injener Mixaylov ham neft konlarini ishga tushirish boʻyicha foydali ishlar qilgan. Natijada neftning otilib chiqishiga yerishildi. Masalan, Namangan uezdidagi CHimyon va Moylisoy konlari shular jumlasidan.

1901 yilda Fargʻona neft sanoati shirkati neft konini ochib, mahsulot ola boshladi. 1904 yilda u “Chimyon togʻ neft sanoati” shirkatiga aylantirildi. U 2000000 soʻm mablagʻga ega edi. Shirkat 20 ta kon ochgan. Biroq barcha konlarni ishga tushirishning iloji yoʻqligi bois ulardan ayrimlarga mahsulot berib turgan. Masalan, 1-sonli kondan bir kecha-kunduzda 500 pud, 2-sonli kondan 400 pud, 3-

¹ Обзор Феграниской области за 1895 г. Новый Маргелан, 1896. С. 29.

¹ Oʻsha joyda.

son konda 70 pud, 4-sonli konda 260 pud, 5-sonlidan 1500 pud, 6-sonlisidan 800 pud neft olingan.

Konlarda 240 nafar kishi ishlab, ulardan 63 nafari ruslar mastyer lavozimida mehnat qilar edi. Qora ishlarda eronliklar va tatarlar ishlagan. Masterlar kunbayiga 70 tiyindan 3 so‘mgacha ish haqi olishgan. Chimyon, Moylisoy, Solrox va boshqa neft konlari kapitalistlarga ijaraga berilgandi. Chunonchi, Moylisoy konini knaz Xilkov boshqarib bir kecha-kunduzda 15200 pud neft qazib chiqargan. Unda 47 nafar kishi ishlagan. O‘rta Osiyo neft shirkati (“Santo”) Solroxdagi neft konida 74 nafar kishini ishlatgan. Bulardan 51 nafar rus, 2 nafar qirg‘iz, 16 nafar eronlik va 2 nafar qozonlik tatarlar edi. Ruslar masterlar lavozimida bo‘lganlar, boshqalar qora ishlarni bajargan. Oddiy kishilar kunbayiga 80-90 tiyin, masterlar 110 — 240 tiyin ish haqi olganlar.

1906 yilga oid ma’lumotda ko‘rsatilishicha, Farg‘ona viloyatida, xususan, Qo‘qon uezdida 30800 pud, Marg‘ilon uezdida 4285600 pud va Namangan uezdida 4460 pud, jami 4320860 pud neft ishlab chiqarilgan.¹ Bu o‘z davri uchun katta miqdordagi mahsulot edi.

Temir yo‘lining Vannav bekatida “Chimyon” jamoasi tomonidan qurilgan benzin va kerosin korxonalarida bir kecha-kunduzda neftdan 30000 pud mahsulot ajratilgan. 1906 yilda benzini olingan neft miqdori 3000000 pud bo‘lgan. 1907 yilning 9 oyi mobaynida 1800000 pud benzini olingan neft, 140000 pud benzin tayyorlangan. 1907 yilning oktabridan 1909 yilning yanvarigacha 2500000 pud neftdan 470000 pud kerosin va 175000 pud benzin olingan. Neft asosan O‘rta Osiyo temir yo‘lining ehtiyoji uchun sarflangan. Ishlatilgan mahsulotning umumiy miqdori 6500000 pudni tashkil qilgan. Chimyondagi neftdan 4 foiz benzin, 26 foiz kerosin olingan. Uning tarkibida parafin moddasi ham bo‘lgan.

Umumlashtirganda Farg‘ona viloyati bo‘yicha neft qazib chiqarish miqdori quyidagicha edi:²

pud hisobida

¹ Обзор Ферганской области за 1906 г. Новый Маргелан, 1907. С. 42.

² Дехқонов А. Ўзбекистонда тоғ-кон саноатининг вужудга келиши ва ривожланиши тарихидан. “Ўзбекистонда ижтимоий фанлар”, 12-сон, 1977. Б. 60.

1901 yil -	11595	1908 yil	- 2830627
1902 yil -	22570	1909 yil	- 847742
1903 yil -	33455	1910 yil	- 1737116
1904 yil -	70000	1911 yil	- 1737014
1905 yil -	2053695	1912 yil	- 2421679
1906 yil -	4320480	1913 yil	- 2337173
1907 yil -	3239079		

Binobarin, 1901 yilda 11595 pud neft olingan bo'lsa, 1905 yilga kelib u 2 million puddan oshib ketgan. Keyingi yilda 4320480 pudni tashkil etib, yuqori darajaga ko'tarilgan. Ammo keyingi yillarda goh kamayib, goh ko'payib turdi. Chamasi bu holat neftga nisbatan bo'lgan talabga bog'liq bo'lgan.

Farg'ona viloyatida faqat neft emas, balki toshko'mir ishlab chiqarish ham salmoqli o'rinni egallagan. 1905 yilda toshko'mir koni tadbirkor Aleksandrov tomonidan Qo'qon uezdiga qarashli Shurobda ishga tushirilgan. Bu yerda dastavval 813000 pud ko'mir olingan.

1907 yilning fevralidan 1908 yil dekabrigacha 186000 pud mahsulot tayyorlangan.

Konda ruslar, qirg'izlar, afg'onlar va tojiklar ishlab, ish haqini o'z vaqtida ololmagan. Paxta egasi ulardan 4000 so'm qarzdor bo'lib qolgan. Toshko'mir konlari Andijon atrofidagi Chang'itsuv, Navqa, Qizilqiya, Markasoy, Isimbuloq, Jal, Sulyuk, Yapalan, Jinjigan degan joylarda ishga tushirilgan. Jaldagi konda 28 nafar rus, 12 nafar tojik, 7 nafar qozon tatari, 3 nafar eronlik, 2 nafar o'zbek, jami 52 nafar kishi mehnat qilgan. Jinjigan konida 1898 yildan to 1905 yilgacha 3 million pud ko'mir qazib olingan.

Norin daryosining atrofidagi kondan 1905 yilda 5000 pud, 1906 yilda 33000 pud, 1907 yilda 51000 pud va 1908 yilda 70000 pud ko'mir olingan. Toshko'mir Ko'ktepa degan joyda ham olingan.

Viloyatda ochilgan konlarning hammasi muntazam ishlayvermagan. Masalan, 1901 yilda 7 ta kondan uchtasi, 1908 yilda 7 — 8 ta, 1910 yilda 10 ta va 1913 yilga kelib 17 ta kon mahsulot bergan.

XX asrning boshlarida Farg‘ona viloyatida qazib olingan ko‘miming hajmi quyidagicha bo‘lgan:¹

pud hisobida

1901 yil	- 235429	1908 yil	1112319
1902 yil	- 356490	1909 yil	1617871
1903 yil	- 981969	1910 yil	2227380
1904 yil	- 846169	1911 yil	3972068
1905 yil	- 1378018	1912 yil	3740378
1906 yil	- 1471346	1913 yil	602207
1907 yil	- 830000		

Agar 1901 yilda 235429 pud ko‘mir qazib olingan bo‘lsa, keyingi yillarda bu raqam oshib borganligi ko‘zga tashlanadi. Xususan, 1905 yilda 1378018 pud, 1910 yilda 2227380 pud va 1911 yilda 3972068 pud ko‘mir olingan. Ayrim yillarni hisobga olmaganda toshko‘mir qazish rivojlanib borgan edi. Shurob, Markasoy, Qizilqiya va Sulyuk ko‘mirlarining sifati yaxshi hisoblangan.

Ko‘mir qazib olish miqdorining uездlar bo‘yicha ko‘rsatkichi qanday bo‘lganligini quyidagi ma’lumotlardan bilish mumkin. 1906 yilda Qo‘qon uездida 304447 pud, Marg‘ilonda 1101700 pud, Namanganda 82000 pud va O‘shda 33139 pud ko‘mir tayyorlangan. Shunday qilib barcha uездlarda ko‘mir qazib chiqarilib, bu sohada Marg‘ilon birinchi va O‘sh uездi oxirgi o‘rinda turgan.

Farg‘ona viloyatida mis koni ham ochilgan. 1900 yilda Belgiya sanoat shirkati Supatepadagi konni ishga tushirib, mis ola boshlagan. Ammo, u 1904 yilda o‘z faoliyatini to‘xtatgan. Viloyat bo‘yicha 1902 yilda 39100 pud mis chiqarilgan. 1906 yilda Qo‘qon uездida 3560 pud, Namangan uездida 8945 pud, jami 12505 pud mis qazib olinganligi ma’lum. 1912 yilda 61214 pud mis olingan. Bu hisobga Marg‘ilon uездidan olingan mis ham qo‘shilib uning 30000 pudi Sankt-Peterburgga jo‘natilgan. Viloyatda ozokerit ham olingan. Uning miqdori 1905 yilda 10350 pudni, 1910 yilda 32445 pudni tashkil etgan edi. Ozokerit Rossiya orqali xorijiy mamlakatga ham yuborilgan. Viloyatdagi Qo‘qon uездida 1906 yilda 12400 pud, 1911 yilda 1000 pud oltingugurt olingan. Qo‘qonda asfalt ham olinib,

¹ Дехқонов А. Ўзбекистонда тоғ-кон саноатининг вужудга келиши ва ривожланиши тарихидан. “Ўзбекистонда ижтимоий фанлар”, 12-сон, 1977. Б. 60.

1906 yilda 9000 pudni tashkil etgan. O'sha yili 1934182 pud osh tuzi tayyorlangan. Tuz ishlab chiqarish uzluksiz davom etgan.

SHunday qilib, Farg'ona viloyatida neft, toshko'mir, mis, oltingugurt, ozokerit, asfalt va osh tuzi singari yer osti boyliklari qazib olingan.

Qimmatli foydali qazilmalarga o'zbeklar yaqinlashtirilmagan. Bundan maqsad daromadlarning bo'linib ketishiga yo'l qo'ymaslik edi. O'zbeklar kam daromadli tuz konlarigagina egalik qilganlar, xolos. O'lkada ko'proq neft, toshko'mir va mis qazib chiqarilgan. Tog' jinslaridan ayrimlari, xususan, mis qimmatli xom ashyo hisoblangan. U Farg'ona viloyatidagi Novkat, Sipanau, Chilmahram, Tuyamo'yin, Jidbuloq, Xo'jand uezdidagi Mo'g'ul tog' va Mirza Robot, Chimkent uezdidagi Ojuray, Kur, Kurkuksoy, Toshkent uezdidagi Karamko'l va Oqtoshdagi konlarda qazib chiqarilgan. Farg'ona viloyati neft va ko'mir qazib olishda ham oldingi safda turgan. Ko'mir Sirdaryo va Samarqand viloyatlarida qazib chiqarilayotgan foydali qazilmalarning asosiy qismini tashkil etar edi.

Buxoro xonligiga kelganda shuni aytish lozimki bu yerda tog'-kon sanoati hali etarli darajada yo'lga qo'yilmagan edi. Xonlikda kapitalistlar oltin konlari bilan shug'ullangan. Masalan, 1897 yilda injener P.L.Joravko, Pokorskiy Safet daryosidan 1 — 1,5 pud oltin zarralarini olgan. 1909 yilda esa 1372 pud oltin olingan. U o'zining 15 yildan ortiqroq faoliyati mobaynida Amir xazinasiga 2,5 pud oltin bergan, xolos. Pirovardida u kasodga uchrab, ishni to'xtatgan. Oltin koni bilan tadbirkor G.A.Siraas va genyeral Pokatilo ham shug'ullangan. Ammo ular maqsadga erisha olmay, faoliyatni to'xtatishga majbur bo'ldi.

Xiva xonligida esa tabiiy boyliklar yo'qligi sababli konlar ishga tushirilmagan.

Turkiston general-gubematorligiga qarashli viloyatlarda tog'-kon sanoati vujudga kelgan bo'lsa-da, lekin texnika jihatidan jahon andozasi darajasidan ancha orqada edi. Tog'-kon sanoati Chor hukumati va kapitalistlarning manfaati uchun xizmat qilgan, xolos.

II bob Farg‘ona vodiysida ishchilar sinfini shakllanishi, ularning ahvoli va ishchilar harakatlari

2.1 Farg‘ona vodiysida ishchilar sinfining shakllanishi va uning manbalari

Sanoat korxonalarining paydo bo‘lishi va rivojlanishi oqibatida, shahar aholisining ma’lum bir kismi ishlab chiqarishga tortila boshlaydi, bu esa o‘lkaning iqtisodiy va siyosiy hayotida muhim bir hodisa hisoblanadi.

Shahar aholisining ko‘payib borishida va ishchilar sinfining shakllanishida yersiz va kam yerli dehqonlarning ham roli katta bo‘lgan. Ikki tomonlama zulm ostida qolgan yersizlangan va qashshoqlashgan dehqonlar ommasi Farg‘ona viloyat aholisining kattagina foizini tashkil etardi.

Uezdlar	Xo‘jaliklar soni	Yersiz xo‘jaliklar soni	%
Marg‘ilon	63488	13963	22
Andijon	64616	9940	15,38
Ko‘kon	57441	793	1,38
Namangan	62228	7370	10,96
O‘sh	21435	638	2,97

Yersiz dehqonlarning ko‘pchilik qismi ish qidirib shaharlarga oqib kelardilar. Ular sanoat korxonalariga ishga kirar yoki turli yordamchi ishlar bilan shug‘ullanar edilar. Mahalliy ishchilar sinfi nafaqat yersiz va qashshoq dehqonlar

hisobiga, balki hunarmandlar hisobiga ham to'ldirib borilgan. Kustar hunarmandchilik Rossiya tovarlariga raqobat qila olmay kasodga uchramoqda edi. Masalan, Farg'ona viloyatida 1890 yildan qiymati deyarli 50% ga tushib ketgan edi. Bundan tashqari, ishchilar sinfi saflari Buxoro xonligidan va boshqa hududlardan kelgan mavsumiy ishchilar hisobiga ham ko'payib bormoqda edi.

Shu bilan birga, ishchilar sinfining saflari Rossiyaning markaziy rayonlaridan, Ural va Sibirdan ko'chib kelayotgan rus va boshqa xalqlar vakillari hisobiga ham to'lib bormoqda edi.

V.V.Zaorskoj va K.A.Aleksander ma'lumotlariga qaraganda, Turkiston o'lkasida ishchilar soni 12482 ta bo'lib, ularning 8897 tasi o'zbeklar (71,3%), 1571 tasi ruslar (12,6%), 991 tasi tojiklar (7,9%), 173 tasi qashqarliklar va dunganlar (1,4%) va 833 tasi boshqa millatlardan (6,74%) edi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, ishchilar saflarida o'zbeklar son jihatidan birinchi o'rinda, ruslar esa ikkinchi o'rinda turar edilar.

Aytish kerakki, Farg'ona viloyatida ishchilarning yarmiga yaqinini paxta tozalash zavodi ishchilari (5783 kishi) tashkil etgan. 2170 tasi pilla quritish va 1117 kishi ipak qurti urug'i korxonalari ishchilarini tashkil etardi. G'isht zavodlarida esa 618 ta ishchilar ishlagan, qolgan korxonalarda esa ishchilar soni ozchilikni tashkil etgan.

Farg'ona viloyati Turkiston o'lkasining katta sanoat markazi hisoblangan. Sababi paxtachilikni boshqa hududlarga nisbatan rivojlanganligi, paxta tozalash va yog'-moy zavodlarining joylashganligi edi. Shu bilan birga Farg'ona ipakchilikning ham markazi hisoblanib, pilla quritish va ipak qurti urug'i korxonalarining ham vujudga kelishini takozo etgandi.

Bularning barchasi ishchilar sinfi sonining viloyatda ortishiga sabab bo'ldi. Va bu butun Turkiston o'lkasidagi ishchilar sinfining deyarli yarmisini Farg'ona viloyatida shakllanishiga omil bo'lgan edi. Bu quyidagi jadvalda keltirilgan ma'lumotlarda yaqqol ko'rinadi.¹

36-jadval

¹ Sharafiddinov A. Alimova N. Farg'ona vodiysi chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida Farg'ona 2011.B.75

Ishchilarning millati	Farg'ona viloyati		Turkiston o'lkasi buyicha	
	Ishchilar soni	%	Ishchilar soni	%
Ruslar	1572	12,6	4774	22,8
O'zbeklar	8897	71,3	12702	60,7
Qirgizlar	16	0,1	944	4,5
Tojiklar	991	7,9	1142	5,5
Qashg'arliklar, dungan	178	1,4	304	1,4
Boshqalar	833	6,7	1059	5,1
Jami:	12482	100	20925	100

Jadvaldan ko'rinadiki, butun o'lkada bo'yicha ruslar viloyatga nisbatan 10% ga ortiq, o'zbeklar esa viloyatda o'lkaga nisbatan 10% ortiqni tashkil etgan. Mahalliy ishchilarning umumiy sonidan tog'-kon ishchilari ham muhim ahamiyatga ega bo'lgan. 1911 yilda viloyatda 11 ta toshko'mir konlari va 9 ta neft konlari faoliyat ko'rsatib, ularda 1808 nafar ishchilar ishlamoqda edilar. 1913 yilda toshko'mir sanoatida 75%, neft konlarida esa 78% ishchilar o'zbeklardan tashkil topgan edi.

Shunday qilib, Farg'ona viloyatida butun Turkiston o'lkasida bo'lgani singari ishchilar sinfining shakllanishi o'lkada paxta tozalash korxonalari, yog' zavodlari, pilla quritish, ipak qurti korxonalari, tog'-kon sanoati va boshqa sanoat turlarining rivojlanishi bilan bog'liq holda bordi.

Shu o'rinda sanoat korxonalari tarmoqlarida ishlagan ishchilar ularning milliy tarkibi haqidagi ayrim ma'lumotlarni ko'rsatib o'tish ham bu sohada to'la ma'lumot olishga va xulosalar chikarishga yordam byeradi.

Ipak qurti urug'i korxonalarida asosan o'zbeklar, ruslar va armanlar ishlagan. Bu haqda Zaorskaya V.V. va Aleksandyer K.A. keltirgan ushbu ma'lumotlar harakterlidir. Ipak kurti urug'i tayyorlaydigan korxonalar misolida.

37-jadval

Ishlovchilar	Ishlovchilarning barcha toifalari				Saralovchilar			Mikroskopchilar		
	Umumiy soni	Erkaklar	Ayollar	Bolalar	Erkaklar	Ayollar	Bolalar	Erkaklar	Ayollar	Bolalar
Qo'qon uezdi:										
O'zbeklar	28928	3614	25314	-	3586	2586	-	-	-	28
Ruslar	5562	-	5490	72	-	15	72	-	-	-
Armanlar	663	663	-	-	-	-	-	-	188	-
Jami:	35153	4277	30804	72	3586	25329	72	-	188	28

Marg‘ilon uezdi										
O‘zbeklar	8550	-	7815	735	-	7815	735	-	-	-
Ruslar	3585	240	3345	-	-	-	-	3365	-	-
Armanlar	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-
Jami:	12135	240	11160	735	-	7815	735	3365	-	-
Namangan uezdi:										
O‘zbeklar	4626	188	4167	271	88	4167	271	-	-	100
Ruslar	925	120	805	-	-	-	-	805	-	-
Armanlar	1800	1800	-	-	-	-	-	-	-	-
Jami:	7351	2108	4972	271	88	4167	271	805	-	100
Viloyatlar bo‘yicha										
Jami:										
O‘zbeklar	42104	3802	37296	1006	3674	36296	1006	-	-	128
Ruslar	10072	360	9640	72	-	15	72	9625	-	-
Armanlar	2463	2463	-	-	-	-	-	-	188	-

Ko‘rinib turibdiki, Qo‘qon uezdidagi korxonalarda 28928 nafar o‘zbek ishlab, ularning 3614 nafarini erkaklar va 25314 tasini ayollar tashkil etgan. Marg‘ilon uezdida ishlayotgan 8550 nafar o‘zbek ishchilarining 7815 nafari ayol va 735 nafari bolalar bo‘lgan. Namangan uezdidagi 4626 nafar o‘zbek ishchilarilaridan 188 tasi erkak, 4167 tasi ayol va 271 tasi bolalar edi.

Viloyat bo‘yicha korxonalarda, 42104 nafar o‘zbek ishlab, erkaklar 3802, ayollar 37296 va bolalar 1003 nafar bo‘lgan. Shuningdek, korxonalarda ishlovchilarning 10072 rus va 2463 68 nafarini armanlar tashkil etgan. Korxonalarda ishlovchilarning 91,5 foizini o‘zbeklar, 7,3 foizini ruslar va 1,2 foizini armanlar tashkil etgan edi¹.

Alohida ta’kidlash kerakki, Turkiston o‘lkasida, hususan Farg‘ona viloyatida ishchilar sinfini shakllanishida temir yo‘llar qurilishi va temir yo‘l transporti juda katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Podsho Rossiyasi tomonidan bosib olingan O‘rta Osiyoda qator temir yo‘llarning qurilishi, masalan, O‘rta Osiyo magistrali, Toshkent va Farg‘ona liniyalarining qurilishi va ularda ishlovchilarni sonining 1914 yilga kelib 35 000 kishidan ortib ketishi va shundan doimiy ishlovchilarning sonini 23 000 dan ortiqni tashkil etishi juda katta kuchni tashkil etardi. Temir yo‘llar qurilishi bilan bog‘liq holda depo, ustaxonalar ham qurib borildi va ular ishchi kadrlar to‘plangan markazlarga aylanib bordilar. Masalan, 1912 yilda 17 ta temir yo‘l ustaxonalarida 4205 nafar ishchilar mehnat qilganlar.

¹ Ziyoev X. Z. O‘zbekiston mustamlaka va zulm iskanjasida.- T.: SHarq, 2006.B.164-166.

Aytish kerakki, temir yo‘l kadrlari asosan quyidagi manbalar asosida shakllanayotgan edi: birinchidan, hokimiyat transport va boshqa kasb egalarini Markaziy Rossiyadan qo‘shimcha imtiyozlar bilan to‘ldirib keldi va maxsus harbiy qismdan foydalandi. Ikkinchidan, bu davrga kelib o‘lkada shakllanib qolgan rezervdagi mehnat armiyasi hisobiga to‘ldirish jarayoni sodir bo‘ldi. Uchinchidan, transport ishchilari armiyasi Markaziy Rossiyadan inqilobiy harakatlarda ishtirok etgan va Turkiston o‘lkasiga surgun qilingan kishilar hisobiga ham to‘ldirildi. To‘rtinchidan, temir yo‘l ishchilari saflari mahalliy aholi hisobiga ham to‘ldirib borildi .

Ta’kidlashni istardikki, podsho Rossiyasining buyukdavlatchilik va shovinistik siyosati mahalliy aholini davlat ishlarida ishlatmaslik uchun har tomonlama qarshilik ko‘rsatib keldi. Biroq, rivojlanib borayotgan burjua munosabatlari sinfiy, ijtimoiy tabaqalanish jarayonini tezlashtirib yubordi. Mehnat armiyasi rezervini vujudga keltirdi. Vujudga kelgan mehnat armiyasining bir qismi o‘lkada temir yo‘l transporti bilan bevosita bog‘liq edi. Shu bilan birga mahalliy aholi vakillari eng og‘ir ishlarga jalb qilinar edilar. Shunday bo‘lishiga qaramasdan sobiq dehqonlar, hunarmandlar va boshqalar juda katta xohish, istak bilan bunday ishlarga kelardilar.

Umuman olganda o‘lkada, xususan, Farg‘ona viloyatidagi sanoat korxonalarida, temir yo‘llarda ishlovchi ishchilar sinfining shakllanishi va bunday ijtimoiy qatlam orasida mahalliy millat vakillarining, xususan, o‘zbeklarning bo‘lishi muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Xalqimiz orasidan tehnikani tushunadigan, u bilan muomala qila oladigan ongli kishilar otryadi vujudga keldi.

2.2 Sanoat korxonalarida ishchilarning ahvoli va norozilik harakatlari

XX asr boshlarida o‘lkada xalq harakatlari yangi bosqichga ko‘tarildi. Buning asosiy sababi Rossiyadagi 1900-1903 yillardagi iqtisodiy tanglik, 1901 yildagi ocharchilik, 1904-1905 yillarda esa imperialistik rus yapon urushi ahvolni yanada

keskinlashtirib yubordi. Urushda Rossiyaning magʻlubiyati yalpi norozilikka sabab boʻldi. Buning toʻlqini Oʻrta Osiyoga ham etib keldi. Urushda koʻrilgan katta xarajatlarni qoplash uchun mustamlaka hududlarini ayovsiz talash avjiga chiqdi. Oʻzbek dehqon va uning oilasi ochlik, qashshoqlik yoqasiga kelib qoldi. Peterburgdagi 9 yanvar qonli yakshanba fojeasi chekka tumanlar aholisini ham kurashga qoʻzgʻatdi. Umuman, 1905 yilning bahori, yozi va kuzidagi Rossiyadagi inqilobiy harakatlar Turkistondagi dehqonlarni ham harakat maydoniga tortdi¹.

Turkiston shaharlaridagi har bir sotsial demokratik inqilobiy chiqish oʻzbek dehqonlariga katta taʻsir oʻtkazdi. Mustamlakachilar va mahalliy boylarning zulmi kuchaygani, sudxoʻrlikning oʻsishi, yerlarning kelgindi ruslarga olib berilishi dehqonlar harakatini keltirib chiqardi. 1905-1906 yillardagi dehqonlar harakati oʻziga xos shaklda namoyon boʻldi: qishloq aholisi soliq toʻlashdan, majburiyatlarni bajarishdan bosh tortdi. Soliq yigʻish paytida dehqonlarning chor amaldorlari, pristavlar va ularning tarjimonlariga hujum qilish hollari koʻpayaverdi. Shu davrda roʻy bergan ocharchilik tufayli Fargʻonaning koʻplab, viloyatlaridagi dehqonlar oziq-ovqat doʻkonlarini taladi².

1905 yilning fevral-aprel oylarida volost hokimlari va qishloq oqsoqollarini qayta saylash vaqtida dehqonlar gʻalayonlari - chor maʼmuriyatiga qarshi ommaviy ravishda chiqish uchun bahona boʻldi xolos.

Namangan uezdining bir qancha volostlarida (Yangiqoʻrgʻon, Sarisuv, Bogʻish uездlarida) hokimlarni saylash vaqtida dehqonlarning gʻalayonlari kuchayib ketganligi natijasida saylov oʻtkazish imkoni yoʻqqa chiqarildi. Uezd boshligʻi esa gubernatordan hokimlarni saylamay

¹ Bobobekov X. Raximov J, Sodikov X- Uzbekiston tarixi. 8 sinf. T.: Oʻqituvchi. 1994. - B. 172.

² Oʻzbekiston xalqlari tarixi. 2 jild. Askarov A. Taxriri ostida. Fan. 1994. - B. 193.

to'ppa to'g'ri tayinlashni iltimos qildi. Bir amallab saylov o'tkazib olingan joylarda ham (Chotqol volosti, Tepaqo'rg'on, Qirchin, Qorasuv, Olti Qayrag'och, Oq Yo'l va boshqa qishloqlar) mehnatkashlar tinchimay, qaytadan odil saylov o'tkazishni talab qildilar.

Andijon uezdida (Bozorqo'rg'on volosti) saylov katta g'alayon chiqishiga sabab bo'ldi. 1905 yil martida Namangan uezdining Sarisuv volostidagi Aflotun degan joyda volost hokimini saylash vaqtida 1500 ga yaqin qirg'izlar to'plandi. Oqibatda qo'zg'olon boshlanib ketdi. Ellikboshi va saylov o'tkazuvchilar do'pposlandi. Natijada bir necha kishi qamoqqa olindi. Saylov o'tkazilmay qoldi.

1905 yil 1 martida Bozorqo'rg'on volosti jamoalaridan vakil qilingan Ismoilbek So'fiev Farg'ona harbiy gubernatorlariga xalq talabi bo'yicha noma topshirdi. Unda bunday deyilgan edi: "Yaqinda o'tkazilgan saylovlar aholi uchun sira kutilmagan natijalarga olib keldi. Bu yangi tartibdagi saylovlarda boylar aholi manfaatlarini yo'qqa chiqarib, xalqning umumiy xohishi bilan hisoblashmay, faqat boshliqlarning tayinlanishi tufayli boylik orttirishga muvaffaq bo'ldilar, ular o'zlarini haddan tashqari katta olib, shaxsiy foydalari yo'lida aholining xar bir yaxshi istagini nazar e'tiboriga olmayotirlar. Aholi o'zi istagan odamini vakillikka saylashni istaydi"¹.

1905 yilda Namangan uezdida xalq kurashi kuchayib, kambag'allar ayrim volostlarda o'zlarining hurmatini qozongan vakillarni sayladilar. Ammo hukumat ularni tushirib tashlash uchun kurash boshladilar.

1905 yilning bahorida Farg'ona viloyatida dehqonlar harakati jiddiy tus oldi. Dehqonlar o'z huquqlarini talab qilib, qo'rquv bilmay chor ma'murlariga va qishloq boylariga qarshi otlandilar. Ayniqsa, Chodak volostining Furumsaroy qishlog'ida keskin ahvol vujudga keldi.

Dehqonlar ma'muriyat ishonchsiz deb topgan Egamberdi Husanovboyevni oqsoqol qilib sayladilar. Hukumat uni tasdiqlamadi. Natijada katta janjal boshlandi. Tepaqo'rg'on, Qirchin qishloqlari aholisini ham unga qo'shib ketdi.

¹ Бобобеков Х - Рахимов Ж. Содиков Х - Ўзбекистон тарихи. 8 синф. Т.: Ўқитувчи. 1994. - Б. 173.

Pristav va uning yigitlari orasida to‘qnashuv kelib chikdi. Osmonga o‘k uzulib ularning hujumi to‘xtatildi. Lekin g‘alayonchilar uylariga qaytmay Chust va Namangan tomon yo‘l oldilar. Lekin bu g‘alayon katta kuch bilan bostirildi.

Namangan uezdining Tergovchi qishlog‘ida ham kuchli g‘alayon sodir bo‘ldi. Bunday tashvishli xabarlarini olish harbiy gubernatorlar uchun odatiy hol bo‘lib qoldi. Shu jihatdan Kattaqo‘rg‘on uezdi boshlig‘ining 1905 yil mayda Samarqand harbiy gubernatoriga yuborgan raporti diqqatga sazovordir. Unda uездда “kuchaytirilgan muhofaza” muddatini uzaytirish zarurligi ta’kidlanadi. Turkistondagi ahvolning ham Kavkazdagiga o‘xshab borayotganligi yuqori tabaqa kishilari yashashi tabora havfli bo‘lib borayotganligini ro‘y rost bildirdi. Bu dalillar qishloqlarda ziddiyatlar keskinlashib ketganligini ko‘rsatadi¹.

Qishloqdagi sinfiy kurash Namoz Primqulovdek zabardast kurashchilarni yetishtirdiki, ularning nomlarini podsholikning oliy tabaqadagi amaldorlari eshitishlari bilanoq etlari junjib, dahshatga tushadigan bo‘lib qolganlar. xalq unga “Namoz botir” deb nom qo‘ydi². General gubernatorlik harbiy sud maxkamasi unga “o‘g‘ri Namoz” deb atadi. U Samarqand viloyati qishloqlari, tog‘ va daralarida 1904-1907 yillarda qasoskorona kurash olib bordi.

Namoz Pirimqulov va uning safdoshlari haqida Samarqand va Toshkent okrug sudlari, muhim ishlar bo‘yicha tyergovchilari to‘plagan “jinoiy ishlar” 12 jildi tashkil qilgan³. Shundan ko‘rinadiki, Namoz Pirimqulov boshchiligidagi dehqonlar isyoni rus mustamlakachi ma’murlarni ham qattiq tashvishga solgan. Rus ma’murlari Namoz Pirimqulovni tutish uchun bor imkoniyatlarini ishga soldilar.

Mustabid tuzumga qarshi o‘ziga xos xaloskorlik yo‘lini tutgan Namoz botirning o‘limi dehqonlarning mavjud mustabid tartibga va mustamlaka zulmiga qarshi kurashini to‘xtata olmadi.

1905-1907 yillardagi katta kichik vokealar Turkiston xalqlarini rus

¹ Ўзбекистан халклари тарихи. 2-жилд. Аскарлов А. Тахрири остида Фан. 1994. - Б. 194.

² Ўзбекистон Республикаси Президентини И.А.Каримов 1999 йил 9 майда Хотира ва кадрлаш кунида сўзлаган нутқидан.

mustamlakachilari lagerida birlik yo'qolgani va o'rtada o'zaro kurash boshlanganidan darak berdi. Rus mustamlakachilari Turkiston xalqlari vakillari ozodlik kurashi girdobiga tortilguday bo'lsa, ularning orasida milliy ong uyg'onib, istiqlool kurashi boshlanishidan g'oyat xavfsirashgan. Shuning uchun ham birinchi rus inqilobi boshlangan oyda 1905 yilning yanvaridayoq general gubernator mahkamasining bosmaxonasida o'zbek tilida "davlatpanox imperator"ga bag'ishlangan duo matni chop etilib, joylarga yuborildi.

15 oktyabrda Toshkent, Qo'qon temir yo'lchilari, 16 oktyabrda Andijon, Chorjo'y, 17 oktyabrda Samarqand temir yo'lchilari stachkaga ko'tarildi. Bu stachkalarda iqtisodiy talablarga qaraganda siyosiy talablar ko'proq edi. Temir yo'lchilar ish tashlashi O'rta Osiyo temir yo'lida joylashgan Qo'qon, Andijon, Marg'ilon, Chernyayev, Kogon va Turkistonning boshqa shaharlarini qamrab oldi.

Podshoning 1905 yil 17 oktyabrdagi manifesti Turkistonda ham miting va namoyishlarga sabab bo'ldi. 18 oktyabr kuni yertalab O'rta Osiyo Bosh Toshkent temir yo'l ustaxonalari oldidagi maydonda o'tgan mitingda manifest haqida Toshkent guruhi vakillari tanqidiy fikr bildirishdi va unga "qog'ozdagi qonun" deb atab odamlarni hukumatga qarshi kuch ishlatishiga chaqirdilar va birinchi galdagi vazifa qamoqdagi siyosiy maxbuslarni ozod qilish ekanligini uqtirdilar. 10 ming kishilik olomon safida ishchilar, talabalar, hunarmandlar, dehqonlar va mayda savdogarlar, shu jumladan mahalliy millat vakillari ham bo'lgan.

Turkiston o'lkasida 1905 yil 2 noyabrgacha davom etgan oktyabr siyosiy etakchisi askarlari o'rtasida ham kuchli bezovtalik uyg'otdi. Sapiyorlar va o'qchi batalyonlarida "tartibsizlik" va intizom buzish hollari kuchaydi. Ular hatto o'z boshliqlariga zo'rovonlik o'tkazishga urinishdi. Qo'zg'olon bostirilgandan keyin ham eserlar va bolsheviklarning tashviqoti davom etdi. O'lkada ish tashlashlar biriga biri ulanib ketdi. Noyabr va dekabr oylarida Turkistondagi amaliy hokimiyat o'ziga xos ishchi va askar noiblari Sho'roni vazifasini o'tovchi temir yo'l stachka qo'mitalari qo'liga o'tdi. O'rta Osiyo temir yo'lidagi ish tashlash 18 kun davom etib, 3 dekabrda yakunlandi.

Ruslarning ish tashlash harakati tub millatlarga mansub aholini ham

“yo‘ldan urgani” haqida rasmiy gazetalar ham xabar berishgan. “Umumiy ish tashlash” deb yozgan edi. “Turkestanskiy vedomosti” 1905 yil 12 noyabr sonida, - Andijonga ham yoyilib ishchilari nuqul sartlardan tashkil topgan paxta tozalash zavodlarini ham to‘xtatib qo‘ydi¹.

1907 yil fevral oyida Samarqand harbiy gubernatori o‘lkada inqilobiy tashkilotlarning yerli aholiga ta’sirini yo‘qotish uchun jinoiy-siyosiy qidiruv xizmatini joriy qilishni taklif etdi. Farg‘ona viloyati harbiy gubernatori ham ma’qullab, bugungi kunda siyosiy jinoyatchilar soni yerli aholi vakillari hisobiga ko‘payganligini ham qo‘shib qo‘yadi. 1907 yilda Turkiston rayon muxofaza bo‘limi tashkil qilindi. Impyeriya ichki ishlar vazirligi agentura harakatlari uchun Kaspiyorti viloyatiga 2000, Farg‘ona 1900, Samarqand 1200 uy ajratdi. Mustamlaka ma’muriyati idoralarida mirshablik josuslik ruhi kuchayib ketdi. 1911 yilda Sirdaryo, Samarqand, Farg‘ona, Yettisuv va Kaspiyorti viloyatlarida shunday idoralar ta’sis etildi. Peterburgda ishlangan dastur bo‘yicha rus mustamlakachilarining maxfiy siyosiy idoralari izchil ishlab, Turkiston musulmonlari ongida jiddiy o‘zgarish yuz berib, milliy ozodlik kurashi kurtak yozgani va bu holat jadidlar siymosida gavdalanganini yaxshi payqashgan. Ular general gubernatorining maxsus tuzilgan so‘rov anketasi bo‘yicha mahalliy aholining kayfiyati, dunyoqarashi, rus tuzumiga munosabati, milliy mustaqilikka intilishi holatlari ham o‘rganilgan.

1910-1914 yillarda Turkiston o‘lkasida milliy o‘zlikni anglash jarayoni kuchaya bordi. Mustamlaka ma’muriyati idoralari 1911 yilda Farg‘ona viloyatida “idora tartiblariga va jamoat osoyishtaligiga qarshi kurashdan guvohlik beruvchi” 833 ta, 1913 yilda 1220 ta jinoiy ishi qayd etganlar. Bu raqamlar xalq o‘rtasida mustamlakachilik zulmiga qarshi kurash muttasil o‘sib borayotganligini ko‘rsatadi².

1912 yili Toshkent yaqinidagi Troitskiy lagerida turgan sapyorlar

¹ Ўзбекистон Республикаси Президента И.А.Каримов 1999 йил 9 майда Хотира ва кадрлаш кунида сўзлаган нутқидан. В 400.

² Ўзбекистон халклари тарихи. 2-жилд Аскарлов А. тахрири остида. Фан. 1994. - Б. 223.

qo'zg'oloni bostirilgach, general gubernator uning mahalliy aholiga ta'siridan cho'chib, viloyat harbiy gubernatoriga, "Andijondagiga o'xshash chiqishlarga yo'l qo'ymaslik uchun "keskin choralar ko'rish zarurligini buyurgani ham o'lkadagi ozodlik harakatida ko'tarilish kayfiyatidan darak berar edi.

Birinchi jahon urushi butun Rossiya impyeriyasi, shuningdek, Turkiston o'lkasi aholisining ham ahvolini og'irlashtirdi. Rus qo'mondonligi o'zining Germaniya va Turkiyaga qarshi urushdagi no'noqligi tufayli o'rinsiz qurbonlar berib, Rossiyaning urushga taraddudi puxta bo'lmaganligini ko'rsatdi. Do'ppisi tor kelib qolgan rus qo'mondonligi urush og'irligini mustamlakalar yelkasiga ortib, ularni ayovsiz ezish siyosatiga o'tdi. 1916 yilning 25 iyunida imperator Nikolay II tomonidan qabul qilingan yangi Farmon esa mazlum xalq qalbida zulm va adolatsizlikka qarshi lovullab turgan va norozilikni olovga quyilgan yog'dek alangalatib yubordi. Bu Farmonga ko'ra o'sha paytda Birinchi jahon urushida ketma-ket mag'lubiyatga uchragan Rossiya impyeriyasining front orti nohiyalariga Turkistondagi 19 yoshdan 43 yoshgacha bo'lgan mahalliy erkak ahli mudofaa ishlari, istehkomlar qurish uchun safarbar etilishi lozim edi.

Mazkur Farmonning amalga oshirilishi, eng avvalo, xalqni o'z boquvchilari - ro'zg'orboshidan mahrum etib, uning shusiz ham og'ir ahvolini yanada mushkullatishi shubhasiz edi¹.

Turkiston general gubernatoriga farmonni tezlikda amalga oshirish buyurilib, Sirdaryo viloyati zimmasiga 87 ming, Samarqandga 88 ming, Farg'onaga 50 ming mardikor yuborish vazifasi yuklatildi. Farg'ona viloyati boshqalariga nisbatan ancha yengil majburiyat oldi. Sababi shunda ediki, aosiy to'qimachilik sanoati uchun boy xom ashyo makoni bo'lib, u bilan yirik rus sanoatchilari manfaati bog'liq edi. 1916 yil 2 iyuldagi kengashi qaroriga ko'ra paxta maydonlarining 50%ni tashkil qilgan rayonlarda belgilangan mardikorlarning 1/6 qismi, 25%ni tashkil etgan joylardan 50% olinadigan bo'ldi. Turkistonning boshqa viloyatlariga nisbatan 6 barobar kamaytirilishi Farg'ona

¹ Зиёева Д. Туркистон миллий озодлик ҳаракати. Фафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. Т.: 2000. - Б. 7.

viloyatining qulay xom ashyo zonasi ekanligi yana bir bor tasdig'ini topadi.²

O'n minglab ishga yaroqli kishilarni olib ketilishi ko'p oilalarni boqimandasiz qolishlariga olib kelardi. Mardikorlikka olishdan tartibsizliklar va adolatsizliklar qo'zg'olonni tezlashtirgan omillardan bo'ldi.

Qo'zg'olon dastavval 1916 yil 4 iyulda Xo'jandda ko'tarildi. Samarqand viloyatining boshqa joylarida ham birin ketin qo'zg'olonlar ko'tarildi. Farg'ona viloyatidagi qo'zg'olonlar ozodlik kurashining eng qaynoq o'choqlaridan hisoblanadi. 1916 yil 9 iyulda qo'zg'olon Andijon shahrida Jom'e masjidi maydonida ko'tarildi. Bu qo'zg'olonga Hakim Oqsoqlov, A.Ro'ziboev kabi jasoratli kishilar boshchilik qildilar. Xalq "hoziroq hamma mingboshilar va amaldorlarning boshini kesib tashlaymiz va mol mulkini yer bilan yakson qilamiz" deb tahdid solib, safarbarlikni bekor etishni talab qilib, politsiya va kazaklarga hujum qildi. Jazolovchilar qo'zg'olonchilarga o't ochib 3 kishini o'ldirdi, 12 kishini yarador qildi.

10 iyulda Oltinko'l volostiga qarashli Dalvarzin qishlog'ida qo'zg'olonchilar volost boshlig'i Hakimbek Ro'zimbekov va uning ikki hamrohini o'ldirganlar. Bunda qishloqning butun aholisi qatnashdi. Jazo otryadi etib kelgan vaqtida ularning hammasi qishloqni tashlab ketgan edilar.

13 iyulda Andijon uezdining Maygir volostining Chuam qishlog'ida qo'zg'olon ko'tarilib, olomon qishloq oqsoqoli YU.Hasanboev, ellikboshi Qipchoqboy va Mulla Yo'ldosh Sultonxo'jayevlarni urib o'ldirganlar. Shuningdek, ular amaldorlarning uylarini buzib, mol mulklarini va veksellarini yondirib tashlaganlar².

Qo'zg'olonchilar jazo otryadlari tomonidan shavqatsiz bostirilishiga qaramay, tobora ko'proq tarqalib bordi. Bu borada Chek Oftobachi, Mirobod va boshqa qo'shni qishloqlarda ko'tarilgan qo'zg'olonlarni ko'rsatish mumkin.

Qo'zg'olon M.Masaidov, I.Saidboyev va R.Raimberdiyev boshchiligida

² Бобобеков Х- Рахимов Ж. Содиков Х.,. Ўзбекистон тарихи. 8 синф. Ўқитувчи. Т.: 1994. - Б.214

² Зиёев Х- Туркистонда Россия тажовузи ва ҳукмронлигига қарши кураш. Т.: Шарк. 1998. - Б. 410-411.

Don quyma qishlog'ida ham bo'lib o'tgan. Bu yerda haloyiq qishloq oqsoqoli M.Sarimsoqovning xonadoniga bostirib kirib mardikorlar mardikor ro'yxatini va boshqa hujjatlarni kuydirdilar. Ma'muriyat vakillari qo'zg'olonchilarning jazosidan shaharga qochib qutulishga erishganlar.

Norin volostida bo'lib o'tgan xalq qo'zg'olonlari ham alohida diqqatga sazovordir. Bu viloyatning Cho'ja nomli qishlog'ida YU.Masodiqov, X.Xojiyev boshchiligida olomon tayoq, ketmon va o'roq bilan qurollangan holda oqsoqol M.Karimboy o'gli va ellikboshi T.Yoratboyevlarning xonadoniga hujum qilganlar. Biroq oqsoqol va ellikboshi oldinroq qochib ulgurgan edilar. Harbiy otryad to'planib turgan bir guruh olomonga o'q otgan va ikki kishini o'ldirgan.

12 iyulda xalq qo'zg'oloni Norin volostining Xo'jaobod qishlog'ida ham bo'lganligi ma'lum. Andijon uezdining Kapa va Poda qishlog'i va Baliqchi volostida ham qo'zg'olon ko'tarildi, oqsoqol va ellikboshilar olomon tomonidan o'ldirildi. Bunday qo'zg'olonchilar Jalolquduq, Hakimobod, Izboskan va Yorboshi volsotlarida bo'lgan. Bu ishda faol qatnashgan. Mamarasulov, Hasanov, So'fiyev va boshqa qo'zg'olonchilar qamoqqa olinib, sudga berilgan. 14 iyulda qo'zg'olonchilar Qorasuv stansiyasiga hujum qilganlar.

Farg'ona viloyatining eng yirik qo'zg'olonlaridan biri iyulda Marg'ilon shahrida bo'lib o'tgan edi. 20-25 ming kishidan iborat shahar aholisi O'rda maydonida to'planib mardikorlikka olishga qarshi ko'tarildilar. Qo'zg'olonchilar mardikorlikka olish haqida farmonni tushuntirish va amalga oshirish maqsadida so'zlamochi bo'lgan polkovnik Pexotin va mahalliy ma'muriyat vakillarini gapirishga mutlaqo yo'l qo'ymay hujum qilganlar. Polkovnik Pexotin to'ponchani o'qtalغان holda zo'rg'a to'dadan qochib qolgan. Oqsoqollar urib o'ldirilgan. qo'zg'olon vaktida olomon tomonidan 8 kishi o'ldirildi. Jazo otryadi 63 kishishini qamoqqa olindi. Jinlar qishlog'ida esa ko'zg'olonchilar bilan jazo otryadi o'rtasida to'knashuv bo'lib o'tdi.

Yozyovon bo'lisining boshqa joylarida ham qo'zg'olonlar bo'lib, ulardan 36 kishi sud javobgarligiga tortilgan. Bu qo'zg'olonlarning muhim xususiyati shundaki, unda xotinlar faol qatnashganlar. Biroq chor ma'muriyati jamoat

tazyiqidan cho‘chib, ayollar ustidan olib borilgan tergovni pirovardida to‘xtagan edi.

Xalq qo‘zg‘olonlari Qo‘qon uezdining ko‘p joylarida ham bo‘lib o‘tdi. Qo‘qon shahrining Aravon bo‘lisida xaloyiq adolatsizlik va zulmga qarshi ko‘tarilib, bo‘lis hokimini kaltaklab o‘ldirgan. Bu voqeaning sababi haqida Turkiston rayon tartibini muhofaza qilish bo‘limi boshlig‘i M.N.Volkov o‘z raportida shunday yozgan: “Qo‘qon shahrida Aravon volost hokimi Ibrohimning o‘ldirilishi uning xalqqa qattiq zulm o‘tkazishi oqibatida sodir bo‘ldi. Bo‘lim hakimi safarbarlik haqidagi buyruqni olishi bilanoq bo‘lim mirzasi G‘ofir bilan maslahatlashib, chaqiriq ro‘yxatlariga barchani kiritish va kim pul bersa, uni ro‘yxatdan o‘chirishga qaror qildilar, bu uning o‘ldirilishiga olib keldi.

10 iyul kuni kechasi Yangiqo‘rg‘on volostining Shayxmir qishlog‘i aholisi M.Azizov boshchiligida oqsoqol N.Shoyusupovning uyini yondirgan 8 iyulda qo‘zg‘olonchilar uezdining Katta Avg‘on qishlog‘ida ellikboshi va boshqa amaldorlarni kaltakladi. Jazo otryadlari tomonidan 10 kishi qamoqqa olindi. Bu vaqtda Qaynar volostiga qarashli Naymancha qishlog‘ida ayollar ishtirokida qo‘zg‘olon ko‘tarildi. 9 iyul kuni Aravon volostining Roziyog‘lik qishlog‘idagi aholining qo‘zg‘oloni jiddiy tus oldi. Volost hokimi I.Hasanboyev va hamrohlari o‘ldirildi. Jazo otryadi 316 kishi o‘ldirilgan. Bu qo‘zg‘olonda 2 ming kishidan ortiq erkak va ayol qatnashib, ular Aravon, Kaligor, Turkman, Chomoshbi va Barzangi qishloqlar aholisidan tarkib topgan edi¹.

11iyul kuni Ganjiravon qishlog‘i va uning atrofidagi joylarning aholisi birgalikda bosh ko‘tarib, volost hokimini uyiga bostirib kirib, mardikorlik ruyxatini va uy jihozlarini yondirganlar. Soldatlar 29 kishini qamagan.

Qo‘zg‘alon tarixida Naymancha qishlog‘idagi aholining qo‘zg‘oloni diqqatga sazovordir. Bunda ayollar jasorat bilan bosh ko‘tarib, olomonning birinchi safida turgan. Bu qo‘zg‘olon ham bostirilgan. 12 iyulga o‘tar kechasi 400-500 kishilik xalq To‘da qishloq oqsoqoli qo‘lidan mardikorlik ro‘yxatini tortib

¹ Зиёев Х., Ўзбекистон мустақиллиги учун курашлар тарихи. Т.: Шарқ. 2001. - Б.279.

olib kuydirgan. Bu vaqtda Rishton qishlog'ida ham qo'zg'olon ko'tarilgan. 12 kishi qamoqqa olingan¹. Qishloq aholisining ko'zg'olonlari temir yo'l va stansiyalar, telefon va telegraf simlarini xavf ostiga qo'ygan. Qo'zg'alonlar bostirilgan bo'lsa-da, lekin ular chor ma'muriyat vakillarini mavqeiga zarba berib dovdiratib qo'ydi. Xalq g'alayoni Namangan uezdida ham keng ko'lamda o'tgan edi. 9 iyulda erkak va ayollar imperatorning mardikorlikka olish xaqidagi Farmonini tan olmasliklarini bildirganlar. Ma'muriyatning qo'zg'alonni tarqatishda qaratilgan choralar natija bermadi. Soldatlar pulemyotlardan uk, uzib qo'zg'olonchilardan 12 kishini o'ldirdilar, 38 kishini yaralanadi, 19 kishi qamoqqa olindi.

12 iyulda Uychi va Olmos qishlog'ida ham qo'zg'olon bo'lib o'tdi. Uychi qishlog'ida 500 kishilik xalq ellik boshini o'ldirgan. 24 iyulda uездning Chandovul qishlog'ida katta qo'zg'olon bo'ldi. Qo'zg'olonchilar politsiya va uning boshlig'ini tutib, ro'yxatlarni tortib olganlar 50 nafar faol qo'zg'olonchi sudga berildi.

15 iyulda uездning Chodak, 17 iyulda yuqori Asht qishloqlarida ham qo'zg'olon bo'ldi. Quyi Asht qishlog'idagi qo'zg'olon ham anacha kuchli bo'lgan. 1000 kishidan iborat qo'zg'olonchilar 17 iyulda bolta, pichoq, tayoq va toshlar bilan volost hokimi M.Alimboboevning idorasini buzib qarshilik ko'rsatgan rasmiy kishilarni o'ldirganlar. Ular hokimning uyiga borib, xonavayron qilgan va mol mulkini yondirganlar. Shu bilan bir qatorda hokimning tog'asi U.Odilboev kaltaklanib, zambilda maydonga olib chiqildi va o'ldirildi. Qo'zg'olonchilar bu bilan chegaralanmay xokimga tegishli do'konlarni ham buzib tashladilar. Hammasi bo'lib hokimning 50 ming so'mdan ortiq mol mulkini taladi.

Chor hukumati o'lkada qo'zg'olonlarni bostirish uchun 14 ta batalon, 33 ta kazak harbiy bo'limini, 42 ta to'pni va 69 ta pulemyotni jalb qildi. Jazo otryadlari nihoyatda shavqatsizlik bilan harakat qildilar. Bu haqida general gubernator A.P.Kuropatkinning rus imperatori Nikolay I ga yozgan raportida shunday

¹ Зиёев Х., Ўзбекистон мустақиллиги учун курашлар тарихи. Т.: Шарқ. 2001. - Б.279.

yozilgan edi: “Siz imperator oliy xazratlari va barchaga muqaddas vatan hisoblangan buyuk Rossiya oldida o‘z sodiqligini unutgangigi va jinoiy ishlar qilganligi uchun Turkiston aholisi qattiq jazolandi”. Qo‘zg‘olon qatnashchilaridan 3000 dan ortiq kishi tergovga tortilib ulardan 1588 sud qilindi. Bular 25 iyul 15 dekabr oylari orasida bir necha guruhlariga bo‘lingan holda sud qilindi. Xatto mahbuslarni katta bir qismini sud qilish 1917 yil yanvar oyiga qoldirildi. 1916 yil 20 dekabr oyida berilgan ma‘lumotga ko‘ra , qo‘zg‘olonchilarning bir qismi ya‘ni 933 kishi sud qilinib, 346 kishi oqlangan. 587 mahbus bo‘yicha hukm chiqarilib 201 kishi osib o‘ldirishga, 104 kishi katorgaga, 194 kishi arestantlik bo‘limiga, 88 kishi qamoqqa kesildi. Jizzax qo‘zg‘olonchilaridan 50 kishi o‘lim, 1 kishi katorgaga hukm etildi. Bolgadan volostidagi qo‘zg‘olon bo‘yicha 50 kishi osib o‘ldiriladigan bo‘ldi. Umumlashtirilganda 1916 yil qatnashchilaridan 347 kishiga o‘lim jazosi berildi. Ammo xalqni qaxr gazabi va nafratini yana quzgatmaslik uchun o‘lim jazosiga tortilganlarning ancha qismi uzoq muddatli katorgaga almashtirildi. Tergovsiz va sudsiz minglab qo‘zg‘olonchilar va ularning oila a‘zolari o‘ldirilgan edi. Ammo A.N.Kuropatkin bu haqida og‘iz ochmay qo‘zg‘olon orqasida ko‘rilgan talofatlarni ta‘riflaydi. Uning imperator nomiga yuborgan axborotiga ko‘ra 3709 ruslar jabrlanib 2325 o‘ldirilgan, 1384 kishi daraksiz yo‘qolgan . Chor ma‘muriyati vakillaridan 7 kishi, mahalliy quyi mansabdagilardan 22 kishi o‘ldirilgan. 9000 xo‘jalik vayronga aylantirilgan. Ayni paytda temir yo‘llar buzilgan, ko‘priklar yondirilgan mol mulk talandi. Ayniqsa Jizzax qo‘zg‘olonchilariga vahshiylarcha munosabatda bo‘lindi¹.

Jizzaxda qo‘zg‘olon ko‘tarilganligini ro‘kach qilib 2000 gektar unumli yer davlat foydasiga musodara qilindi. Qo‘zg‘olonchilarning tashabbuschilari osib o‘ldirildi. General gubernator A.N.Kuropatkin bayon etilgan jazo choralarini quyidagicha ta‘riflagan edi: “Tub aholi shuni yaxshi bilsinki, rus qoni to‘kilgan taqdirda aybdorlarni osib o‘ldirilishi bilan bir qatorda ularni yerlari Andijon (Dukchi Eshon) qo‘zg‘oloni ishtirokchilariga nisbatan qilingandek tortib olinadi.

¹ Зиёев Х,- Туркистонда Россия тажавузи ва ҳукмронлигига қарши кураш. Т.: Шарқ. 1998. - Б. 418.

Bu har bir g'alayondan keyin qat'iy ravishda qilinayotgan tartib tub aholini rus hukumatiga qarshi qurol ko'tarmaslikka majbur yetish lozim!". Boshqalarga ibrat va xavf bo'lishi uchun birinchi navbatda qo'zg'olonni eng yukori cho'qqisiga ko'tarilgan joylardan biri Jizzax yer bilan yakson qilindi.

SHuni aytib o'tish kerakki, yuqori tabaqa orasida dilida chor hukumatiga va mardikorlikka olishga qarshi bo'lgan kishilar yo'k emasdi. Ular pinhon ish yuritdilar. Masalan, Andijon shahridagi eng yirik millioner Mirkomil Mir Mo'minboev Qo'qon mingboshisi nomiga maxfiy xat jo'natgan: "Ma'lum bo'lsinki, Qo'qon aholisi va boylari mardikorlikka olish masalasi bo'yicha qattiq turishlarini tayinlagan, mardikorlikka bormaslikni aytinglar, qo'rqmanglar Rossiyani ahvoli tang. Men o'zim borib ko'rdim. Bu xatni o'qi va tez javob ber, sir tut".

Shu mazmundagi xat Marg'ilondagi Said Mamad Eshonga ham yuborilib, unda faqat bir yoqadan bosh chiqarib ish yuritilsa, xalq qo'zg'olonini ko'tarish osonligi ko'rsatib o'tilgan. Lekin Mirkomil Mir Mo'minboyevning chaqirig'i boshqa yuqori tabaqa vakillarining qo'rqoqligi tufayli amalga oshmadi. Xatto milliy burjuaziya va ziyolilar zaif bo'lganligi uchun o'zlarini o'ta urushdan cho'chidilar. Natijada xalq g'alayonlariga boshchilik qiladigan bilimdon raxbar topilmadi. Jazo otryadlarining vahshiyliги o'lkada xavfli vaziyatni vujudga keltirdi. Bundan vahimaga tushgan mahalliy tabaqa vakillari va ziyolilar vaziyatni yumshatish maqsadida mardikor olishga qaratilgan Farmonni amalga oshirishga yaqindan yordam berishga ahd qil dilar.

Qo'zg'olon o'lkadagi rus mustamlakachilik tuzumidagi bo'sh zaminda ekanligi va uning ustunlari qimirlay boshlanganini ham ko'rsatdi. U chorizmning yaqinlashib kelayotgan umumsiyosiy tangligining yorin bir ko'rinishi edi.

Qo'zg'olonning shavqatsiz usullarda bostirilishi jadidlar tomonidan nafrat bilan qarshi olindi. Jadidlar rus demokratiyasi yordamida Petrograd da IV Davlat Dumasining 13 dekabr sessiyasida rus mustamlakachilarining 1916 yildagi milliy ozodlik qo'zg'olonini bostirishdagi qonxo'rliklari va adolatsizliklarini fosh

etdilar”¹

Qo‘zg‘olon bostirilgach, 1916 yil 23 avgustida A.N.Kuropatkin mardikorlikka safarbar qilish tadbirlari haqida buyruq chiqardi. Belgilangan 200470 kishini 51233 si Farg‘ona viloyatiga berildi. Mardikorlar harbiy va sanoat korxonalarida, konlarda, temir yo‘llar qurilishlarida, o‘rmonlarda va ayrim kapitalistlarning xo‘jaliklarida qattiq ishlatildi.

O‘zbek mardikorlari mashaqqatli va og‘ir hayotning asiri bo‘lib qolmay, kurash olib bordilar. Ular bir necha marta ish tashladilar va harbiy otryadlar bilan to‘qnashgan vaqtlari bo‘ldi. Ular fevral burjua demokratik inqilobidan keyin o‘z vataniga qaytishga erishdalar.

Umumiy xulosa shuki, 1916 yil qo‘zg‘oloni chor hukumatining mustamlakachilik va ulug‘ millatchilik siyosati avjiga mingan vaqtda yuz berdi. U milliy zulmga, o‘lkani Rossiyaning xom ashyo manbai va tayyor mahsulotlar bozoriga aylanishiga qarshi qaratilgan edi.

XX asr boshidagi xalq harakatlarining tarixiy ahamiyati shundaki, u butun Turkiston yerlarida tub aholining siyosiy ongi va faoliyatining o‘rishiga olib keldi. Unda ayollarning qatnashishi muhim voqea hisoblanadi. Qo‘zg‘olonlar keng quloch yoyib, shahar kambag‘allarini, dehqonlar ommasini va rus hukumati hukmronligidan norozi bo‘lgan yuqori tabaqa vakillarini qamrab oldi. Qo‘zg‘olonlar o‘zbek va o‘lkaning boshqa xalqlarining mustaqillik, ozodlik uchun olib borgan kurashlari tarixida o‘chmas iz qoldirdi.

¹Ўзбекистон тарихи. 8-синф учун. Акад А. Асқаров таҳрири остида. Т.: Ўқитувчи. 1996. - Б. 222.

Xulosa

Qo‘qon xonligi bosib olingach, uning o‘rnida Farg‘ona viloyati tashkil etildi va bu yerda harbiy-politsiya tartibiga asoslangan boshqaruv uslubi joriy qilindi. Butun o‘lkada bo‘lgani singari viloyat mustamlakachilik va milliy zulmning yorqin namunasiga aylandi. Hokimyat butunlay podsho harbiylari qo‘liga o‘tib, viloyat harbiy gubernator tomonidan boshqariladigan bo‘ldi. Farg‘ona vodiysi metropoliyaning arzon ishchi kuchi va xom ashyo bazasiga aylanib, mahalliy xalqning turmush sharoiti kundan-kunga yomonlashib bordi.

O‘rta Osiyoni bosib olganidan so‘ng chor Rossiyasining eng asosiy maqsadlaridan biri bu hududda mavjud bo‘lgan tabiiy boyliklarni tashib ketish edi. Shuning uchun ham chor Rossiyasi bu hududni o‘zining xom ashyo bazasiga aylantirishga kirishdi va bu hududda xom ashyoni dastlabki qayta ishlovchi sanoat korxonalari tashkil etildi.

Podsho Rossiyasining siyosati o‘lkadagi yirik sanoatni shakllanishini taqozo etmas edi. Biroq o‘lkani mustamlaka sifatida ekspluatatsiya qilish maqsadi va uning boy xom ashyo resurslaridan effektli foydalanishga bo‘lgan qiziqish turli qishloq xo‘jalik mahsulotlariga dastlabki ishlov beruvchi sanoat korxonalarini qurish va ishlatishga olib keldi.

Natijada yetishtirilgan paxtaga beriladigan ishlov paxta tozalash zavodlarida berilib, qolgan ishlarning barchasi Rossiya sanoati korxonalarida bajarilgan.

Aytish lozimki, paxta tozalash sanoatining vujudga kelishi va rivojlanishi oldinga bosilgan katta bir qadam hamda o‘lkada sanoat ishlab chiqarishning boshlanishi bo‘ldi. Shuningdek, paxtachilikning va uni tozolah sanoatiga asos solinishi yog‘ zavodlarining paydo bo‘lishiga olib keldi. Takidlash lozimki,

yogʻ zavodlari paxta tozalash zavodlaridan farq qilib, ular tayyor mahsulot ishlab chiqarganlar va ichki bozorni taʼminlab turganlar.

Shuningdek, pillachilik yangi navlarni iqlimlashtirish va ularni sifatini yaxshilash hisobiga Fargʻona vodiysida keng quloch ochib, yaxshi samaralar berdi. Natijada, vodiylar pillachilikni ham makoniga aylanib, oʻlka pillasini asosiy qismini yetishtirgan. Biroq pilla xom ashyo sifatida Rossiyaga olib ketilgan. SHu bilan birga, vodiya togʻ-kon sanoati ham vujudga kelgan boʻlsada, bu sanoat ham faqat podsho hukumati va kapitalistlarning manfaati uchun xizmat qildi.

Shunday qilib, oʻlkada boʻlgani singari Fargʻona vodiysida paxtani texnika asosida tozalaydigan zavodlar qurilib ishlab chiqarish samaradorligi ancha oshgan.

Garchand sanoat korxonalarining ishga tushirilishi katta ahamiyat kasb etgan boʻlsada ularning taraqqiyoti qiyin kechdi. Chunki, kam harajat qilib koʻp foyda olish yoʻlida borgan tadbirkorlar korxonalarining texnik jihatdan takomillashtirishga va ish sharoitini yaxshilashga ishlovchilarning manfaatlarini qondirishga ahamiyat bermadilar.

Shu bilan birga, mahalliy xalq turmush darajasining pasayib borishi, shariat qoidalarining buzilishi, milliy va diniy qadriyatlarning toptalishi, jinoyatchilikni kuchayib borishi, xalqning mavjud tuzumga nisbatan nafratini yanada kuchayishiga olib keldi. Bu esa, butun oʻlkada boʻlgani singari Fargʻona vodiysida ham milliy-ozodlik va xalq harakatlarining paydo boʻlishi hamda kuchayishiga olib keldi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati:

I. Rasmiy manbalar:

1. Karimov I. A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – Toshkent: O'zbekiston, 1997.-326 bet.
2. Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. –T.: Sharq, 1998.-31 bet.
3. Karimov I. A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. –T.: Sharq, 200.-32 bet.
4. Karimov I. A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. VII tom, Toshkent, O'zbekiston, 1999.-413 bet.

II. Adabiyotlar:

1. Alimova D. va boshqalar. O'zbekiston tarixi. 10-sinf darslik. –T.: Sharq, 2005.-465 bet.
2. Azamxo'jayev S. Turkiston Muxtoriyati. –T Ma'naviyat, 2000. -169 bet.
3. Ziyoev D. Turkistonda milliy ozodlik harakati. –T.: G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2000. -174 bet.
4. Ziyoev H. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash. (XVIII-XX asr boshlari). –T.: Sharq, 1998. -478 bet.
5. Ziyoev H. O'zbekiston mustaqilligi uchun kurashlar tarixi. –T.: Sharq, 2001. -447 bet.
6. Jo'rayev N. Tarix falsafasi. –T.: Ma'naviyat, 1999. -192 bet.
7. Jo'rayev N. Tafakkurdagi yevrilish. –T.: Sharq, 2001. -238 bet.
8. Ibrohim Karim. Madaminbek. –T.: Sharq, 2000. -160 bet.
9. Igor Bunich. Partiyaning oltinlari. –T.: Ma'naviyat, 1999. -375 bet.
10. Murtazayeva R. X. Va boshqalar. O'zbekiston tarixi (ma'ruzalar matni). –T.: Yangi asr avlodi, 2000.. -675 bet.
11. Mustabid tuzumning O'zbekiston milliy boyliklarini talash siyosati: tarix shohidligi va saboqlari. (1865-1990 yy.). –T.: Sharq, 2000. -431 bet.
12. Radjapova R. O'zbekiston tarixi. (1917-1993 yy.) 9-sinf uchun darslik. –T O'qituvchi, 1994.-394 bet.
13. Rajabov Q. , Haydarov M. Turkiston tarixi. –T.: Universitet, 2002. -166 bet.

14. Razzaqov A. O‘zbekiston paxtachiligi tarixi. –T.: O‘zbekiston, 1994. -300 bet.
15. Sovet ittifoqi Kommunistik partiyasi tarixi. –T.: O‘zbekiston, 1983. -860 bet.
16. Tarix va taqdir: Farg‘ona vodiysi tarixini tadqiq etish muammolari. I kitob, Namangan. 2000.
17. Tarix, mustaqillik, milliy g‘oya. –T.: Akademiya, 2001. -334 bet.
18. Tarix shoxidligi va saboqlari Chorizm va sovet mustamlakachiligi davrida O‘zbekiston milliy boyliklarining o‘zlashtirilishi. –T.: Sharq, 2001. -463 bet.
19. Shamsutdinov R. , Karimov Sh. O‘zbekiston tarixidan materiallar. (III kitob) Andijon. “Andijon nashriyot matbaa” oaj, 2004. -651 bet.
20. Shamsutdinov R. , Karimov Sh., Ubaydullayev O‘. Vatan tarixi. –T.: Sharq, 2003. -351 bet.
21. O‘zbekistonning yangi tarixi. Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. (I kitob) –T.: Sharq, 2000. -462 bet.
22. O‘zbekistonning yangi tarixi. O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. (II kitob) –T.: Sharq, 2000. -678 bet.
23. O‘zbekiston Respublikasi. Ensiklopediya. –T.: Qomuslar. Bosh tahririyati, 1997. -656 bet.
24. Qosimov Y. Qora ko‘zoynak bilan yozilgan tarix. Namangan, 1993. -104 bet.
25. Qosimov B. Milliy uyg‘onish. –T.: Ma’naviyat, 2002. -398 bet.